

TAJRIBA VA AMALIYOT

Bekzod YAKUBOV. Tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish va dalillarni asoslash muammolari 23

FAOLIYAT

Ulugbek ASHUROV. Huquqbuzarliklarning oldini olishda prokuratura va ichki ishlar organlarining o'рни 25

JARAYON

Doston XONNIYOZOV. Prokuratura organlarining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi vazifalari 28

XORIY TAJRIBASI

Fazliddin ZARIPOV. Advokat stajyorining tayyorlanishida rahbarning roli 30

TAHLIL VA TADQIQOT

Akmal PARDAYEV. Xorijiy mamlakatlarda raqamli vakillik 33

TAKLIF

Olim UMBETOV. Qo'riqlash munosabatlarini shartnomaviy-huquqiy tartibga solish 36

NUQTAYI NAZAR

Moxigul OCHILOVA. Davlat xizmatchisining liderlik fazilati va psixologik portreti 39

MUNOSABAT

Sarvar XOLIQOV. Harbiy sohadagi hamkorlikning xalqaro-huquqiy va konstitutsiyaviy tamoyillari 43

DOLZARB

Lazizjon BAHROMOV. Turdosh huquqlarning ijtimoiy tarmoqlarda muhofazasi: milliy va xalqaro tajriba 47

QIYOS

Mirkomil MIRMAKSUDOV. "BAYI VAFO" yoxud islom moliyasining o'tmishdagi ko'rinishi va unga o'xshash zamonaviy bitim turi haqida 50

TARIXDAGI TADBIRLAR

Shuhrat HIKMATOV. Qadimgi davrda nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarining paydo bo'lishi xususiyatlari 52

MULK HUQUQI

Akmaljon RAHIMJONOV. Hadya shartnomasi orqali ko'chmas mulkni begonalashtirishning ayrim masalalari 55

TADQIQOT, TAHLIL

Shaxrizoda ABDIYEVA. Meros shartnomasida subyektlarning huquq va majburiyatlari: qiyosiy-huquqiy tahlil 59

SI

Farhodjon ABDIHAKIMOV. Sun'iy intellektidagi "memorization" hodisasi va huquqiy oqibatlar 62

Ikki palatali parlament: siyosiy-huquqiy qarashlar

“Parlament” soʻzi fransuzcha “parler” (soʻzlamq, gapirmoq) soʻzidan kelib chiqqan. Bu organ davlat siyosatiga taʼsir koʻrsatish uchun fikr almashish joyi sifatida shakllangan. Hozir parlament davlatning qonun chiqaruvchi oliy vakillik organi hisoblanadi.

Parlamentlarning tuzilishi (bir, ikki yoki uch palatali) uning ish tartibi, faoliyat samaradorligi va boshqa hokimiyat organlari bilan munosabatlariga taʼsir qiladi. Shuning uchun parlament faoliyatini tashkil qilishda uning tuzilmasini optimallashtirish va palatalar sonini belgilash muhim ahamiyatga ega.

Bugun rivojlangan mamlakatlarda ikki palatali parlamentlar faoliyat yuritadi. Ikki palatali parlamentning jamiyatdagi turli manfaatlar va siyosiy irodalarni ifodalash qobiliyatini birinchi boʻlib fransuz maʼrifatparvari Sharl Lui Monteskyo nazariy jihatdan asoslab bergan. U ikki palatali parlamentni ijtimoiy va qonun chiqaruvchi hokimiyatni “jilovlab turuvchi unumli vosita” sifatida talqin qilgan. Monteskyoning fikricha, qonun chiqaruvchi hokimiyatning yuqori palatasi qaror qabul qilish emas, balki bekor qilish huquqi asosida tuzilishi kerak. U “erkinlikni taʼminlovchi” hokimiyatni quyidagi qoida asosida izohladi: “Bunda qonun chiqaruvchi majlis bir-birini oʻzlariga tegishli boʻlgan bekor qilish huquqi asosida jilovlab turuvchi ikki qismdan iborat boʻlib, ularning har ikkala-si ham oʻz oʻrnida ijroiya hokimiyat bilan bogʻlanadilar, u ham oʻz navbatida qonun chiqaruvchi hokimiyat bilan bogʻliq boʻladi”¹.

XIX asrdagi fransuz liberal mutafakkiri Benjamen Konstan yuqori palatani quyi palatadan ajratib, uni hokimiyatning alohida tarmogʻi sifatida koʻrsatdi. U mulkdor zodagonlar manfaatlarini

ni ifoda etuvchi bunday palata vakillikning oʻziga xos turi boʻlib, hokimiyatlar boʻlinishi tizimida oʻz oʻrniga ega deb hisoblardi.

Konstan gʻoyasini boshqa fransuz olimi Ademar Esmen davom ettirdi. Uning fikricha, hokimiyat tarmoqlarining muvozanatini taʼminlashda ikki palatali parlament muhim vosita boʻlib, hukumatga bir palata boshqasi bilan ziddiyatga kelgan-da tayanish imkonini beradi.

AQSh davlatchilik asoschilaridan Tomas Jefferson ikki palatali parlament haqida shunday yozgan edi: “Senat oʻz tuzilishiga binoan deputatlar palatasi bilan bir xildir. Modomiki, bir xil saylovchilar bir vaqtning oʻzida bir xil nomzodlar ichidan saylar ekanlar, albatta, bu tanlashlar bir xil sifatlarga ega boʻlgan kishilar ustiga tushadi. Turli qonun chiqarish palatalarini tuzishdan maqsad – turlicha manfaatlar yoki turlicha prinsiplar taʼsirini taʼminlashdir. Shunday deyishadiki, Buyuk Britaniyada Konstitutsiya jamoalar palatasining odilligiga va lordlar palatasining donishmandligiga tayanadilar. Agar odillikni pulga sotib olish mumkin boʻlsa, donishmandlikni esa meros qilib qoldirish imkoni boʻlsa, bu albatta mantiqan toʻgʻri boʻlardi. Bir qancha Amerika shtatlarida delegatlar va senatorlarni shunday tarzda saylaydilar, birinchisi insonlarni, ikkinchisi esa mulkni ifodalaydi va himoya qiladi. Lekin bizda boylik ham, donishmandlik ham har ikkala palataga oʻtish uchun teng imkoniyatlarga egadir. Shuning

¹ Montesкье Ш.Л. Избранные произведения. – М.: 1955.

uchun ham biz legislaturamizning ikki palataga bo'linishidan, shuningdek, ularning prinsiplarni yetarlicha uyg'unlashtirishga qodirligidan shunday foyda olamizki, ulardan bittasi o'zaro kelishmovchiliklardan kelib chiqqan yovuzlikni bartaraf etib, uning o'rnini to'ldirishi mumkin"².

Jeyms Medison bikameralizmning zarurligini Senatning yuqori palata a'zolarining donoligi va tajribasi tufayli xalq palatasining bir lahzalik va jilovsiz talablarini "sovutish" qobiliyatida ko'rdi. Uning fikricha, bunday vazminlik qonunchilikning barqarorligini va siyosatda davomiylikni ta'minlash uchun zarur.

AQSh davlatchilik asoschilarining fikriga ko'ra, ikki palatali parlament hokimiyat tepasida turganlarning saylovchilar oldidagi majburiyatlarini unutishining oldini oladi. Bu noto'g'ri va samarasiz qarorlar qabul qilinishining oldini oladi, shuningdek, qonunchilik bilan yetarlicha tanish bo'lmagan va tez-tez almashib turuvchi vakillarining xatolarini tuzatadi va parlament faoliyatida izchillikni saqlaydi.

Ingliz olimi Ieremiya Bentamning fikricha, ikki palatali parlament qoida, nizom va tartiblarning to'liq saqlanishiga kafolat beradi. U turli manfaatlar, qarashlar va odatlarni hisobga olib, masalani har tomonlama ko'rib chiqishni ta'minlaydi.

Ikki palatali parlament tizimining afzalliklari haqida Hegel shunday fikr bildirgan: "Ba'zan bir palatali tizim foydasiga qaror qabul qiladilar, go'yoki bir palata jamiyat tuzilishining demokratik elementini o'zida ifodalashda vazifasini yaxshi bajaradi. Agar katta majlisdagi muhokamalar qanday kechishi, undagi o'z chiqishlari bilan hurmatga erishishga urinishlar, tez va o'ylanmagan qarorlar qabul qilish kabilarni eslasa, bir palatali tizimning kamchiliklari osongina ko'zga tashlanadi".

Ba'zi olimlar va siyosatchilar ikkinchi palatalarning mavjudligini kam samarali va serxarajat tuzilma deb hisoblab, uni keraksiz deb biladi. Biroq ko'plab rivojlangan demokratik davlatlarda ikki palatali parlamentlar faoliyat yuritadi va ikkinchi palatalar demokratiyaning rivojlanishiga hissa qo'shmoqda.

Monteskyoning fikricha, qonun chiqaruvchi hokimiyatning yuqori palatasi qaror qabul qilish emas, balki bekor qilish huquqi asosida tuzilishi kerak.

U "erkinlikni ta'minlovchi" hokimiyatni quyidagi qoida asosida izohladi: "Bunda qonun chiqaruvchi majlis bir-birini o'zlariga tegishli bo'lgan bekor qilish huquqi asosida jilovlab turuvchi ikki qismdan iborat bo'lib, ularning har ikkalasi ham o'z o'rnida ijroiya hokimiyat bilan bog'lanadilar, u ham o'z navbatida qonun chiqaruvchi hokimiyat bilan bog'liq bo'ladi"

O'zbekistonda ikki palatali parlament faoliyati bo'yicha tadqiqot olib borgan O.Muhammadjonov fikricha, ikki palatali parlament qonunchilik sifatini oshirishga qodir. Bu tuzilish qonun chiqarish jarayonini murakkablashtirishi mumkin, chunki bir palataning qonun loyihasiga munosabati jarayonni cho'zishi mumkin. Ammo ikki palataning mavjudligi qonunlar sifatini yaxshilaydi va turli ijtimoiy guruhlar hamda hududiy jamoalar manfaatlarini to'liqroq aks ettiradi.

O'zbekistonda 2005-yildan beri ikki palatali parlament faoliyat yuritadi. Bu islohot qonun chiqaruvchi organni shaklan o'zgartirish bilan cheklanmay, uning faoliyatini yaxshilash, hududlar manfaatlarini ifoda etish va jahon tajribasiga asoslanib tashkil qilishga yo'naltirilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ikki palatali parlament tizimi demokratik huquqiy davlat barpo etish va inson huquqlarini himoya qilishning eng yaxshi mexanizmi ekanligini ko'rsatadi.

Farrux MIRZABEKOV,

Oliy Majlis Senati devoni
Yuridik boshqarmasi bosh maslahatchisi

² Джефферсон Т. Автобиография. Заметки о штате Виргиния. – Ленинград: Наука, 1990.

Istanbul universitetining Adabiyot fakulteti joylashgan binoda me'moriy bir xona bor. Unda dunyoning turli burchaklaridan keltirilgan, aksariyati turkiy xalqlar tarixi va madaniyatiga oid nodir qo'lyozma va kitoblar to'plangan. Har kuni ziyoratchilar bilan gavjum bo'ladigan ushbu maskan "Zaki Validiy To'g'on" xonasi deb ataladi. Sababi, unga mashhur sharqshunos olim, Yevropa va boshqa bir qator mamlakatlar akademiyalarining faxriy a'zosi, Istanbul universiteti professori Ahmad Zaki Validiy To'g'on asos solgan bo'lib, umrining oxirgi yillarini shu yerda o'tkazgan. Olim hayoti bilan bog'liq bo'lgan manbalar hamda uning turkiy xalqlar tarixiga oid katta ilmiy merosi bugungi kunda ham sharqshunoslarning diqqat markazida bo'lib qolmoqda.

Mashhur sharqshunos olim **Zaki Validiy To'g'on yo'li**

Ahmad Zaki Validiy To'g'on 1890-yilda uzoq boshqird qishlog'ida dunyoga keldi. Janubiy O'rol yonbag'irlarida joylashgan bu qishloqning bir tomoni tog' va o'rmonga, bir tomoni esa cho'l hududiga tutashgan edi. Ahmad Zakining bobosi (ona tomondan) Satliq Qafi Xiva va Buxoroda tahsil olib qaytgan yetuk ziyolilardan edi. U arab va fors tillarini mukammal o'rgangan, sharq mumtoz adabiyoti namunalari bilan yaqindan tanish bo'lib, o'zidagi bilimlarni qiziga berishga muvaffaq bo'lgan. Yillar o'tgach, To'g'on o'zining "Xotiralar"ida shunday yozadi: "Bolalik yillarimda onam menga o'z xotirasida saqlab qolgan ko'plab she'riy parchalarni yod oldirardi. Bu parchalar kimning qalamiga mansub ekanini onamning o'zi ham yaxshi bilmasdi. Ammo, yillar o'tgach, men Navoiy ijodini o'rganar ekanman, bu parchalarning aksari she'riyat mulkining sultoni Mir Alisher Navoiy qalamiga mansub ekanini bildim. Onam xotirasida saqlanib qolgan boshqa she'riy parchalar Attor, Rumi, Yassaviy, So'fi Olloyor kabi tabarruk zotlar ijodidan namunalari edi...

1957-yilda men Pokistonda yashab, Lahor universitetida fors tilidan dars berayotgan do'stim professor Muhammad Bakir xonadonida mehmon bo'ldim. Uning otasi buxorolik o'zbeklardan bo'lib,

XIX asrda Haydarobodda harbiy qo'mondonlardan biri bo'lgan ekan. Suhbatimiz chog'ida yoshlikda bir xil kitob va she'rlar o'qiganimiz ma'lum bo'ldi. Ularning turkiy xalqlar o'rtasida bu qadar keng tarqalgani ikkimizni ham hayron qoldirdi"¹.

Bu mavzuni davom ettirar ekanmiz, Ahmad Zakining oilasiga, ayniqsa, otasiga yaqin bo'lgan odamlar Buxoro va Xiva madaniyatining kuchli ta'sirida bo'lganini qayd etib o'tish lozim. Davrining yetuk ziyolisi, naqshbandiya tariqati targ'ibotchilaridan biri bo'lgan Gabdulla mulla ham Buxoroda tahsil olib qaytgan, islom dinini puxta o'rganib, arab va fors tillarida dilbar she'rlar yozgan. Bunday misollarni keltirishimizdan maqsad hozirgi O'zbekiston hududida yashayotgan xalqlar yaratgan madaniyat va tariqatlar boshqa turkiy xalqlar orasida keng yoyilib, ularning ma'naviy-ma'rifiy jihatdan shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatganini yana bir bor ta'kidlash xolos.

Ahmad Zaki yetti yoshida ota-onasi yordamida arab, fors va rus tillarini o'rganadi. Sharq mumtoz adabiyoti namunalari bilan tanishadi. Uning turkiy xalqlar o'tmishi, madaniyati tarixi, ularning jahon madaniyati rivojida tutgan o'rni borasidagi mashhur tadqiqotlari ayni mana shu hayotbaxsh zamin-da unib-o'sgan bo'lsa ajab emas.

¹ Тоған Заки Валиди. Воспоминания. Уфа: Китап, 1994. Стр. 34-35 (таржима бизники).

1909-yilda To'g'on hayotida katta voqea ro'y beradi – u Qosimiya madrasasida turk tarixi va arab adabiyoti fanlaridan dars bera boshlaydi. Xuddi shu vaqtda u o'zining “Turklar tarixi” nomli fundamental tadqiqoti ustida ish boshlaydi. Yosh olimning “Turkiy qabilalarda xalq qo'shiqlari (to'rtliklar)” nomli ilk ilmiy tadqiqoti ham shu davrda yozilib, “Sho'ro” jurnalida bosilib chiqadi. “Turklar tarixi” kitobini yozar ekanman, – deb yozadi To'g'on, – men Plexanov va Bartoldning iqtisodiy dunyoqarash nazariyasiga asoslandim. Keyinchalik, Turkiston tarixi haqidagi (*“Bugungi Turk eli (Turkiston) va yaqin tarixi” kitobi nazarda tutilgan – R.Sh.*), “Turklar umumiy tarixiga kirish” (Istanbul, 1946), “Tarix metodologiyasi” (Istanbul, 1950) kitoblari ustida ish olib borar ekanman, xuddi mana shu tarixiy jarayonda iqtisodiy rivojlanishning birlamchi o'rni haqidagi nuqtayi nazarni saqlab qoldim”².

1915-yilda Zaki Validiy Ufadagi Usmoniya madrasasida turk xalqlari tarixidan dars bera boshlaydi va ma'lum darajada siyosiy hayotga ham ilk qadamlarini qo'yadi. Bu vaqtlarda Chor Majlisi (Duma) tarkibida musulmon xalqlari nomidan qozon tatarlaridan beshta, ozarbayjonlardan esa atigi bitta vakil faoliyat olib borardi. Ularning xalq bilan aloqasi ancha uzilib qolgan bo'lib, oddiy mehnat kishilarining o'y va istaklari oliy boshqaruv organiga yetib bormaydigan sharoit vujudga kelgan edi. Ana shu kamchilikni bartaraf etish maqsadida musulmon jamoalari zahirida shakllana boshlagan siyosiy kuchlar bir guruh vakillarini Peterburgga yuborishga qaror qiladi. Majlisdagi Musulmon fraksiyasi a'zolariga yordam berish uchun Ufadan Zaki Validiy saylanib, 1915-yilda Peterburgga keladi va shu tariqa uning siyosiy faoliyati boshlanadi.

1915–1916-yillar Zaki Validiy uchun tayyorgarlik davri bo'ladi. U Peterburgda faoliyat olib borayotgan bir qator musulmon hamkasblari bilan tanishadi, Rusiyaning ichki va tashqi siyosati, iqtisodi va madaniyati tarixini atroflicha o'rganadi. Birozdan keyin yuz bergan Fevral inqilobini esa u inqiroz sari borayotgan jamiyatning mantiqiy intihosi sifatida qabul qilib, unga katta umidlarni bog'laydi. Sharq xalqlari hayotida tub o'zgarishlar bo'lishiga ich-ichidan ishonadi.

Tariximizning eng ziddiyatli va tub burilish davri bo'lgan XX asrning ilk choragida yuz bergan voqealar haqida olim o'zining bir qator asarlarida qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirgan (masalan, “Qum ostida qolgan o'n yetti shahar va Sadri Maqsudibey”, Istanbul, 1934; “Bugungi Turk eli (Turkiston) va yaqin tarixi”, Istanbul, 1942–1947; “Turk eli xaritasi va unga oid izohlar”, Istanbul, 1943; “Xotiralar”, Istanbul, 1969). Ularda Sharq xalqlari taqdiri bilan bog'liq masalalar ham keng o'rin egallaydi. Masalan, Peterburgda faoliyat olib borgan sharq xalqlari manfaatlarini himoya qilishi kerak bo'lgan ziyolilar o'rtasida keskin kelishmovchiliklar mavjud bo'lib, ular ikki asosiy guruhga bo'lingan edi. Birinchi guruh inqilob natijasida barpo bo'ladigan yangi Rusiyaning yaxlit va ajralmasligi tarafdori bo'lsa, ikkinchi guruh sharq o'lkalarining muxtor boshqaruvi va ularning mustaqillik yo'lidan borishini yoqlab chiqadi. Zaki Validiy ikkinchi guruhga mansub edi.

1917-yilning may oyida Moskvada bo'lib o'tgan Rusiya musulmonlari kengashida (Sharq xalqlari kengashi) uzoq davom etgan munozaralardan so'ng sharq xalqlari uchun muxtor boshqaruv g'oyasi yoqlab chiqiladi. Xalqlarning mustaqil rivojlanish yo'lidan borishi g'oyasiga qarshi chiqqanlar orasida Sadri Maqsudi boshchiligidagi bir guruh qozonlik ziyolilar ham bor edi. Kengashda qabul qilingan qarorga binoan shu yilning may oyida Orenburg shahrida Zaki Validiyning faol ishtirokida Boshqird markaziy sho'rosi tuziladi. 1918-yil 29-noyabrda esa bu tashkilot zahirida Boshqird muxtoriyati barpo bo'lib, uning hukumati tarkibiga Zaki Validiy To'g'on harbiy va ichki ishlar vaziri sifatida kiritiladi.

Moskvada bo'lib o'tgan Sharq xalqlari kengashida qabul qilingan qarorlar milliy siyosiy kuchlar faoliyatiga ta'sirini ko'rsatadi. Boshqirdlar bilan oldinma-keyin Qirim, Ozarbayjon, Qo'qon va Alash O'rda muxtoriyatlari e'lon qilinadi. Xalq harakatlariga rahbarlik qilgan ziyolilar misli ko'ril-magan kurashlar ichida faoliyat olib borib, tarixda o'chmas iz qoldirishga muvaffaq bo'lishadi. 1917-yil oxiri – 1918-yil boshlarida Boshqird muxtoriyatining III qurultoyi bo'lib o'tadi. Uning o'tkazilishida Zaki Validiy ham faol ishtirok etadi. Ammo

² Ўша китоб. 97-б.

Tariximizning eng ziddiyatli va tub burilish davri bo'lgan XX asrning ilk choragida yuz bergan voqealar haqida olim o'zining bir qator asarlarida qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirgan (masalan, "Qum ostida qolgan o'n yetti shahar va Sadri Maqsudibey", Istanbul, 1934; "Bugungi Turk eli (Turkiston) va yaqin tarixi", Istanbul, 1942-1947; "Turk eli xaritasi va unga oid izohlar", Istanbul, 1943; "Xotiralar", Istanbul, 1969). Ularda Sharq xalqlari taqdiri bilan bog'liq masalalar ham keng o'rin egallaydi. Masalan, Peterburgda faoliyat olib borgan sharq xalqlari manfaatlarini himoya qilishi kerak bo'lgan ziyolilar o'rtasida keskin kelishmovchiliklar mavjud bo'lib, ular ikki asosiy guruhga bo'lingan edi.

18-yanvarda Orenburg shahri bolsheviklar tomonidan ishg'ol etilgach, To'g'on qamoqqa olinadi (3-fevral) va 4-aprelda u yerdan qochishga muvaffaq bo'ladi.

1918-yil 27-may kuni sodir bo'lgan Chex legionlarining isyoni Boshqird o'lkasidagi sho'rolar hukmronligiga barham beradi. Bundan foydalanib, chexlar yordamida Zaki Validiy boshqirdlardan iborat bo'lgan harbiy qo'shin tashkil etishga kirishadi. 7-iyundan e'tiboran Boshqird milliy hukumati faoliyatini davom ettiradi. 1918-yilning oxirlariga kelib sharoit murakkablashadi – bir tomondan oq gvardiya generallari, ikkinchi tomondan bolshevik qo'shinlari Boshqird hukumati askarlariga qarshi hujumga o'tishadi. Ikki o't orasida qolgan yosh hukumat bir qarorga kelishga majbur bo'ladi va 1919-yilning 18-fevralida sho'rolar hukumati bilan sulh tuziladi.

Shu tariqa Zaki Validiyning o'n besh oy davom etgan sho'rolar hukumati bilan hamkorligi boshlanadi. Faoliyati davomida u bir qator sho'ro mafkurasi namoyandalari bilan yonma-yon turib ishlaydi. To'g'on "Xotiralar"ining "Sho'rolar bilan o'n

besh oylik hamkorlik" nomli bobida o'zining milliy mustaqillik g'oyasi bolsheviklar siyosatiga zid ekanini tushunib yetishi jarayonini qadam-baqadam ochib boradi. Oxir-oqibatda To'g'on boshqird xalqining taqdiri va kelajagi Turkiston xalqlari olib borayotgan milliy ozodlik harakati bilan chambarchas bog'liq degan fikrga keladi. Natijada 1920-yilning 29-iyunida u yashirincha Turkiston sari yo'lga chiqadi.

1920–1922-yillarda Zaki Validiy To'g'on Turkiston o'lkasidagi siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etadi, "Turkiston milliy birligi" tashkiloti rahbarlari, jadidchilik harakati rahnamolari qatoridan o'rin egallaydi. Ozodlik harakatida faol ishtirok etadi. Uni goh Bokudagi Sharq xalqlari kengashida, goh Turkmanistonda, birozdan so'ng Xiva, Toshkent, Buxoro yoki Samarqandda uchratish mumkin edi. Zaki Validiy jadid ziyolilari davralarini sevardi. Turkistonga murossasiz kurash olib borish uchun kelgan Anvar posho bilan bo'lib o'tgan bir nechta suhbat bu ikki inson o'rtasidagi do'stlikka zamin yaratadi.

Ayni shu davrda Turkiston hududlariga ko'p sonli bolsheviklar qo'shini hujum boshlaydi. Natijada To'g'on bu yerni ham tark etishga majbur bo'ladi.

1923-yilning 12-martida u Mashhadga kelib, u yerda besh hafta qoladi. Ravza kutubxonasida olib borgan tadqiqotlari natijasida sharqshunoslik ilmi uchun yangilik – Ibn Fadlan sayohatnomalari qo'lyozmasi va bir qator boshqa nodir kitoblarni topishga muvaffaq bo'ladi. Yillar o'tgach, bu asarlar zamirida yirik fundamental tadqiqotlar dunyoga keladi.

Shu yilning 20-aprelida Mashhaddan Afg'oniston sari yo'lga chiqqan Zaki Validiy 26-aprelda Hirotga yetib keladi va bu yerda ham besh oyga yaqin qoladi. Olim bu yerda bo'sh vaqtini Hirot va Qobul kutubxonalarida o'tkazadi. Uning dunyo bo'ylab sayohati endi boshlanayotgan edi. Undan so'ng Hindiston, Arabiston, Turkiya, keyinroq Yevropa, jumladan, Fransiya, Germaniya, Angliya mamlakatlarida faoliyatini davom ettiradi.

1925-yilning mart oyi boshlarida turkiyalik olim va jamoat arbobi doktor Rizo Nur Berlinga kelib, Zaki Validiy bilan uchrashadi. Suhbat chog'ida ilmiy faoliyatini davom ettirish uchun uni Tur-

kiyaga taklif etadi. Bunga qadar Zaki Validiy Angliya hukumatidan ham xuddi shunday taklifni olgan edi. Olim ko'p o'ylab o'tirmay, 1925-yilning 12-mayida Berlindan yo'lga chiqib, 20-may kuni Istanbulga yetib keladi. Shu vaqtdan e'tiboran umrining so'ngigacha Turkiya uning ikkinchi vatani bo'lib qoladi.

Uzoq hayot yo'li davomida, avval aytib o'tganimizdek, To'g'on XX asrda yashab ijod qilgan ko'plab mashhur kishilar bilan muloqotda bo'ladi. "Xotiralar"ida u siyosatchilar va o'z davrida ko'zga ko'ringan sharqshunos olimlar bilan uchrashuvlari haqida qiziqarli ma'lumotlar beradi. Ammo biz uchun olimning bir necha bor Turkistonga kelgani alohida ahamiyat kasb etadi. Bu yerda u xalqimiz uchun aziz siymolar bilan uchrashib, ular bilan yaqin muloqotda bo'ladi. To'g'on asarlarida XX asr boshlaridagi Turkiston hududlarida hukm surgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy muhit haqida atroflicha ma'lumotlar beradi.

1913-yilda To'g'on ilmiy tadqiqot olib borish uchun Toshkentga keladi. Bu safar olim uchun juda samarali o'tganini uning o'zi ham shunday e'tirof etadi: "Avvaldan omad menga kulib boqdi. Toshkentga kelgan birinchi kunlarimdayoq Shayx Hovand Tohur (1380-yilda vafot etgan) hayoti va sayohatlariga oid qo'lyozmalarni topishga muvaffaq bo'ldim. Ular ilmda hanuzgacha noma'lum qo'lyozmalar edi. Qizig'i shundaki, Shayx Hovand Tohur otamning ma'naviy ustozlaridan – toshkentlik Shayx Ubaydulla Ahrorning uzoq ajdodi edi. Qo'lyozmalardan olimning turk va fors tillarida yozilgan go'zal she'rlari ham o'rin olgan edi. Bu yerda men XVI asrdan keyingi davrga mansub bo'lgan tarix va adabiyotga oid ko'plab noma'lum qo'lyozmalarni ham izlab topishga muvaffaq bo'ldim".

Zaki Validiy Toshkent, Farg'ona, Samarqand va Buxoroga qilgan safarlari davomida ko'plab yangi do'stlar orttiradi. Gimnaziya talabasi, qozoq farzandi Nazir To'raqulov, Peterburg universitetining huquqshunoslik fakulteti talabasi Mustaf Cho'qayev, yillar o'tgach o'zbek xalqining mashhur shoiri bo'lib yetishgan andijonlik Abdulhamid Sulaymon (Cho'lpon), toshkentlik tarixchi Po'lat Soli, Munavvar qori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo'ja, samarqandlik Mahmudxo'ja Behbudiy, bu-

xorolik Ahmadjon Maxdum, boshlang'ich maktab o'qituvchisi Jonuzoq Ibrohim va boshqalar shular jumlasidandir. To'g'on ayniqsa Nazir To'raqulov va Abdulhamid Sulaymon bilan yaqindan do'stlashadi. Cho'lponning Andijondagi uyida mehmon bo'lganini eslab shunday yozadi: "Vahti bilan buyuk o'zbek shoiri bo'lib yetishgan Cho'lpon unda o'n besh yoshli yigitcha edi. Menga yozgan maktubida u kitobimni katta qiziqish bilan o'qib chiqqanini, ko'p o'rinlarda men bilan hamfikir ekanini aytib, Andijonga taklif etadi. Ammo Nazir (*To'raqulov – R.Sh.*) bilan ikkimiz uyiga kelganimizda uning otasi Sulaymon og'a bizni biroz sovuq qarshiladi: "Yosh bola ham otasidan so'roqsiz uyga mehmon taklif etishi mumkinmi?" – dedi u. Abdulhamid yosh bo'lishiga qaramay, biz uni katta odam sifatida qabul qildik. Sulaymon og'aning gapidan keyin musofirxonaga ketishga qaror qilgan edik, ammo uning "Birga ovqatlanamiz, keyin ketasizlar" degan so'zlari bizni to'xtatdi.

Dasturxon ustida men Sulaymon og'a bilan, Abdulhamid esa do'sti bilan gaplashib o'tirdik. Bu ham otasiga yoqmadi, kattaga hurmatsizlikday tuyuldi va o'g'liga jahl qildi. Shunda men forschada Mavlaviyning ushbu satrlarini eslatdim: "Bulbul xushovoz qush, ammo u xonish qilganida boshqa qushlar sayrashdan to'xtamaydilar". Zukko Sulaymon og'a aytilgan so'zlarning mag'zini darrov chaqdi va bir lahzada jahldan tushdi. "Endi sizlar o'g'limning emas, mening mehmonimsizlar" deb bizni uyida olib qoldi. Shunda bo'ljak buyuk turk shoiri Cho'lponning otasi fors madaniyatiga cheksiz hurmat bilan qarashining guvohi bo'lganman"³.

Bu kabi xotiralar Zaki Validiy asarlarida ko'p uchraydi. Ba'zi o'rinlarda o'quvchi uchun yangilik bo'lgan ma'lumotlar ham borki, ular ilm nuqtayi nazaridan qiziqish uyg'otadi. Shunday misollardan bir nechtasini keltirib o'tishni istardik: "Buxoro amirining sobiq bosh vaziri Avliyoqul qushbegi u vaqtlarda hozirgi Tojikiston poytaxti Dushanbening general-gubernatori edi. U "Husayniy" tahallusi bilan durustgina she'rlar ham yozar ekan. Mening bundan xabarim bo'lmagani sababli uchrashuvimiz chog'ida u menga o'zining forschada yozilgan she'rlaridan namunalar o'qib bergan

³ Тоған Заки Валиди. Воспоминания. Уфа: Китап, 1994. Стр. 138-139.

⁴ Уша китоб. 149-б.

vaqtida taajjubimni yashirolmadim”⁴.

“Karachida men yana bir necha kun qolib, Buxoro va Xurosonning XVII asrdan keyingi davri tarixiga oid bir necha muhim qo‘lyozma topishga muvaffiq bo‘ldim. Ulardan biri XVII asrda yashab ijod qilgan o‘zbek shoiri Imomiy qalamiga mansub bo‘lib, Buxoroda yozilgan edi. “Xonlar tarixi” yoki “Xonnoma” deb ataluvchi bu asarda qadimgi turkiy dostonlar jamlangan edi...”⁵.

“Farg‘ona general-gubernatorining yordamchisi Nalivkin fors va turk tillarini yaxshi bilgani uchun tarixni asl manbalardan o‘rganar edi. Uning Qo‘qon xonligi tarixiga oid tadqiqotlari Fransiya chop qilingan edi. 1908-yilda Nalivkinning “Mahalliy aholi (*turkistonliklar – R.Sh.*) tarixi va bugungi ahvoli haqida” nomli ajoyib etyudi ham e‘lon qilinish, ilm ahli o‘rtasida ancha shov-shuvlarga sabab bo‘lgandi”⁶.

“1913-yilda men Qo‘qonda “G‘ayrat” kutubxonasini tashkil etishda qatnashdim”⁷.

“Do‘stim Ashurali Zohiriy bilan Qo‘qonda “Yurt” nomli jurnal chiqara boshladik. Unda mening “Turk millatining ma‘naviy madaniyati” nomli maqolam ham e‘lon qilindi”⁸.

“Rusiya hukumatining bo‘ljak bosh vaziri A. Kerenskiy Toshkentda maorif noziri oilasida tug‘ilib voyaga yetgandi. 1958-yilning fevral oyida men Aleksandr Fyodorovich bilan Stamford (AQSh)dagi Guver kutubxonasida uchrashganim-

Ahmad Zaki yetti yoshida ota-onasi yordamida arab, fors va rus tillarini o‘rganadi. Sharq mumtoz adabiyoti namunalari bilan tanishadi. Uning turkiy xalqlar o‘tmishi, madaniyati tarixi, ularning jahon madaniyati rivojida tutgan o‘rni borasidagi mashhur tadqiqotlari ayni mana shu hayotbaxsh zaminda unib-o‘sgan bo‘lsa ajab emas.

da u “Xotiralar”i ustida ishlayotgan edi. Bir kuni biz kutubxona oshxonasida tushlik qilar ekanmiz, u Toshkentdagi muazzinning ovozi aynan o‘xshatib ko‘rsatib berib meni lol qoldirgani hamon esimda”⁹.

Zaki Validiy To‘g‘onning birinchi “Turk va tatar tarixi” nomli kitobi 1912-yilda e‘lon qilingan bo‘lsa-da, sharqshunoslik olamidagi katta shuhratni unga 1939-yilda chop etilgan Ibn Fadlan haqidagi asari olib kelgan. Undan keyin Beruniy, Alisher Navoiy, Amir Temur, Shayboniyxon, Mahmud Koshg‘ariy, Chingizxon, Zamaxshariy, Vamberi, Shahobiddin Marjoniy kabi allomalar hayoti va ilmiy-madaniy merosi, Markaziy Osiyo tarixi, umumturk tarixi va uslubiyatiga oid asarlari birin-ketin dunyo yuzini ko‘rdi.

Yuqorida biz olimning ayrim qirralari haqida so‘z yuritdik xolos. Vaholanki, “Turk va tatar tarixi”, “Bugungi Turk eli (Turkiston) va yaqin tarixi”, “Turk tarixiga kirish”, “Tarixda usul”, “Turk – Turkiston”, “Temur va o‘g‘illari”, “Qoraxoniylar”, “Alisher Navoiy hayoti va asarlari” kabi uch yuzdan ziyod fundamental tadqiqotlar muallifi sifatida u jahonning eng sermahsul olimlari safidan o‘rin olgan.

Ahmad Zaki Validiy To‘g‘on hayoti va ilmiy merosiga qiziqish mamlakatimizda yaqinda boshlangan va bugungi kunda tobora o‘sib bormoqda. Uning shaxsiyati va asarlari zahirida bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Turk, boshqird va o‘zbek olimlarining sa‘y-harakatlari natijasida bugungi kunda olim asarlarining bibliografiyasi mingdan ortdi. Uning e‘lon qilingan boshqa asarlarini izlab topish jarayoni hanuzgacha davom etmoqda. Yana uzoq yillar ziddiyatli davrning ziddiyatli farzandi shaxsiyati va ilmiy merosi sharqshunoslik ilmining diqqat-markazida bo‘lib qolishiga ishonamiz.

Rustam SHARIPOV,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Jadidshunoslik ilmiy tadqiqot markazi direktori,
filologiya fanlari doktori (DSc)

⁵ Ўша китоб. 153-б.

⁶ Ўша китоб. 158-б.

⁷ Ўша китоб. 159-б.

⁸ Ўша бетда.

⁹ Ўша китоб. 164-б.

Majburiyatlarning bajarilishini

zamonaviy usullar orqali ta'minlash

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi fuqarolik huquqining barcha sohalariga, jumladan, majburiyatlar huquqiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot-kommunikatsiya vositalari, elektron tijorat, smart-kontraktlar va blokcheyn texnologiyalarining amaliyotga joriy etilishi majburiyatlarni vujudga keltirish, ularni lozim darajada bajarish hamda ta'minlash usullarini qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Majburiyat huquqi instituti raqamli voqelikda o'z dolzarbligini saqlab qolib, yangi imkoniyat va shakllarda rivojlanmoqda. Shu bois huquqiy munosabatlarni tartibga solishning yangi yo'nalishlari, huquqiy ta'riflarni yangidan ishlab chiqish va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish ta'lab etilmoqda.

Shartnomaviy majburiyatlarning bajarilishini zamonaviy ta'minlash deganda, shartnoma tomonlari o'rtasidagi majburiyatlarning o'z vaqtida, to'liq va to'g'ri bajarilishini kafolatlaydigan, axborot texnologiyalari, moliyaviy instrumentlar va xalqaro amaliyot unsurlariga asoslangan samarali huquqiy mexanizmlar tizimi tushuniladi.

Zamonaviy ta'minlash usullariga "Astrent", "Eskrou", "Warranty", "Indemnity", "Estoppel", "Performance Bond", shuningdek, blokcheyn va smart-kontraktlar, tokenlashtirish va boshqa innovatsion yondashuvlar kiritiladi.

Biz ularning ayrimlari xususida to'xtalib o'tamiz.

"Astrent" – qarzdor shartnomaviy majburi-

yatini bajarmagan taqdirda bajarilmagan har bir kuni uchun sud tomonidan belgilanadigan jarima. Shuning uchun odatda astrent sud neustoykasi deb ham yuritiladi.

"Astrent" protsessual institut sifatida jahon miqyosida, ayniqsa Yevropada keng tarqalmoqda. Qarzdorning irodasiga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan mazkur sud jarimasi Fransiya, Italiya, Benilyuks davlatlari (Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg), Gretsiya (GPK 946-modda), Portugaliya (FK 829-A modda), shuningdek Germaniya, Shvetsiya, Isroil va qator boshqa mamlakatlar qonunchiligida mustahkamlab qo'yilgan¹.

Fransuz qonunchiligiga ko'ra, astrentni qo'llash ikkita bosqichda amalga oshiriladi: birinchidan, dastlab sud sud qarorini bajarmaganlik uchun tahdid sifatida jarima belgilaydi (vaqtinchalik astrent), ikkinchidan, agar qarzdor ijroni kechiktirsa yoki o'z majburiyatini bajarishdan bosh tortsa (yakuniy astrent) sud undirilishi lozim bo'lgan summani belgilaydi².

Astrent Rossiya qonunchiligida 2015-yil

¹ Ерпылева Н.Ю., Клевченкова М.Н. Унификация норм о международной судебной юрисдикции в международном процессуальном праве //Международное право и международные организации. 2013. N 3. –С. 343-378.

² Christian Di Mauro, Christelle Coslin. Новые итальянские правила, регулирующие финансовые санкции, налагаемые в целях принудительного исполнения судебных решений: Сходства и различия с правовым режимом во Франции. Парижский международный судебный бюллетень. –С.22,24. <https://web.archive.org/web/20160119191136/http://www.sma-nn.ru/redactor/files/6621637f035b973bc4b08cd3c4bde1d6.pdf>.

1-iyundan, Fuqarolik kodeksiga 308.3-modda kiritilishi bilan paydo bo'ldi. Ushbu moddaning 1-qismiga ko'ra qarzidor majburiyatni bajarish haqidagi kreditorning talabini qanoatlantirish to'g'risidagi sud qarorini bajarmaganda, sud kreditor foydasiga pul to'lovini belgilash huquqiga ega.

"Astrent"ni shartnomaviy majburiyatlar bajarilishiga tatbiq etish taraflarni majburiyatini o'z vaqtida bajarishga rag'batlantiradi; majburiyat bajarilishi kechiktirilganida moliyaviy bosim yuzaga keladi. U sud qarori ijrosini ta'minlashda samarali mexanizm hisoblanadi.

"Eskrou"– shartli depozit. Eskrou shartnomasi uch tomonlama bitim bo'lib, unga ko'ra eskrou agenti sifatida har qanday shaxsga pul, hujjatlar, qimmatli qog'ozlar va boshqa mol-mulk qarzidor (depozitga qo'yuvchi) tomonidan topshiriladi va u: a) qarzdorning kreditor (benefitsiar) oldidagi majburiyatlari bajarilishini ta'minlaydi; b) mol-mulkning kreditorga (benefitsiar) berilishini faqat kreditor eskrou shartnomasi shartlarini bajargan taqdirdagina ta'minlaydi; v) qarzidor oldida ham, kreditor oldida ham majburiyat bo'ladi³.

"Eskrou"ga oid shartnomaviy munosabatlarida ishtirok etuvchi taraflar doirasi xorijiy mamlakatlar qonunchiligida turlicha. Masalan, Rossiya qonunchiligiga binoan eskrou agenti sifatida bank ishtirok etishi mumkin. Bunda bank (eskrou agent) shartli depozit shartnomasiga asosan belgilangan shart boshlanganida depozitga qo'yuvchi tomonidan kelib tushgan pulni benefitsiarga topshirish uchun ularning hisobini yuritish va taqiq qo'yish uchun eskrou-hisob raqamini ochadi.

AQShda eskrou agentlari ro'yxati kengroq, biroq shartli depozit bozori professional ishtirokchilari uchun bir qator cheklovlar belgilangan. Birinchidan, ularning faoliyati litsenziyalanadi va tegishli departamentlar tomonidan nazorat qilib turiladi. Ikkinchidan, AQSh qonunlarida eskrou agentlarining javobgarlik shakllari aniq belgilab qo'yiladi: intizomiy choralar, kompensatsiya to'lash, jarima, kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum etish.

AQShda "eskrou" nafaqat yirik xalqaro bitimlar, shuningdek ko'chmas mulk, hattoki maishiy texnika oldi-sotdisida ham qo'llanadi.

O'zbekistonda "eskrou" qurilish-montaj ishlari bilan bog'liq shartnomaviy majburiyatlarning bajarilishini ta'minlovchi samarali usul hisoblanadi.

"Eskrou"ni shartnomaviy majburiyatlar bajarilishiga tatbiq etish shartnoma taraflari o'rtasidagi ishonchsizlikni bartaraf etadi, kreditor va qarzidor o'rtasidagi balansni ta'minlaydi.

"Indemnity" atamasi lotincha in (yo'q), damn (zarar), ficere (bajarilishi kerak) so'zlarining birlashishidan hosil bo'lib, zarar yetkazmaslik (ogohlantirish) degan ma'noni anglatadi. Indemniti shartnoma huquqi doirasida kafolat (assurance) yoki garov shartnomasi (collateral contract) sifatida qaralib, unga binoan bir shaxs boshqasini kutilgan zarardan xoli qilishi yoki uchinchi shaxslarning harakatlaridan salbiy oqibatlar yuzaga kelishini bartaraf etishini ifodalaydi⁴.

"Indemnity" to'g'risidagi kelishuvga ko'ra, bir tomonga kelishuvni bajarishda boshqa tomonni har qanday javobgarlik (zararni qoplash)dan himoya qilish yuzasidan majburiyat yuklatiladi.

Germaniya, Fransiya va Belgiyada "Indemnity" va kafillik haqidagi shartnomalar bir-biridan mustaqil bo'lgan institutlar sifatida qaraladi. Italiyada (FKning 1939-moddasi) va Niderlandlarda (FKning 7:863-moddasi) "indemnity" haqidagi shartnomaga nisbatan kafillik to'g'risidagi qoidalar qo'llanilishi mumkin. Ulrix Drobnig "indemnity" haqidagi qoidalarni tahlil qilar ekan, oxir-oqibat kafillik va indemniti shartnomalariga majburiyatlarni "shaxsiy ta'minlash" (personal security) ning ikkita yaqin usuli sifatida qaralishi kerak degan xulosaga keladi.

"Indemnity"ni qo'llash ommaviy huquq mamlakatlarida keng tarqalgan. Bir qator mamlakatlarda bu borada o'ziga xos amaliyot shakllangan. Jumladan, Hindistonda qonuniy ravishda (The Indian Contract Act, 1872) indemniting faqat bitta turiga – shartnomaviy indemniti (contract of indemnity) ruxsat berilgan. AQShning 50 ta shtatida

³ Степанян И.Г. Заверения, гарантии, обязательства по возмещению потерь (indemnity), опцион и эскроу по праву России, США, Англии в трансграничных коммерческих договорах. Автореф. дисс. к.ю.н. -М.: 2014. -С.13,17.

⁴ Black's Law Dictionary. 5th ed. L., 1979. -P. 692; Gorman F.J. Indemnity and Contribution under Maritime Law. -P. 1166.

indemnitiga qarshi yoʻnaltirilgan (anti-indemnity statutes) qonunlarning qabul qilinishi bilan qurilish shartnomalarida undan foydalanish sezilarli darajada cheklab qoʻyilgan⁶.

“Indemnity”ni shartnomaviy majburiyatlar bajarilishiga tatbiq etishda zarar yetish xavfini oldindan baholash va uning oqibatlarini oldindan hisobga olish imkoniyati yuzaga keladi; uchinchi shaxslar talabi yoki texnika nuqsonlari oqibatidagi zararlarni qoplash imkoniyati yaratiladi; tarafdagi moliyaviy himoyaga boʻlgan ishonch oshadi.

“Warranty” – kafolat majburiyat bajarilishini taʼminlashda oʻz oʻrniga ega. Biroq bu kafolat (“warranty”) Fuqarolik kodeksining 299-310-moddalarida nazarda tutilgan kafolatdan tubdan farq qiladi.

Inglizcha “warranty” va “guarantee” kabi kafolatni anglatuvchi soʻzlar amaliy jihatdan bir-biriga oʻxshash, rasman huquqiy nuqtayi nazardan tez-tez oʻzaro almashinib turadi. Ikkala soʻz ham “garantir” (himoya qilish, kafolat berish, kafolat-

lash) soʻzidan olingan boʻlib, fransuzcha “garantie” soʻziga borib taqaladi.

“Warranty” aniq koʻrsatilgan shartlar bilan yozma ravishda ifodalangan kafolatga tegishli boʻlgan alohida holat hisoblansa, “guarantee” kengroq tushunchadir. Huquqiy nuqtayi nazardan sotuvchi xaridor oldidagi oʻz majburiyatini ifoda etish uchun ikkalasining qaysi birini tanlamasin, baribir u har qanday holatda ham javobgar boʻladi.

Odatda “guarantee” mahsulotning qiymatini toʻliq qoplash yoki uni almashtirish, shuningdek uning sifati va chidamliligi bilan bogʻliq holatlarining yigʻindisini anglatadi, “warranty” asosan taʼmirlash va texnik xizmat koʻrsatishga doir majburiyatlarni oʻz ichiga oladi.

AQSh va Kanadada maishiy buyumlar uchun maxsus kafolat tizimi mavjud. U sovutgichlar, oshxona pechkalari va idish-tovoq yuvish mashinalari kabi yangi jihozlardan odatiy uy sharoitida foydalanish jarayonida yuzaga kelishi mumkin boʻlgan nosozliklar yoki ishlab chiqaruvchi materiallaridagi nuqsonlarni bartaraf etish toʻgʻrisidagi yozma kafolat hisoblanadi.

Kafolat muddati odatda mahsulot sotib olingan yoki yetkazib berilgan kundan boshlab bir yil davomida amal qiladi. Biroq ayrim ishlab chiqaruvchilar uy jihozlari bir yil ichida qayta sotilganda yangi egalarni kafolatdan mustasno qiladilar (masalan: “Frigidaire”, “LG”, “Samsung”). Boshqalari esa kafolat huquqini yangi xaridorlarga ham oʻtkazish imkonini bergan (masalan: “Amana”, “General Electric”, “Whirlpool”).

Shuningdek, ayrim ishlab chiqaruvchilar muzlatkichlarning yopiq qismlariga uzoq muddatli kafolat taqdim etadi: masalan, “General Electric”, “Samsung”, “Whirlpool” besh yilgacha, “LG” yetti yilgacha, “KitchenAid” esa oʻn yilgacha kafolat beradi.

Yangi avtomobillar odatda bir yildan besh yilgacha kafolatlanadi, ayrim hollarda esa bu muddat oʻn yilgacha uzaytirilishi mumkin. Shu bilan birga, kafolat maʼlum masofa yurish bilan cheklanishi ham kuzatiladi.

“Eskrou” – shartli depozit. Eskrou shartnomasi uch tomonlama bitim boʻlib, unga koʻra eskrou agenti sifatida har qanday shaxsga pul, hujjatlar, qimmatli qogʻozlar va boshqa mol-mulk qarzdor (depozitga qoʻyuvchi) tomonidan topshiriladi va u: a) qarzdorning kreditor (benefitsiar) oldidagi majburiyatlari bajarilishini taʼminlaydi; b) mol-mulkning kreditorga (benefitsiar) berilishini faqat kreditor eskrou shartnomasi shartlarini bajargan taqdirdagina taʼminlaydi; v) qarzdor oldida ham, kreditor oldida ham majburiyat boʻladi.

⁶ Санникова Л.В. Возмещение потерь в странах общего права и в России. //Вестник Пермского университета. Юридические науки. Вып 34. -2016. -С. 441.

AQShda nafaqat avtomobillar, balki uy-joylarni ta'mirlash bilan bog'liq xarajatlardan himoya qilish maqsadida uy kafolati turi ham qo'llaniladi. Masalan, Nyu-Jersi shtati qonunchiligiga ko'ra, yangi uy qurib sotuvchilar xaridorlarga uy kafolati taqdim etishlari shart.

Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish maqsadida AQShda qabul qilingan "limon qonunlari" avtomobillar va boshqa iste'mol tovarlari xaridorlarini kafolatlaydi. Ushbu qonunga muvofiq, mahsulot belgilangan sifat va maqsadga muvofiqlik standartlariga javob bermagan taqdirda, xaridor uning o'rnini qoplash yoki almashtirish huquqiga ega bo'ladi. "Limon" atamasi asosan nuqsonli avtomobillar, yuk mashinalari va motosikllarga nisbatan ishlatiladi.

2012-yil 1-sentabrda Singapur parlamenti ham "limon qonuni"ni qabul qilgan. U barcha tovarlarga (sarflanadigan va tez buziladigan mahsulotlar ham kiritilgan holda) tatbiq etiladi, biroq xizmat ko'rsatish sohasi undan istisno qilingan.

O'zbekistonda ham iste'molchilar huquqlarini kafolatlaydigan qonunchilik tizimi mavjud. Xususan, "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunning 1-moddasida kafolat muddati tushunchasi aniq belgilangan⁷.

Shuningdek, Fuqarolik kodeksining 403-moddasida oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha tovar sifatining kafolati, 648-moddasida esa pudrat shartnomasi yuzasidan ishning sifatiga kafolat berish hamda 682-moddasida qurilish pudrati shartnomasida sifat kafolatlariga oid qoidalar belgilangan.

"Warranty"ni shartnomaviy majburiyatlar bajarilishiga tatbiq etish: majburiyatning lozim darajada bajarilmasligi (sifatsiz tovar yetkazib berilishi)ga nisbatan javobgarlik belgilanadi. Bu nafaqat shartnoma tarafining, shuningdek iste'molchilarning huquqlarini ham kafolatlaydi.

"Estoppel" – ingliz huquqi doktrinasi (aniqrog'i, doktrinalar oilasi) bo'lib, uning mohiyati taraflarning qarama-qarshi xatti-harakatlarini protsessual jihatdan taqiqlashdan iborat. Uning bir qator turlari bo'lib, shulardan biri "shartnomaviy estoppel" (contractual estoppel)dir. U shartno-

"Indemnity" atamasi lotincha in (yo'q), damn (zarar), ficere (bajarilishi kerak) so'zlarining birikishidan hosil bo'lib, zarar yetkazmaslik (ogohlantirish) degan ma'noni anglatadi. Indemniti shartnoma huquqi doirasida kafolat (assurance) yoki garov shartnomasi (collateral contract) sifatida qaralib, unga binoan bir shaxs boshqasini kutilgan zarardan xoli qilishi yoki uchinchi shaxslarning harakatlaridan salbiy oqibatlar yuzaga kelishini bartaraf etishini ifodalaydi.

"Indemnity" to'g'risidagi kelishuvga ko'ra, bir tomonga kelishuvni bajarishda boshqa tomonni har qanday javobgarlik (zararni qoplash)dan himoya qilish yuzasidan majburiyat yuklatiladi.

ma doirasida tuzilgan va tasdiqlangani sababli shu nom bilan yuritiladi.

Turli huquq tizimlarida bu doktrina turlicha ataladi: Germaniyada – "huquqlarni yo'qotish doktrinasi" (rechtsverwinkung), Italiyada – "qonuniy kutishlarni himoya qilish" (legittimo affidamento), Fransiya esa – "nazarda tutilgan rad etish" (renonciation implicite). Biroq xalqaro miqyosda u asosan "estoppel" nomi bilan mashhur.

"Estoppel"ni majburiyatlar bajarilishini ta'minlash usuli sifatida qo'llash shartnoma ishtirokchilaridan birini ikkinchi taraf manfaatiga zarar yetkazishdan tiyilishga, ya'ni insofli bo'lishga undaydi. Shu orqali shartnoma ishtirokchisining o'z huquqini suiiste'mol qilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Xulosa qilib aytganda, shartnoma bo'yicha olingan majburiyatlarni zamonaviy ta'minlash usullari orqali amalga oshirish taraflar o'rtasidagi majburiyatlarning o'z vaqtida, to'liq va to'g'ri bajarilishini kafolatlaydi.

Doniyor RAXIMOV,

Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti professori v.b.,
yuridik fanlar doktori (DSc)

⁷ <https://lex.uz/docs/4704>.

Ombudsman institutining huquqiy tabiati

Globallashuv jarayoni va xalqaro standartlar, xususan, 1948-yilgi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1966-yilgi xalqaro paktlar va 1993-yilgi Parij tamoyillari ta'sirining kuchayishi sharoitida davlatlardan inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish uchun samarali mexanizmlar yaratishni talab qiladi.

Ombudsman mustaqil parlament instituti sifatida inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi ustidan mustaqil nazoratni amalga oshiradi. Sud jarayonlarining uzoq davom etishi, murakkabligi va yuqori xarajatlari ombudsman institutining ahamiyatini yanada oshiradi.

N. Dolan va K. Bennettning ta'kidlashicha, "Ombudsman instituti qudratli davlat yoki korporativ tuzilmalar oldida shaxslarning manfaatlarini himoya qiladigan adolat va mustaqillik ramzi sifatida butun dunyoga tarqala boshladi"¹. Biroq ombudsman institutining xususiy sektor ustidan ta'sir o'tkazish vakolati qonunchilikda mustahkamlanmasa, uning bu sohadagi roli deklarativ xarakterda qoladi va inson huquqlari himoyasida to'liq samarali bo'la olmaydi.

P. Magnet nazariyasiga ko'ra, ombudsman instituti "parlament nazorati va huquq ustuvorligi o'rtasidagi kesishuv nuqtasi" sifatida qaraladi². Doktrinal nuqtayi nazardan, ombudsman faqat vositachi sifatida emas, balki parlament nazorati va huquq ustuvorligini inson huquqlari manfaatlarida birlashtiruvchi samarali demokratik mexanizm sifatida baholanadi.

Venetsiya komissiyasining huquqiy hujjatlari-da ombudsman "xalq bilan davlat va mahalliy

ma'muriyat o'rtasida vositachi sifatida faoliyat yurituvchi mustaqil mansabdor shaxs" deb ta'riflanadi³. Ombudsman institutini himoya qilish va rag'batlantirish tamoyillari ("Venetsiya tamoyillari") Venetsiya komissiyasining 2019-yil 15-16-martdagi 118-yalpi sessiyasida qabul qilingan⁴. Ushbu tamoyillar ombudsmanni klassik parlament nazoratidan yuqori bosqichga ko'tarib, uning inson huquqlari sohasidagi rolini institutsional jihatdan mustahkamlaydi.

Mustaqillik va hisobdorlikka oid talablar (Venetsiya tamoyillarining 1-7-bandlari) ombudsman faoliyati uchun muhim shart bo'lsa-da, ko'plab davlatlarda ombudsmanlarning moliyaviy resurslari ijro hokimiyatiga bog'liq bo'lib qolmoqda⁵. Bu esa "qonuniy mustaqillik" bilan "amaliy mustaqillik" o'rtasidagi nomuvofiqlikni muammo sifatida ko'rsatadi.

Venetsiya komissiyasi turli sohalariga xos ombudsman organlarini ko'paytirishni cheklashni tavsiya etadi, chunki bu fuqarolar uchun huquqiy himoya vositalarini tushunishni qiyinlashtiradi va davlat resurslarini behuda sarflaydi. Biroq globallashuv va inson huquqlari sohasidagi ixtisoslashuv tendensiyasi umumiy ombudsman barcha ijtimoiy guruhlar manfaatlarini teng himoya qila

¹ Долан Н.Дж., Беннетт К.Дж. Что такое омбудсмен? Глобальное распространение, международная стандартизация и институциональная диверсификация // Обзор политических исследований. – 2019. – Т. 17. – № 4. – С. 370-390.

² Magnette P. Between parliamentary control and the rule of law: the political role of the Ombudsman in the European Union // Journal of European Public Policy. – 2003. – Т. 10. – №. 5. – С. 677-694.

³ Принципы защиты и поощрения института омбудсмана («Венецианские принципы»), принятые Венецианской комиссией на ее 118-й пленарной сессии (Венеция, 15-16 марта 2019 г.) // URL: [https://www.venice.coe.int/webforms/documents/?pdf=CDL-AD\(2019\)005-e](https://www.venice.coe.int/webforms/documents/?pdf=CDL-AD(2019)005-e)

⁴ https://www.venice.coe.int/files/Publications/Venice_Principles_eng.pdf?utm_source.

⁵ <https://www.coe.int/en/web/venice-commission>.

olmasligini ko'rsatmoqda. Sektorli ombudsmanlar inson huquqlari himoyasining zamonaviy ehtiyojlariga mos diversifikatsiya sifatida qaraladi.

Ombudsman institutining samaradorligi uning soniga emas, balki institutsional uyg'unlik va integratsiya darajasiga bog'liq. Ombudsmanlarni yagona huquqiy va tashkiliy tizimda birlashtirish fuqarolar uchun murojaat jarayonini soddalashtiradi va sohaviy ixtisoslashuv orqali inson huquqlari himoyasini chuqurlashtiradi. Bu Parij va Venetsiya tamoyillari ruhiga mos kelib, ombudsman institutining universal qonuniy maqomi, moliyaviy mustaqilligi va parlament oldidagi hisobdorligini saqlagan holda samarali himoya mexanizmlarini yaratadi.

M. Jivko fikricha, ombudsman klassik parlament nazoratiga nisbatan ancha samarali va inson huquqlariga yo'naltirilgan mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Parlament nazorati ko'pincha siyosiy bahslarda qolib ketsa, ombudsman mustaqilligi, individual shikoyatlarni ko'rib chiqish qobiliyati va davlat ma'muriyatiga chuqur aralashish imkoniyati bilan ajralib turadi. Biroq ombudsman tavsiyalari ijro hokimiyatiga majburiy bo'lmasa yoki qonunchilikda ijro mexanizmlari kuchsiz bo'lsa, uning samaradorligi cheklanib, deklarativ xarakterda qolishi mumkin.

N. Dolan va K. Bennett ta'kidlaydilar:
"Ombudsman deb ataladigan tuzilmalar sonining ko'payishi bilan ular bajaradigan funksiyalar tasnifi ham quyidagicha kengaygan:

klassik – an'anaviy modellar; ijro etuvchi – ijro hokimiyatiga integratsiyalashgan; tashkiliy – tashkilot ichidagi ombudsmanlar; advokatlik – zaif guruhlar manfaatlarini faol himoya qilish".

N.Abedin nazariyasiga ko'ra, ombudsman institutining to'rt modeli mavjud: klassik, gibrid, sektorli va deformatör. Klassik model ijro hokimiyati organlarining inson huquqlariga rioya qilishini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lsa, gibrid model kengroq mandatga ega. Sektorli model muayyan ijtimoiy guruhlar manfaatlarini himoya qilishga ixtisoslashgan, deformatör model esa institutsional mustaqillik va ta'sirchanlikdan mahrum bo'lib, faqat formal tuzilma sifatida ishlaydi.

Yevropa kengashi Parlament assambleyasining (PACE) tavsiyalarida ombudsman institutlari uchun quyidagi xalqaro va Yevropa standartlariga rioya qilish zarurligi ta'kidlanadi:

1. Mustaqillik: ombudsman institutining maqomi qonun yoki Konstitutsiyada mustahkamlanishi, mustaqil va xolis bo'lishi shart.

2. Tayinlash va hisobdorlik: ombudsman parlament tomonidan tayinlanadi va unga hisob beradi.

3. Vakolatlar: ijro hokimiyati faoliyatidagi noqonuniy yoki adolatsiz harakatlarni ko'rib chiqish, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish.

4. Tekshiruv imkoniyatlari: hujjatlar va axborotlarni to'siqsiz tekshirish, yopiq muassasalarga kirish huquqi.

5. Konstitutsiyaviy nazorat: konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish huquqi.

6. Fuqarolar uchun ochiqlik: har bir shaxs (jismoniy va yuridik, fuqaroligiga qaramasdan) ombudsmanga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qila olishi.

7. Qonunchilikni qayta ko'rib chiqish: milliy qonunlar xalqaro standartlarga moslashtirilishi.

8. Ortiqcha organlardan saqlanish: fuqarolarni huquqiy himoya vositalarini tanlashda chalkashtirmaslik uchun inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar ko'paytirilmasligi.

9. Ommaboplik: ombudsman instituti jamoatchilikka yaxshi tanilishi, OAVda yoritilishi, yetarli moliyaviy va inson resurslari bilan ta'minlanishi.

10. Xalqaro akkreditatsiya: ombudsmanlar Parij tamoyillariga muvofiq xalqaro darajada akkreditatsiya qilinishi⁶.

Jamoatchilik nazorati va parlament kafolatlari yetarli bo'lmasa, ombudsman institutining inson huquqlari himoyasidagi roli sezilarli darajada cheklanadi. Huquqiy maqomi mustaqil va keng vakolatli bo'lsa ham, tavsiyalari ijrosi ustidan jamoatchilik bosimi va parlament nazorati bo'lmasa, ular amaliy kuchga ega bo'lmaydi. Ilmiy doktrina nuqtayi nazaridan bu ombudsman institutining "normativ potentsiali" bilan "funksional ta'siri" o'rtasidagi ziddiyatni keltirib chiqaradi.

Linda K. Reyf fikriga ko'ra, ombudsman na-faqat ma'muriy suiiste'molchilikdan himoya qilish mexanizmi, balki qonun ustuvorligi va "Ezgu

⁶ https://pace.coe.int/en/files/19786/html?utm_source.

boshqaruv” tamoyillarini mustahkamlaydigan institut sifatida ham namoyon bo’ladi⁷. Reyfning konsepsiyasi ombudsman faoliyatining “reaktiv” emas, balki “profilaktik funksiyasi”ga urg’u beradi. Ombudsman ma’muriy tartib-taomillardagi tizimli kamchiliklarni aniqlab, huquqiy munosabatlarda insof, shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlaydi. Biroq bu funksiyaning samaradorligi uning tavsiyalari huquqiy jihatdan e’tiborga olinishi va parlament hamda fuqarolik jamiyati tomonidan izchil monitoring qilinishiga bog’liq.

O’zbekiston Konstitutsiyasida inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning yangi mexanizmlari, xususan, qonunlardagi noaniqliklarning inson foydasiga hal qilinishi, “sukut saqlash” huquqining birinchi marta belgilanishi va advokatlar maqomining tergovchi va prokuror maqomiga tenglashtirilishi kabi muhim qoidalar mustahkamlandi.

Ushbu islohotlar Oliy Majlisning Inson huquqlari bo’yicha vakili – ombudsmanga katta mas’uliyat yuklaydi. Ombudsman instituti davlat, fuqarolik jamiyati institutlari va xalqaro subyektlar o’rtasida inson huquqlari sohasida muhim “ko’priq” vazifasini bajaradi.

Konstitutsiya normalariga qat’iy rioya etilishini ta’minlash va davlat rahbarining hujjatlarida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, 2024-yil 15-noyabrda “O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo’yicha vakili (ombudsman) to’g’risida”gi 1002-qonun qabul qilindi. Qonunning maqsadi ombudsman institutining inson huquqlari sohasidagi mustaqil milliy institut sifatidagi rolini kuchaytirish, faoliyatining institutsional asoslarini takomillashtirish, fuqarolar huquq va erkinliklariga rioya qilishni ta’minlash, ombudsmanning vakolatlarini va hududlardagi faoliyatini kengaytirish, shuningdek, qiynoqlar va g’ayriinsoniy muomalaning oldini olishdagi faoliyatini mustahkamlashdir.

Amaldagi qonun 1997-yilda qabul qilingan bo’lib, unga 7 marta o’zgartirish va qo’shimchalar kiritilgan⁸. U 22 ta modda va 10 ta prim moddadan iborat edi. Hozirgi davr talablari va ombudsmanga yuklatilgan yangi vazifalarni hisobga olib, yangi qonun qabul qilish zarurati yuzaga keldi.

Qonunning asosiy yangiliklari quyidagilar:

1. Ombudsman yillik hisobotidan tashqari, Prezident, Oliy Majlis palatalari va Vazirlar Mahkamasiga inson huquqlari bo’yicha maxsus ma’ruzalar taqdim etishi va qonunchilik tashabbusi tartibida Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga takliflar kiritishi huquqi berildi.

2. Davlat rahbari tashabbusi bilan tashkil etilgan ombudsmanning doimiy mintaqaviy vakillarining huquqiy maqomi qonun bilan mustahkamlandi.

3. Ombudsman ta’sir choralariga aniqlik kiritildi (ogohlantirish, taqdimnoma, iltimosnoma, talabnoma), har bir chora alohida moddada aks ettirildi. Davlat organlari va tashkilotlarga qonunbuzilishlarning sabablarini bartaraf etish bo’yicha taqdimnoma kiritish huquqi mustahkamlandi.

4. Jazoni ijro etish muassasalari va tergov hibsonalarida “Ombudsman qutisi”ni saqlash mexanizmlari, qiynoqlarning oldini olish uchun jamoatchilik guruhlarini tashkil etish normalari belgilandi.

5. Ma’muriy qamoq, tergov hibsonasi, jazoni ijro etish muassasalari va boshqa yopiq muassasalarda saqlanayotgan shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ular bilan suhbatlar o’tkazish huquqlari mustahkamlandi.

6. O’zbekistonning xalqaro majburiyatlari doirasida “muqobil ma’ruza” tayyorlash va xalqaro tashkilotlarga taqdim etish imkoniyati belgilandi.

7. 2 ta kodeks va 5 ta qonunga muvofiqlashtirish uchun o’zgartirish va qo’shimchalar kiritildi.

Qonun loyihasini tayyorlashda Finlandiya, Polsha, Bolgariya, Vengriya, Serbiya, Ispaniya, Ozarbayjon, Ukraina, Qozog’iston, Qirg’iziston, Tojikiston va boshqa 30 dan ortiq davlatning qonunchiligi o’rganildi. Qonunning qabul qilinishi ombudsmanning xalqaro alyansda “A” maqomini olishini tezlashtiradi.

⁷ Reif L. C. The ombudsman, good governance, and the international human rights system. – Martinus Nijhoff Publishers, 2004. – T. 79.

⁸ O’zbekiston Respublikasining 1997-yil 24-aprelda qabul qilingan “Oliy Majlisning Inson huquqlari bo’yicha vakili (ombudsman) to’g’risida”gi qonuni.

Yangi qonun ombudsman institutining mustaqil milliy institut sifatidagi rolini oshiradi, faoliyatining institutsional asoslarini mustahkamlaydi, inson huquqlari va erkinliklariga rioya qilishni ta'minlashdagi vakolatlarini kengaytiradi hamda hududlarda faolligini yangi bosqichga olib chiqadi.

Fikrimizning isboti sifatida ta'kidlash joizki, murojaatlar o'rganilishi natijasida ombudsman tomonidan davlat organlari va tashkilotlari hamda sudlarga fuqarolarning buzilgan huquqlarini tiklash yuzasidan kiritilgan ta'sir choralari 2020-yilda 40 ta bo'lgan bo'lsa⁹, 2023-yilda bu ko'rsatkich 170 tani tashkil etdi¹⁰. Qiynoqlarning oldini olish bo'yicha 2020-yilda 76 ta, 2021-yilda 177 ta, 2022-yilda 381 ta, 2023-yilda 603 marotaba monitoring tashriflari o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasida shaxsning murojaat qilish huquqi Konstitutsiyada kafolatlangan bo'lib, ushbu sohada qonunchilik bazasi doimiy takomillashtirib borilmoqda. Natijada aholining murojaatlari bilan ishlash tizimi samarali yo'lga qo'yildi, bu esa fuqarolarni qiynayotgan muammolarni birlamchi bo'g'inda tez va samarali hal qilish imkonini berdi.

Yaqqol misol sifatida fuqarolarning ombudsmanga yo'llagan murojaatlari yildan-yilga o'sib bormoqda. Xususan, mehnat huquqlarini tiklash bo'yicha murojaatlarning ko'rib chiqilishi natijasida 2021-yilda 10 nafar¹¹, 2022-yilda 13 nafar va 2023-yilda 38 nafar fuqaro ishga tiklandi. Shuningdek, ombudsman murojaatlari asosida 2023-yilda 12 ta holatda jinoyat ishi qo'zg'atildi, 1 ta holatda jinoyat ishi qayta malakalandi, 57 ta

holatda jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish haqida-gi qarorlar prokurorlar tomonidan bekor qilindi. Shu bilan birga, qariyb 30 nafar mas'ul xodimga intizomiy jazo qo'llanildi, 17 nafar shaxs ma'muriy javobgarlikka tortildi va 5 nafar xodim egallab turgan lavozimidan ozod etildi.

Finlandiya dunyoda eng baxtli aholiga ega deb tanilgan bo'lib, o'z ombudsmani orqali inson huquqlarini yuz yildan ortiq himoya qiladi¹². Ombudsman fuqarolar murojaatlarini tezkor ko'rib chiqish uchun zamonaviy tizimlardan foydalana-di, jamoatchilik bilan muloqot qiladi, muammolarni aniqlash va hal etish bo'yicha tadqiqotlar olib boradi, faoliyati haqida aholini xabardor qiladi. Shuningdek, qamoqxonalarda mahkumlarga ta'lim, kasbiy tayyorgarlik va sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishga e'tibor qaratib, ularning sharoitlarini monitoring qiladi.

O'zbekiston ombudsmani Finlandiya tajribasidan kelib chiqib, innovatsion yondashuvlarni joriy etmoqda. Davlat organlari ombudsman murojaatlariga ustuvorlik bilan yondashadi. Finlandiyada mahkumlar ombudsmanga faqat qamoqxona ma'muriyati orqali murojaat qilsa, O'zbekistonda yopiq muassasalarda "Ombudsman qutisi" o'rnatilgan bo'lib, ular videokameralardan xoli joylarda joylashadi va faqat ombudsman xodimlari tomonidan ochiladi. Bu mahkumlarning shikoyatlarini xavfsiz va maxfiy yuborishini ta'minlaydi.

Murojaatlar maxfiyligi, mas'ullarning malakasini oshirish, fuqarolik jamiyati bilan hamkorlik va shaffoflikni ta'minlash O'zbekistonda milliy preventiv mexanizmni takomillashtirib, ombudsmanga ishonchni oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning inson huquqlari sohasidagi ishlari rivojlangan davlatlar tajribasidan qolishmaydi. Ombudsman instituti, dunyoda turli nomlar bilan tanilgan bo'lsa-da, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qiluvchi mustaqil organg sifatida yangi rivojlanish bosqichiga chiqdi.

Bekzod NARIMANOV,
dotsent, yuridik fanlar doktori

⁹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ning 2020-yildagi faoliyati to'g'risidagi hisoboti // URL: <https://ombudsman.uz/uz/docs/ozbekiston-respublikasi-oliy-majlisining-inson-huquqlari-boyicha-vakili-ombudsmanning-2020-yildagi-faoliyati-tog'risidagi-hisoboti>.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ning 2023-yildagi faoliyati to'g'risidagi hisoboti // URL: <https://ombudsman.uz/uz/docs/ozbekiston-respublikasi-oliy-majlisining-inson-huquqlari-boyicha-vakili-ombudsmanning-2023-yildagi-faoliyati-tog'risidagi-hisoboti>.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ning 2021-yildagi faoliyati to'g'risidagi hisoboti // URL: <https://ombudsman.uz/uz/docs/ozbekiston-respublikasi-oliy-majlisining-inson-huquqlari-boyicha-vakili-ombudsmanning-2021-yildagi-faoliyati-tog'risidagi-hisoboti>.

¹² <https://www.oikeusasiamies.fi/eea>.

Konsignatsiya shartnomasi nima?

Bugungi kunda xalqaro savdoda biznes yuritishning bir qator mexanizmlari ishlab chiqilgan bo'lib, ular orasida vositachilar orqali amalga oshiriladigan savdo operatsiyalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Konsignatsiya xalqaro savdoda keng qo'llanadigan vositachilik xizmatlar shakllaridan biri bo'lib, uning mohiyati tovarlarni belgilangan mamlakat hududida joylashgan maxsus omborxonalarga yetkazib berishdan iboratdir. Bunda konsignor (eksportchi) va konsignant (vositachi kompaniya) o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida tovarlar realizatsiya qilinadi. Muhim jihati shundaki, konsignor mahsulotiga haqni darhol emas, balki u oxirgi iste'molchiga sotilib, pul tushgandan keyingina oladi. Shu sababli konsignatsiya shartnomalarida tovarlarning omborda saqlanish muddati, sotuv hajmi va tomonlarning huquq hamda majburiyatlari aniq belgilab qo'yiladi.

Konsignatsiyaning ikki turi mavjud:

- to'liq konsignatsiya: bunda xorijiy sherik shartnoma muddatida tovarlarning barchasini sotish majburiyatini oladi, agar bir qismi sotilmay qolsa, u holda ushbu tovarni o'zi sotib oladi va xohlaganicha tasarruf qiladi;

- qisman qaytariladigan

konsignatsiya: sotilmay qolgan tovarning ma'lum qismi eksportchiga qaytarilishi mumkinligini nazarda tutadi. Albatta, eksportchi tovarning qaytarilishidan manfaatdor emas va importchi bunday qilmasligi uchun harakat qiladi.

Konsignatsiya eksportchiga tovar zaxiralarini saqlash bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirish imkoniyatini yaratadi, bu esa mahalliy bozorda raqobatbardosh narxlarni saqlab turishga yordam beradi. Biroq, tovarlarni omborga jo'natish sotish imkoniyatlarini oshirishi mumkin bo'lsa-da, ba'zan eksportchilar bevosita savdolarga umid qilib, bundan foydalanishni nazardan qochiradi¹.

Ta'kidlash lozimki, konsignatsiya alohida biznes modeli hisoblanadi. Konsignatsiyaning o'ziga xos jihati savdo bitimini moliyalashtirishni ta'minlashdir. Konsignatsiyali oldi-sotdi savdoni moliyalashtirishning qadimgi, asosiy va ko'p tarqalgan uch usulidan biri bo'lib, ochiq hisoblar va naqd avans bilan bir qatorda turadi. Ochiq hisob-ki-

tob bo'yicha bitimlardan farqli o'laroq (ular importchilar uchun qulay, chunki tovar eksportchi jo'natgandan keyingina to'lanadi) va oldindan to'lovdan (bu sotuvchilar uchun qulay, chunki ular tovar partiyasi jo'natilishidan oldin, ba'zan esa hali ishlab chiqarilmasdan turib to'liq to'lovni olishadi) konsignatsiya – importchilar uchun foydali moliyalashtirish usuli hisoblanadi. Eksportchilar uchun esa ayrim hollarda konsignatsiya to'g'ridan-to'g'ri yetkazib berish mumkin bo'lmagan yopiq bozorlarga kirishning yagona yo'lidir.

Konsignatsiya usulidan foydalanishning mohiyati shundaki, importchi eksportchiga tovarlarga buyurtma beradi. Tomonlar tovar narxini kelishib olishadi, ammo to'lov eksportchiga importchi tovarni olib, uni mijozlariga qayta sotgandan keyingina amalga oshiriladi. Shu tariqa importchi bitimni moliyalashtirish uchun mablag'larini sarflashga majbur bo'lmaydi.

Konsignatsiya (lotincha “consignation” – yozma isbot, hujjat) ombori haqidagi shart-

¹ Гудзенко А.Е. Использование консигнации для расширения экспортных операций // Российский внешнеэкономический вестник. 2021. – №6. Стр. 41-42.

noma zamonaviy fuqarolik muomalasida yangi shartnoma turi hisoblanadi. Bir qator xorijiy mamlakatlarning qonunchiligida ushbu shartnoma alohida tartibga solinmagan. Biroq ushbu mamlakatlar qonunchiligidan farqli o'laroq Ozarbayjon Fuqarolik kodeksida konsignatsiya ombori haqidagi shartnomaning huquqiy tartibga solinishiga alohida paragraf bag'ishlangan. Ushbu paragraf 837–841-moddalarni ichiga oladi.

Xorijiy iqtisodiy aylanmada, ayniqsa xalqaro savdo (tijorat) munosabatlari sohasida konsignatsiya ombori haqidagi shartnoma keng qo'llanadi. Turli davlatlar subyektlari o'rtasida tuziladigan ushbu shartnoma xalqaro savdo amaliyotida xalqaro konsignatsiya shartnomasi nomi bilan tanilgan. Xalqaro konsignatsiya shartnomasi ishlab chiqaruvchilarga tovarlarini xorijiy bozorlarda sotish imkonini beradi. Biroq tovarlarni xorijiy bozorlarda sotish ko'p hollarda savdo vositachilari va tijorat vakillarining yordamisiz mumkin bo'lmaydi. Chunki savdo vositachilari va tijorat vakillari ham xalqaro savdo shartlarini, ham ichki bozor xususiyatlarini yetarli darajada yaxshi bilishadi. Ularni jalb qilish orqali ishlab chiqaruvchilar tadbirkorlik tavakkalchiligini kamaytiradi, shuningdek, boshqa mamlakatlarda yangi bozorlarga kirish bilan bog'liq xarajatlarni minimal darajaga tushiradi.

Xalqaro savdo amaliyotida konsignatsiya shartnomasidan keng foydalanish uning yuzasidan ayrim huquqiy hujjatlarning qabul qilinishiga olib

keldi. So'z Xalqaro savdo palatasining ikki hujjati haqida ketmoqda:

1) "bir turdagi tijorat agentligi shartnomasi to'g'risidagi hujjat";

2) "tijorat agentligi shartnomalarini tuzishga oid qo'llanma".

Ushbu hujjatlarda xalqaro konsignatsiya shartnomasiga tavsif beriladi, uning o'ziga xos belgilari ko'rsatiladi. Biroq bu hujjatlar majburiy huquqiy kuchga ega emas. Ya'ni, ular tavsiyaviy xususiyatga ega hujjatlardir.

O'zbekistonning fuqarolik qonunchiligi konsignatsiya ombori haqidagi shartnomaga legal ta'rif bermaydi. Shuning uchun unga ilmiy (doktrinal) ta'rif berish zarur. Ta'rif berishdan avval konsignatsiya ombori² haqidagi shartnomaning xarakterli belgilari aniqlanishi lozim.

Huquqiy adabiyotlarda "konsignatsiya shartnomasi" atamasi ishlatilar edi; u vositachilik shartnomasining turi hisoblangan. Ya'ni, bu shartnoma bo'yicha bir taraf (konsignator) ma'lum muddat mobaynida ikkinchi taraf (konsignant) bergan tovarlarni haq evaziga o'z nomidan, biroq konsignant hisobidan sotish majburiyatini zimmasiga olar edi. Bunday tushuncha hozirgi zamon huquq adabiyotida ham keltirilgan³.

Ayrim adabiyotlarda ham konsignatsiya shartnomasiga komissiya shartnomasining turi sifatida qaraladi va bu shartnomaga ko'ra komitent (ishlab chiqaruvchi) vositachi – konsignator (komissioner) omboriga tovar yetkazib berishi hamda

keyinchalik uning ushbu tovarni nomidan sotishi nazarda tutilishi tushuniladi.

Konsignatsiya shartnomasi komissiya shartnomasining turi sifatida xalqaro savdoda keng tarqalgan. Konsignatsiya shartnomasi shartlarini batafsil huquqiy tartibga solishning maqsadga muvofiqligi shu bilan izohlanadiki, ko'plab davlatlar huquqida ushbu shartnoma turi maxsus tartibga solinmagan. Shu sababli tomonlar o'zaro munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlarini shartnomada yetarlicha aniq va batafsil ifoda etishga intilishadi.

Konsignatsiya shartnomasining umumiy ta'rifi quyidagicha: bir taraf (konsignator) belgilangan haq evaziga shartnomada belgilangan muddat davomida (konsignatsiya muddati) o'z nomidan, ammo ikkinchi taraf (konsignant) hisobidan, unga ushbu maqsadda topshirilgan tovarlarni tasarrufiga (konsignatsiyaga) qabul qilgan holda sotish majburiyatini zimmasiga oladi⁴.

Shu tariqa konsignatsiya shartnomasi munosabatlarining asosiy farqli jihati shundaki, savdo agenti (konsignator) sotuvchi (konsignant) tomonidan unga topshirilgan va uning hisobidan sotilishi shart bo'lgan tovarlarga ega bo'ladi.

Konsignatorning tovarlarni sotish bo'yicha majburiyatlarni zimmasiga olishi ko'p hollarda undan nafaqat tovarlarni sotishni, balki xaridorlarga zarur ehtiyot qismlarini yetkazib berish va texnik xizmat ko'rsatishni ham talab qiladi. Konsignantning tijorat agenti sifatida konsigna-

² Сабадаш Ф.А. Консигнационные склады как элемент развития логистики в автомобилестроении // Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Экономика. 2016. – № 3. Стр. 102–109.

³ Гонифанидов М.С. Договор хранения // <https://cyberleninka.ru/article/n/dogovor-hraneniya>.

⁴ Маслов Д.Г. Организация и техника внешнеэкономической деятельности: учеб. метод. пособие : в 2 ч. / Д.Г. Маслов; отв. ред. С.Г. Михнева, Д.Г. Маслов. – Пенза : Изд-во ПГУ, 2017. – Ч. 2. Стр. 15–16.

tor shartnoma asosida odatda reklama kampaniyasini ham amalga oshirish majburiyatini oladi. Bunday reklama kampaniyasi, qoida tariqasida, tovarlar omborga keltirilishidan ancha oldin o'tkaziladi. Oldindan amalga oshirilgan reklama kampaniyasi tovarlarning sotilishiga qadar saqlanish muddatini qisqartirishga yordam beradi.

Tovarlarning bevosita importchisi sifatida konsignator faoliyat yuritadigan mamlakatga konsignatsiya tovarlarini olib kirish uchun zarur bo'lgan barcha rasmiy jarayonlarni amalga oshirish majburiyatini zimmasiga oladi. Bu jarayonga bojxona rasmiylashtiruv, tegishli ruxsatnomalarni olish, jumladan import, sanitariya, veterinariya va boshqa ruxsatnomalar kiradi. Ayrim hollarda, agar qonunchilik ruxsat bersa, keltirilgan tovarlar maxsus bojxona omborlariga (erkin omborlarga) joylashtiriladi. Bu esa ularning saqlanish davrida konsignatorni bojxona to'lovlarini to'lashdan ozod qiladi. Konsignantning asosiy majburiyati kelishilgan tovarlarni belgilangan muddatda konsignatorga yetkazib berishdan iborat.

Odatda konsignatsiya shartnomalarida konsignantning ushbu majburiyatni bajarishi bilan bog'liq qoidalar oldi-sotdi shartnomalaridagi kabi batafsil bayon etiladi. Konsignatsiya shartnomasi, qoida tariqasida, yetarlicha uzoq muddatga tuziladi. Chunki konsignatorning shartnomani bajarishni tashkil etishga yo'naltirgan kapital xarajatlari darhol qoplanmasligi mumkin.

Konsignatsiya shartnomalarining muddati odatda 2 yildan 5 yilgacha davom etadi. Konsignatsiya shartnomasi ishti-

rokchilari o'rtasidagi munosabatlarda muhim jihat konsignatsiya muddatini kelishib olishdir. Ya'ni, tovar konsignator omborida uchinchi shaxslarga sotilguncha qancha muddat turishi mumkinligi belgilab qo'yiladi. Bu muddat avvalo tovarning xususiyati, mavjud savdo amaliyoti bilan bog'liq bo'lib, bozor sharoiti ham unga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Boshqacha aytganda konsignatsiya muddati bir necha oydan bir necha yilgacha bo'lishi mumkin. Shartnomada konsignator ma'lum vaqt oralig'ida konsignantga ombordagi tovarlar holati haqida ma'lumot taqdim etishi shart qilib qo'yilishi mumkin. Shuningdek, shartnomaga ombordagi tovar zaxirasini to'ldirish tartibi ham kiritilishi odatiy hol hisoblanadi.

Qoida tariqasida konsignant tashabbusi bilan konsignator omborida tovarlarning mavjudligini tekshirish huquqiga ega bo'lishi shartnomada qayd etiladi. Konsignatorga undagi tovarlar bo'yicha konsignantning mulk huquqini himoya qilish choralari ko'rish majburiyati yuklanishi mumkin. Omborda belgilangan muddat saqlangan tovarlar muddat tugagach, konsignantga qaytarilishi shart.

Sotib olinayotgan tovarlarga mulk huquqining qaysi paytda o'tishi shartnomada belgilab qo'yilishi mumkin. Masalan, konsignatorga uchinchi shaxslar bilan tuziladigan shartnomalarda maxsus shart qo'shish majburiyati yuklanishi mumkin: ya'ni, mulk huquqi xaridorga faqat u majburiyatlarini to'liq bajargandan so'ng, xususan, tovar uchun to'liq haq to'langanidan keyingina o'tadi.

Konsignatsiya shartlarini belgilashda tomonlar, qoida tariqasida, sotilmagan tovarni

konsignator qaytarishi shartmi yoki belgilangan muddat tugagach, konsignantning o'zi butunlay yoki qisman qaytarib olishga majburmi degan masalani aniqlab olishadi.

Konsignator omborida saqlanayotgan tovarlar konsignant mulki sifatida qolaveradi. Biroq ikki tomon manfaatida bu tovarlar sug'urta qilinishi maqsadga muvofiq. Sug'urtaning hajmi, shartlari va turi shartnomada belgilanadi. Shuningdek, sug'urta to'lovini qaysi taraf to'lashi aniqlanadi.

Konsignator konsignant bergan topshiriqni – unga topshirilgan tovarlarni eng qulay shartlarda sotishni bajarishi shart. Bu tovarlarning qaysi narxlarda sotilishiga taalluqlidir. Agar tomonlar shartnomada tovarlar uchun minimal narx darajasini belgilagan bo'lishsa, bozor konyunkturasidagi o'zgarishlar oqibatlari ham ko'rsatilishi maqsadga muvofiq.

Shartnomaga konsignatorning uchinchi shaxslar bilan shartnoma tuzishda rioya qilishi lozim bo'lgan ayrim qoidalar ham kiritilishi mumkin. Masalan, hisob-kitob tartibi, ayrim hollarda tovarlarni qarzga berish mumkinligi kabi shartlar. Konsignator ushbu ko'rsatmalarga qat'iy rioya qilishi lozim.

Tomonlar, shuningdek, o'zaro hisob-kitob tartibini belgilashlari kerak. Ya'ni, konsignatorning haq olish huquqi qaysi shartlarda vujudga kelishi va bu huquq qanday amalga oshirilishi aniq qilib ko'rsatilishi shart: yoki konsignantga pul o'tkazish jarayonida ma'lum summadan ushlab qolish orqali yoxud boshqa usul bilan.

Baxromjon TOPILDIYEV,

Toshkent davlat yuridik universiteti
"Fuqarolik huquqi" kafedrası professori,
yuridik fanlar doktori

Mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalari rivojida import-eksport munosabatlari

Mamlakatimizda tashqi savdoning samaradorligini oshirish, tashqi savdoni liberallashtirish, eksport salohiyatini mustahkamlash hamda raqobatbardosh mahsulotlarni tashqi bozorga chiqarish tizimini takomillashtirish, mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan xorijiy sheriklar o'rtasida barqaror munosabatlarni shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Iqtisodiyotning liberallashtirilishi, uning xorijiy investorlar uchun maqbullashtirilishi import-eksport munosabatlarini huquqiy tartibga solish to'g'risidagi masalani ko'ndalang qo'yimoqda. Bu holat, bir tomondan, xorijiy kapital hisobidan mamlakat iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlarining kengayishini ta'minlasa, ikkinchi tomondan, davlat iqtisodiyotining import-eksport munosabatlariga ortiqcha bog'lanib qolmasligini kafolatlaydigan mustahkam qonunchilik bazasini yaratishni taqozo etadi. Shu jarayonda import-eksport munosabatlariga oid milliy qonunchilikning xalqaro xususiy huquq normalari bilan uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Import-eksport munosabatlarini rivojlantirish xorijiy investorlar uchun qulay sharoitlarni nazarda tutadi. Bunga soliq, bojxona, valyuta va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish sohasida beriladigan imtiyozlar hamda kafolatlar tizimi kiradi. Mazkur tartibotning joriy etilishi O'zbekistonning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tish va bozor munosabatlarini chuqurlashtirish jarayonida liberallashtirish, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotning barcha jabhalarini demokratlashtirish, milliy xo'jalikda tarkibiy o'zgarishlarni jadallashtirish makroiqtisodiy mutanosiblikni ta'minlayotgan asosiy omillardan biri bo'lib kelyapti. Aynan liberallashtirish tamoyillari tufayli so'nggi yillarda mamlakatimizda iqtisodiy o'sish barqaror sur'atda

saqlanib qolmoqda.

O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish avvalo korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish hamda raqobat muhitini rivojlantirish orqali amalga oshirilmoqda. Bu jarayon milliy iqtisodiyotning barcha sohalarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Liberallashtirish uzluksiz jarayon sifatida bundan buyon ham takomillashib boradi. Ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, shu jumladan oila tadbirkorligini rivojlantirish hamda "Har bir oila – tadbirkor" dasturini amalga oshirish ushbu jarayonning barqaror kafolati bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tishning dastlabki bosqichida chakana savdo va umumiy ovqatlanish shoxobchalari, uy-joy fondi hamda maishiy xizmat obyektlari xususiy qo'llarga sotildi yoki imtiyozli va tekin berildi. Ushbu chora-tadbirlarning asosiy maqsadi aholida bozor ko'nikmalarini shakllantirish va mustahkamlashdan iborat edi. Keyingi ikkinchi va uchinchi bosqichlarda esa o'rta hamda yirik korxonalar davlat tasarrufidan chiqarildi. Natijada mamlakat iqtisodiyotida aksiyadorlik jamiyatlari, davlat ulushi bo'lgan kompaniyalar va turli uyushmalar shakllandi.

Bozor qanchalik mukammal vosita bo'lmasin, barcha muammolarni hal etishga qodir emas. U davlat aralashuvisiz iqtisodiy muvozanatni ta'minlay olmaydi. 2007–2008-yillarda boshlan-

gan global moliyaviy iqtisodiy inqiroz saboqlari buni yaqqol ko'rsatdi. Bozor o'zicha barchaga barobar foiz stavkasi, baho va daromadlar mexanizmini yarata olmaydi. Iste'mol va jamg'arish o'rtasidagi nisbatni saqlash mikrodarajada davlat ishtiroki va nazorati bilangina ta'minlanishi mumkin. Xuddi mana shu ikki narsada ishlab chiqarish va aholi daromadlarini o'stirishning beqiyos imkoniyati mujassam.

Bosqichma-bosqich erkinlashtirib borish o'tish davrining o'zidayoq ijobiy natijalarini bera boshladi. 1990-yillar o'rtalariga kelib yalpi sanoat mahsuloti, keyin esa yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish bozor islohotlaridan oldingi darajada tiklandi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi yillarida ham iqtisodiyotda o'sish davom etdi. Islohotlarni chuqurlashtirish, tarkibiy qayta qurishlar, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash, kichik biznesni rivojlantirish, xususiy mulkning ustuvor rolini ta'minlash, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini bosqichma-bosqich kamaytirib borish hisobiga iqtisodiy samaradorlik ta'minlandi.

Savdo profitsiti iqtisodiy o'sishga yordam beradi. Ko'proq eksport deganda fabrika va ishlab chiqarish obyektlarining ko'proq mahsulot ishlab chiqarishi, shuningdek, ushbu fabrikalarning ishlashini ta'minlash uchun ish bilan band bo'lganlarning soni ko'payishi tushuniladi. Eksportdan tushgan tushum, shuningdek, mamlakatda iste'mol xarajatlarini rag'batlantiruvchi va iqtisodiy o'sishga yordam beradigan mablag'lar oqimini anglatadi. Import mamlakatdan pullarning chiqib ketishini anglatadi, chunki bu mahalliy kompaniyalar (importchilar) tomonidan chet el korxonalariga (eksport qiluvchilarga) to'lanadigan to'lovlardir. Importning yuqori darajasi barqaror ichki talab va rivojlanayotgan iqtisodiyotni ko'rsatadi. Agar import asosan mashina va uskunalar kabi samarali aktivlarga ega bo'lsa, yanada yaxshi bo'ladi. Chunki ular uzoq muddatda samaradorlikni oshiradi.

Agar eksport yaxshi o'sayotgan bo'lsa, lekin import sezilarli darajada pasaygan bo'lsa, bu dunyoning qolgan qismi ichki iqtisodiyotga nisbatan yaxshi holatda ekanini bildiradi. Aksincha, agar eksport keskin pasayib, importning o'sishi kuzatilsa, bu ichki iqtisodiyotning chet el bozorlariga nisbatan yaxshilanayotganidan dalolat beradi.

Mamlakatning importi va eksporti uning alma-

shinuv kursi o'rtasidagi bog'liqlik tufayli murakkabdir. Valyuta kursi savdo profitsitiga (yoki defitsitga) ta'sir qiladi, bu esa valyuta kursiga ta'sir qiladi va hokazo. Umuman olganda, zaif milliy valyuta eksportni rag'batlantiradi va importni qimmatroq qiladi. Aksincha, kuchli milliy valyuta eksportni qiyinlashtiradi va importni arzonlashtiradi.

Mamlakatimizda har yili 30 mingdan ziyod kichik biznes subyekti barpo etilmoqda. Kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi hissasi 56,9 foizga, sanoat ishlab chiqarishida esa 45 foizga yetkazildi. Tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlar ulushi 52 foizni tashkil etdi. Keyingi ikki yilda 378 aksiyadorlik jamiyatidagi davlat ulushi savdoga qo'yildi. Xo'sh, bu nima beradi?

Birinchidan, aksiyadorlik jamiyatlari davlatga tegishli qismining sotilishi davlat g'aznasiga mo'may mablag' keltiradi. **Ikkinchidan**, davlatning qo'li xo'jalik yumushlaridan birmuncha bo'shaydi. **Uchinchidan**, mamlakatda tadbirkorlik muhiti kengayadi. Bundan ham davlat, ham mulkdorlar va oddiy kishilar yutadi. Asosiysi, bozor islohotlarini chuqurlashtirish shuni talab qiladi.

Davlatning monopol mavqeyi uglevodorod xomashyosi, rangli metallar, uran qazib olish, temir va avtomobil yo'llari, aviatashuvlar, elektr energiyasi ishlab chiqarish, elektr va kommunal tarmoqlarda saqlanib qolishi lozim. Boshqa sohalaridagi davlat aktivlarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish davom etadi. Xususiylashtirilgan davlat mulki obyektlari chet ellik investorlarga sotilmoqda. Jumladan, yuzlab mulk majmualari tanlov asosida investitsiya kiritish sharti bilan "0" qiymatda yangi mulkdorlarga sotildi. Ular esa investitsiya kiritish, minglab ishchi o'rinlarini yaratish majburiyatini oldi.

Iqtisodiyotni liberallashtirish jarayoni pirovard maqsad bo'lmasligi kerak. Agar erkinlashtirish sur'atlari, iqtisodiyotning o'sish sifat ko'rsatkichlari, aholi turmush darajasi barobarida kechsa yanada yaxshi bo'ladi. O'zbekiston iqtisodiy o'sish prognozlariga ko'ra, dunyodagi tez rivojlanayotgan mamlakatlar qatoridan joy oldi. Ming yillik rivojlanish maqsadlariga erishgani uchun oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasida ham oldingi o'rinlarga chiqdi. Ushbu ko'rsatkichlar hozirgi sharoitda ancha yuqori hisoblanadi. Chunki jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hali to'la baham topgani yo'q, davlatlarning bir-biriga sanksii-

ya va embargolar qo'llashi avj olmoqda. Qolaversa, muhim tovarlarga tashqi talab kamayib, narxlar pasayib bormoqda, talabga nisbatan taklif ustunroq. Bu kabi tashqi iqtisodiy va siyosiy beqarorlik milliy iqtisodiyotga salbiy ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi albatta.

Valyuta va tashqi savdo bozorini erkinlashtirish iqtisodiyotni liberallashtirishning muhim bo'g'inlaridan biri bo'lib, davlat pul-kredit siyosatiga jiddiy o'zgarishlar kiritishni talab qiladi. Monetar siyosat davlat yoki uning Markaziy banki tomonidan makroiqtisodiy vaziyatga ta'sir ko'rsatish maqsadida muomaladagi pul massasini oshirish yoki pasaytirish orqali amalga oshiriladigan vositadir. Bu siyosat foiz stavkasi va ayirboshlash kursi, to'lov balansi ustidan nazorat, inflyatsiyani jilovlash, umumiy bandlikni oshirish, baholar darajasini me'yorlash va boshqa tadbirlarni ham ichiga oladi.

O'zbekiston Prezidenti 2017-yil 2-sentabrda "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonni imzoladi. Asosiy maqsad barcha bozor ishtirokchilari uchun bir xil sharoit yaratish bo'lib, bozordagi turli valyuta kurslari o'rniga yagona rasmiy kurs belgilandi. Korxona va aholida chet el valyutasini erkin sotib olish imkoni paydo bo'ldi. Endilikda aholining pul o'tkazmalarini milliy valyutada olishni afzal ko'rayotgani kuzatila boshladi. Asosiysi, valyuta bozorida noaniqlik, nufuzli valyuta kurslarining har kuni, har soatda o'ynab turishi aholida ajiotaj, ya'ni shov-shuv talabni kuchaytirayotgan edi. Endi esa Prezident va Markaziy bank kafolati ostida valyuta bozoriga aniqlik va shaffoflik kiritildi. Bugun o'zbekistonlik turist, biznesmen, talaba yoki davolanuvchi chet elda turib konversiy kartasidagi valyutani bankomatdan xohlagan miqdorda yechib olishi mumkin.

Liberallashtirish iqtisodiyotning qaysi sohasida kechmasin, kompleks xarakterga ega bo'lib, ma'lum sharoitlarni taqozo etadi. Ayni paytda mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlik va investitsion faollik saqlanib turibdi, iqtisodiy o'sish bo'yicha davlat dasturlarini ro'yobga chiqarish jadal bormoqda. Soliq va bank tizimi islohotlari ketmoqda, biznesni yuritish va eksport sohasidagi ma'muriy to'siqlar olib tashlanmoqda. Bular hammasi pul-kredit tizimini takomillashtirish, sohani liberallashtirishga xizmat qiladi.

Valyuta bozori liberallashtirish tashqi savdo ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu sohada raqobatbardoshlikni oshirish, eksportchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash, fermer xo'jaliklari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlarning tashqi bozorlarga chiqishini rag'batlantirish maqsadida qator chora-tadbirlar amalga oshirilayapti. Jumladan, ularga beriladigan imtiyozlar tizimi takomillashtirilmoqda, bojxona tartiblari soddalashtirilayapti, tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirish muddatlari keskin qisqartirilmoqda. Shuningdek, tashqi savdo tariflarini pasaytirish, hujjatlarni rasmiylashtirishning elektron shakliga o'tish kabi islohotlar ham izchil davom ettirilmoqda.

Rasmiy valyuta kursi qiymatining yuqori darajada ma'muriy yo'l bilan sun'iy ushlab turilishi milliy tovar va xizmatlar eksporti rivojining asosiy to'siqlaridan biri edi. Boshqacha aytganda, valyuta bozori erkinlashmagani milliy tovar va xizmatlarning tashqi bozordagi raqobatbardoshligini pasaytirar, eksportda xomashyo hissasi yuqori qolishiga olib kelardi. Endi esa mamlakat eksporti tarkibida noxomashyo tovarlar hissasini oshirish, sohada institutsional qayta qurishlar tufayli import o'rnini bosadigan modeldan eksportga yo'naltirilgan tashqi iqtisodiy modelga o'tilmoqda. Ammo eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish raqobatbardosh mahsulotlarni taqozo qiladi. Bu esa chetdan mashina va asbob-uskunalar, yangi texnika va texnologiya kiritishni talab etadi. Bozor iqtisodiyoti tartibiga ko'ra, tashqaridan kirmasa, tashqariga chiqarib ham bo'lmaydi. Shu o'rinda milliy iqtisodiyotni ikki tomonlama qatnovli katta magistral yo'lga o'xshatish mumkin.

Iqtisodiy hayotning barcha jabhalarini, jumladan, valyuta bozorini liberallashtirish davlatning xalqaro imiji bilan bog'liq katta hodisa. Lekin ular ustidan, shuningdek, emissiya, chet eldan pul ko'chirmalari ustidan qat'iy nazorat o'rnatilmasa, iqtisodiyotning real o'sishi va muomaladagi pul miqdori o'sish sur'atlari o'rtasidagi farq sifatida inflyatsiyani keltirib chiqarishi hech gap emas. Monetar siyosat bilan fiskal siyosatni qo'shib olib borish bunday holatlarning oldini olish imkonini beradi.

Hilola SHARIPOVA,

Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro xususiy huquq kafedrasida dotsenti v.b.,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish va dalillarni asoslash muammolari

Tezkor-qidiruv faoliyati jinoyatlarning oldini olish, aniqlash, bartaraf etish va fosh qilish maqsadida o'tkaziladi. Bu tadbirlar puxta tayyorlanishi va qonunda belgilangan shartlarga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshirilishi talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasi-ning "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonunining 16-moddasida tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish shartlari va huquqiy asoslari belgilangan¹. Ushbu modda qonuniy va samarali tezkor tadbirlar uchun huquqiy asoslarni aks ettiradi.

Tezkor-qidiruv tadbirlari o'tkazishda quyidagi shartlar ham qo'yiladi:

- a) muayyan davlatning chegara hududida o'tkaziladi;
- b) barcha shaxslarga nisbatan qo'llanadi;
- v) faqat tezkor-qidiruv faoliyatining maqsad va vazifalarini hal qilish uchun o'tkaziladi;
- g) fuqarolar hayoti, sog'lig'i, yuridik va jismoniy shaxslarning mulki va atrof-muhit xavfsizligiga zarar yetkazmaydigan vositalardan foydalaniladi.

Tezkor-qidiruv tadbirlari fuqarolar murojaatlari, tezkor ma'lumotlar, tegishli organlar tomonidan to'plangan hujjatlar yoki boshqa ma'lumotlar asosida o'tkaziladi.

Tadbirlar qonunchilik talablariga ko'ra uch guruhga bo'linadi:

- ruxsat talab qilinmaydigan tadbirlar;
- tezkor-qidiruv organi rahbarining qarori va prokuror sanksiyasi asosida o'tkaziladigan tadbirlar;
- prokuror sanksiyasi bilan o'tkaziladigan tadbirlar.

Tezkor-qidiruv faoliyatining asosiy vazifalari jinoyatlarni aniqlash, oldini olish, fosh qilish, shuningdek, ularni tayyorlayotgan, sodir etayotgan yoki sodir etgan shaxslarni aniqlashdir.

"Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonunning 14-moddasida tezkor-qidiruv tadbirlarining 16 turi belgilangan. Ulardan tekshirish uchun xarid qilish, nazorat ostida olish, tezkor kuzatuv, tezkor kiritish, O'zbekiston ichida amalga oshiriladigan nazorat ostida yetkazib berish, niqoblangan operatsiyalar va tezkor eksperiment organ rahbari tomonidan tasdiqlangan qaror asosida o'tkaziladi. Tekshirish uchun xarid qilish, nazorat ostida olish va nazorat ostida yetkazib berish faqat prokuror bilan kelishilgan holda amalga oshirilganda

Jinoyat-protsessual kodeksining 81-moddasiga asosan dalil sifatida e'tirof etilishi mumkin².

Prokuror tezkor-qidiruv tadbiri natijasida taqdim etilgan materiallarni ko'rib chiqadi va tadbirni o'tkazishga sanksiya beradi yoki asosli ravishda rad etib, qarorda buni ko'rsatadi. Agar prokuror tadbirni o'tkazishga sanksiya berishni rad etsa, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organ yuqori turuvchi prokurorga shikoyat qilish huquqiga ega.

"Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonunning 27-moddasiga ko'ra, Bosh prokuror va unga bo'ysunuvchi prokurorlar tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi hamda taqdim etilgan hujjatlar va materiallardagi

¹ lex.uz/docs/-2107763.

² https://lex.uz/docs/111460.

ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlaydi.

Masalan, tezkoreksperiment, ya'ni g'ayrihuquqiy qilmish sodir etgan yoki unga tayyorgarlik ko'rayotgan shaxslarni fosh qilish va aniqlash maqsadida tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organ tomonidan to'liq boshqariladigan va nazorat qilinadigan sharoitni, muayyan hodisani qayta tiklash orqali sun'iy ravishda vujudga keltiriladigan tadbir hisoblanadi. Bu tadbir korrupsiyaviy jinoyatlarni fosh qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning asosiy vositalaridan biridir.

Agar tezkor-qidiruv tadbiri davomida O'zbekiston Jinoyat-protsessual kodeksining 91 va 92-moddalarida belgilangan talablarga rioya qilinmasa, protsessual hujjatlar to'g'ri va qonuniy rasmiylashtirilmasa yoki ashyoviy dalillar olinmasa, tadbir va unda to'plangan dalillar kodeks talablariga ko'ra nomaqbul hisoblanadi. Bu esa jinoyatning fosh qilinishi gumon qilinuvchining aybini isbotlashni istisno qilib, jinoyat ishining tugatilishiga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 28-moddasiga ko'ra, jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo'li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi. Jinoyat-protsessual kodeksining 22-moddasiga ko'ra, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud jinoyat yuz berganligini, unda kim aybdorligini va boshqa holatlarni aniqlashi shart. Ish bo'yicha haqiqatni aniqlash

Prokuror tezkor-qidiruv tadbiri natijasida taqdim etilgan materiallarni ko'rib chiqadi va tadbirni o'tkazishga sanksiya beradi yoki asosli ravishda rad etib, qarorda buni ko'rsatadi. Agar prokuror tadbirni o'tkazishga sanksiya berishni rad etsa, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organ yuqori turuvchi prokurorga shikoyat qilish huquqiga ega.

uchun faqat qonunda belgilangan tartibda topilgan, tekshirilgan va baholangan ma'lumotlar dalil sifatida ishlatiladi. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi, guvoh va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslardan ularning huquqlarini cheklash yoki qonunga xilof choralar bilan ko'rsatuvlar olish man etiladi. Ishdagi barcha holatlar sinchkovlik bilan, har tomonlama, to'liq va xolisona tekshirilishi, dalillarni to'plashda ruxsat etilmagan usullar qo'llanilgani haqidagi murojaatlar majburiy tekshirilishi kerak.

Bundan ko'rinadiki, tezkor-qidiruv faoliyati natijasida to'plangan ashyolar va hujjatlarni dalil sifatida e'tirof etishda ularning aloqadorligi, maqbul-ligi, ishonchliligi, ahamiyatliligi va yetarliligini ta'minlashning ilg'or tajribasini o'rganish va tahlil qilish vazifasi bugun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanishning asosiy sababi jinoyat belgilari haqidagi dastlabki ma'lumotlarni aniqlash va tekshirish, taqqoslash uchun namunalarni to'plash, jinoyiy faoliyat bilan shug'ullanayotgan shaxslarni aniqlash va qayd etish, jinoyat sodir etgan shaxslarni aniqlashdir.

Bir qator tezkor-qidiruv tadbirlarida qo'lga kiritilgan dastlabki ma'lumotlar jinoyat ishi bo'yicha dalillarni to'plash va tekshirishga qaratilgan kelgusidagi tergov harakatlarini to'g'ri tanlashda yo'naltiruvchi vazifani bajaradi.

Tezkor-qidiruv tadbirlarining natijalaridan jinoyat ishlari bo'yicha dalil sifatida foydalanish qiyinchiliklar tug'diradi, chunki tadbirning yashirin xususiyatini saqlagan holda uning natijalarini izohlash va tezkor ma'lumotni dalilga aylantirish usullarini topish kerak bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, prokurorning tezkor-qidiruv faoliyati us-tidan nazorat qilish vakolatlari doirasidagi qonuniy talablarining bajarilmasligi qonunlarda belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi. Shu bilan birga, o'tkazilgan tezkor-qidiruv faoliyati davomida olingan ashyolar va hujjatlar dalil sifatida e'tirof etilmasligi jinoyat ishlarini tergov qilish va sud muhokamasida ayblov masalasini isbot qilishning asosiy omili hisoblanmaydi.

Bekzod YAKUBOV,
jinoyat ishlari bo'yicha
Bog'ot tumani sudi raisi

Huquqbuzarliklarning oldini olishda

prokuratura va ichki ishlar organlarining o'рни

Mamlakatimizda xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini oshirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Xususan, 2025-yilning 3-yanvarida O'zbekiston Prezidentining "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 1-qarori qabul qilindi¹.

Mazkur qaror bilan O'zbekistonning "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonuni hamda Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi bilan belgilangan mas'ul idoralar va muassasalar uchun 2025-yilda "Har bir mahallada huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish" ustuvor vazifa etib belgilandi va quyidagi ishlash mexanizmlari joriy etildi:

- 2024-yilda jinoyat sodir etilgan har bir mahallada kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish hamda jinoyatlarni barvaqt profilaktika qilishning mahallalar kesimida choraklik manzilli chora-tadbirlarini belgilagan holda mahalla – tuman – viloyat darajasida uning ijrosi uchun bevosita mas'ul rahbarlarni biriktirish va aniq sohaviy javobgarlikni yuklash;

- kriminogen vaziyat og'ir mahallalarda ilmiy-amaliy yondashuvlar asosida joylarga chiqqan holda maqsadli o'rganishlarni o'tkazish orqali huquqbuzarliklarga sabab bo'layotgan asl omillarni aniqlash va barham berish bo'yicha tashkiliy-huquqiy choralarni ko'rish;

- mahallalarda yoshlar, ayollar va ishsizlar tomonidan, shuningdek, oila-turmush munosa-

batlari doirasida sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olishda "mahalla yettiligi" har bir vakili-ning aniq mas'uliyatini belgilash, ushbu toifadagi huquqbuzarliklar profilaktikasiga yangicha ish uslublarini tatbiq qilish;

- aholining huquqiy ongi, ijtimoiy faolligi va fuqarolik mas'uliyatini oshirish, jinoyat sodir etilishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan ijtimoiy muammolarni hal etishga jamoatchilik vakillari, nuroniylar va mahalla faollarini keng jalb etib borish;

- mahallalar jamoat joylari va yashash xonadonlarida xavfsiz muhit yaratish, fuqarolar hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga har qanday tajovuzlarning oldini olish maqsadida huquqbuzarliklar profilaktikasiga zamonaviy raqamli texnologiyalar va texnik vositalarni keng joriy etish;

- mahallalarda jinoyatchilikning barvaqt oldini olish bo'yicha har bir mas'ul idora va muassasa tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning natijalari yuzasidan qat'iy so'rov tizimini yo'lga qo'yish hamda ushbu masalaga mas'uliyatsizlik bilan yondashgan rahbarlarga ta'sir choralarni ko'rib borish.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 3 январдаги "2025 йилда республика маҳаллаларида хавфсиз муҳитни яратиш ва ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш тизими самарадорлигини янада ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида"ги 1-қарори. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 20.08.2025 й., 07/25/253/0752-сон <https://lex.uz/docs/7330260>.

Yuqoridagilardan tashqari, mazkur qaror bilan “Kriminogen vaziyati murakkab mahallalarda jinoyatlarning oldini olish bo'yicha manzilli choralar konsepsiyasi” hamda “Kriminogen vaziyati murakkab va og'ir mahallalarda “namunali xavfsiz ko'cha” va “namunali xavfsiz uy” tashkil etish bo'yicha namunaviy talablar” tasdiqlandi.

“Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”gi qonunning 2-bobida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda muassasalar, ularning vakolatlari mustahkamlangan². Unga ko'ra, huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalar tizimiga ichki ishlar, prokuratura, Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, adliya va mehnat organlari, bojxona va soliq xizmatlari, ta'limni davlat tomonidan boshqarish organlari va ta'lim muassasalari, davlat sog'liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi organlari hamda Yoshlar ishlari agentligi va uning hududiy bo'linmalarini kiritish mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan vakolatli idoralar orasida huquqni muhofaza qilish organlari alohida ahamiyatga ega. Ularning jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatini zamon talablari asosida yo'lga qo'yish, vazifa va funksiyalarini aniq belgi-

lab taqsimlash hamda jamoat tartibini saqlashdagi rolini kuchaytirish ushbu sohadagi asosiy yo'nalishlardan biridir.

Prokuratura organlari huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalar tizimida muhim o'rin tutadi. Xususan, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”gi qonunda prokuratura organlariga huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish hamda huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning faoliyatini muvofiqlashtirib borish kabi bir qator vakolatlar berilgan. Ushbu vakolatlar “Prokuratura to'g'risida”gi qonunning 2-8-moddalaridan o'rin olgan normalar bilan hamohangdir³. Mazkur norma va vazifalarning ijrosi nuqtayi nazaridan O'zbekiston Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi qarori bilan tasdiqlangan Mahallalarda huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasi borasidagi ishlarni kompleks tashkil etish hamda dastur, konsepsiya va hududiy “yo'l xaritalari”ning ijrosini tizimli nazorat qilib borish maqsadida Bosh prokuratura huzurida 2025-yil mobaynida doimiy faoliyat ko'rsatuvchi Respublika idoralaro muvofiqlashtirish guruhi tuzildi.

Shuningdek, ushbu qaror bilan Ichki ishlar vazirligi va Bosh prokuraturaning quyidagi takliflari ma'qullandi:

a) viloyatlar markazlari va kriminogen vaziyat og'ir tuman (shahar)lar mahallalarida xizmat olib boruvchi ichki ishlar organlari profilaktika kichik inspektori lavozimini kiritish hamda uning zimmasiga quyidagi asosiy vazifalarni yuklash:

- mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan fuqarolar, maktab bitiruvchilari hamda talabalar bilan ijtimoiy profilaktika choralari doirasida manzilli ishlarni amalga oshirish;
- mahallalar hududida sodir etiladigan ayrim turdagi ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha belgilangan tartibda bayonnomalar tuzish;

b) ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari tarkibida quyidagi tuzilma-

O'zbekiston Prezidentining 2024-yil 15-yanvardagi “Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 10-farmoni bilan O'zbekiston Kriminologiya tadqiqot instituti tashkil etildi.

² Ўзбекистон Республикасининг “Хуқуқбۇзарликлар профилактикаси тўғрисида”ги қонуни. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 12.04.2023 й., 03/23/829/0208-сон. <https://lex.uz/acts/2387357>.

³ Ўзбекистон Республикасининг “Прокуратура тўғрисида”ги қонуни. <https://www.lex.uz/acts/106197>.

larni tashkil etish hamda manzilli faoliyatini yo'lga qo'yish:

- mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan fuqarolar orasida jinoyatchilikning barvaqt oldini olish bo'yicha manzilli ishlarni tashkil etish, mahalla profilaktika inspektorlarining bu boradagi faoliyatini muvofiqlashtirish hamda aniqlangan muammolarni mas'ul idoralar bilan hamkorlikda bartaraf etish choralari ko'ruvchi migratsion profilaktika bo'linmalarini;

- mahalla profilaktika inspektorlari tomonidan aniqlangan ma'muriy huquqbuzarliklar uchun ma'muriy qamoqqa olish jazosi qo'llangan shaxslarni maxsus qabulxonalarga olib boruvchi tumanlararo ma'muriy konvoy guruhlarini tashkil etish.

Umuman olganda mamlakatimizda huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasi samaradorligini oshirish maqsadida tizimli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bunga misol sifatida O'zbekiston Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi 5050-qaroriga ko'ra mahallabay asosdagi ichki ishlar organlarining eng quyi tarkibiy tuzilmasi – Mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyati yo'lga qo'yilganini ham qayd etish lozim⁴. Xususan, O'zbekiston Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda gi "O'zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo'lga qo'yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 402-qarori bilan ushbu yo'nalishdagi ishlar yangi bosqichga olib chiqildi. Xususan, mazkur qaror bilan tarkibida profilaktika inspektorlarini ham qamrab olgan "mahalla yettiligi" tashkil etildi. Yuqoridagi qaror bilan tasdiqlangan O'zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo'lga qo'yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"da mahallalarda sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish asosiy vazifalar qatoriga kiritildi⁵.

Shu bilan birga probatsiya va profilaktika chora-tadbirlarini kuchaytirish yuzasidan ham ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Prezidentining 2024-yil

"Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunda prokuratura organlariga huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish hamda huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning faoliyatini muvofiqlashtirib borish kabi bir qator vakolatlar berilgan.

15-yanvardagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 10-farmoni bilan O'zbekiston Kriminologiya tadqiqot instituti tashkil etildi. Mazkur institutning asosiy vazifalari sifatida respublikadagi kriminogen vaziyatga oid chuqur tadqiqotlarni amalga oshirish, jinoyatchilik tendensiyalarini tizimli tahlil va prognoz qilish, jamoatchilik o'rtasida shov-shuvga sabab bo'lgan jinoyatlarning omillarini aniqlab, ularni bartaraf etish choralari ishlab chiqishda surishtiruv va dastlabki tergov organlariga uslubiy ko'maklashish hamda kriminologiya sohasi bo'yicha mustaqil izlanuvchilik shaklida oliy malakali ilmiy kadrlarni tayyorlashni qayd etish lozim.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlar imkoniyatlarini to'liq ishga solishi lozim. Bu jarayonlar har bir vakolatli organning mas'uliyatini oshirishga hamda hamkorligini samarali tashkil etishga xizmat qilishi zarur.

Ulugbek ASHUROV,

Bosh prokuratura boshqarma boshlig'i,
adliya katta maslahatchisi,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

⁴ Ўзбекистон Президентининг "Ички ишлар органларининг жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасидаги фаолиятини янада такомиллаштириш бўйича қўшимча ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида"ги 02.04.2021 йилдаги 5050-қарори. <https://lex.uz/docs/5353841>.

⁵ Ўзбекистон Президентининг 2023 йил 21 декабрдаги "Ўзбекистон маҳаллалари уюшмаси фаолиятини йўлга қўйиш ва маҳаллаларда бoshqaruv тизimini такомиллаштиришга oid қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги 402-қарори. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 25.12.2023 й., 07/23/402/0967-сон. <https://lex.uz/docs/6705734>.

Prokuratura organlarining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi vazifalari

So'nggi yillarda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga yo'naltirilgan tizimli choralar ko'rildi. Mazkur ustuvor vazifalarning natijasini statistik ma'lumotlar ko'rsatib turibdi.

“So'nggi yillarda mamlakatimiz “Transparency International” indeksida 42 pog'onaga ko'tarildi va bu borada mintaqamizda eng yuqori o'rinni egallamoqda. 2030-yilga qadar mazkur reytingdagi o'rnimizni yana 50 pog'onaga yaxshilash maqsadini ko'zlaganmiz. “Open Data Inventory” reytingida esa joriy yilda 30-o'ringa ko'tarildik. Ochiq ma'lumotlar manbalari bo'yicha O'zbekiston dunyoda 4-o'rindan joy olgan”¹.

Mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning oldini olish singari vazifalar yuzasidan prokuratura organlari tomonidan nazoratdagi obyektlarda qonun hujjatlarining ijrosini ta'minlash, huquqbuzarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini vaqtida aniqlash hamda bartaraf etish, jamiyatda qonuniylikni mustahkamlash choralari ko'rilmogda². O'zbekiston Konstitutsiyasining 143-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xil bajarilishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi³.

Bugungi kungacha mamlakatimizda davlat nazoratining bir necha turi shakllangan bo'lib, bular ichida prokuror nazorati alohida ahamiyatga ega. O'zbekistonning “Korrupsiyaga qarshi kurashish

to'g'risida”gi qonunida prokuratura organining vakolatlariga alohida to'xtalib o'tilgan.

Xususan, O'zbekiston Bosh prokuraturasi:

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;
- korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikning aniq va bir xil ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;
- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi tez-kor-qidiruv faoliyatini, tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiruvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiradi;
- korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar bo'yicha dastlabki tergovni amalga oshiradi;
- korrupsiyaning holati va korrupsiyaga qarshi kurashish natijalari to'g'risidagi axborotni yig'ish hamda tahlil qilishni amalga oshiradi;
- jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarini ko'rib chiqadi hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish choralari ko'radi;
- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonun ijodkorligi faoliyatida, shu jumladan qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirishda ishtirok etadi;

¹ Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Коррупцияга қарши курашиш соҳасида юксак халқаро мукофотни топшириш маросимидаги нутқи // <https://president.uz/uz/lists/view/6934>.

² Маждидов Ш. “Прокуратура органлари томонидан қонунлар ижроси устидан нazoratни амалга оширишда коррупцияга қарши экспертиза: назария ва амалиёт масалалари” мавзусидаги магистрлик диссертацияси. Ўзбекистон Бosh прокуратураси академияси. Тошкент-2022 й. 40-б.

³ Ўзбекистон Конституцияси. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон. <https://lex.uz/docs/6445145>.

- aholi o'rtasida jamiyatda huquqiy ongini, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga va qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy targ'ibotga doir faoliyatda ishtirok etadi;

- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning o'z vaqtida oldi olinishini, aniqlanishini va ularga chek qo'yilishini ta'minlashga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir tadbirlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi⁴.

Ta'kidlash joizki, prokuratura organlari faoliyatining asosiy prinsiplari – qonuniylik, mustaqillik va oshkorlik korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish va ularni bartaraf etishda alohida ahamiyatga ega. Zero, ushbu tamoyillar korrupsiyaga qarshi kurashishning muhim asosiy prinsiplari bo'lgan qonuniylik, ochiqlik va shaffoflik bilan o'zaro uyg'unlikda namoyon bo'ladi.

Yuqoridagi prinsiplar asosida korrupsiyaning oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan choralarni amalga oshirishda prokuratura organlarining boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorligi muhim o'rin egallaydi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Biz har qaysi huquqni muhofaza qilish organi bevosita o'z vakolati doirasidan chiqmaydigan, bir-birining funksiyasini takror etmaydigan tizim shakllantirishimiz shart. Lo'nda qilib aytganda, ichki ishlar – jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash bilan, milliy xavfsizlik – davlatni ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish bilan shug'ullanishi lozim. Prokuratura esa qonunlar ijrosi us-tidan nazorat olib borishi zarur. Sudlarning asosiy vazifasi adolatni qaror toptirishdan iborat. Buning uchun sud har bir ish yuzasidan qonuniy, asosli va

adolatli qaror chiqarishi lozim"⁵ deb ta'kidlagan edi. So'nggi yillarda prokuratura organlarining bu yo'nalishdagi vakolatlari kengaytirildi.

Ta'kidlash kerakki, mazkur hamkorlik nafaqat davlat organlari, balki keng jamoatchilikka ham taalluqli hisoblanadi. Xususan, O'zbekiston Bosh prokuraturasi 2021-yil 6-dekabrda aholiga qilgan murojaatida mamlakatimizning har bir fuqarosini jamiyatda, xususan prokuratura organlarida korrupsiyani tag-tomiri bilan bartaraf etishda faol hamkorlikka chaqirganini qayd etish lozim⁶.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, jamoatchilik nazoratini olib borishni qo'llab-quvvatlashga oid masalalar sohaga doir hujjatlarning ustuvor maqsadlaridan biriga aylangan. O'zbekiston Prezidentining 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5729-farmoni bilan tasdiqlangan "2019–2020-yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi"da korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy tizimlar samaradorligini oshirish, shu jumladan, davlat organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy koordinatorlarning o'zaro hamkorligini ta'minlashga doir vazifa Bosh prokuraturaga yuklatilgan.

Fikrimizcha, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish jarayonida prokuratura organlarining boshqa davlat idoralari bilan hamkorligi yetarli darajada yo'lga qo'yilgan. Shu bilan birga korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar faqatgina davlat organlarining emas, balki butun jamiyat a'zolarining hamkorlikdagi sa'y-harakatlarini ham qamrab olmoqda.

Doston XONNIYOZOV,

Zangiota tumani
prokuraturasi katta tergovchisi,
Huquqni muhofaza
qilish akademiyasi magistri

⁴ Ўзбекистон Республикасининг "Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида"ги қонуни. // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 26.02.2025 й., 03/25/1038/0188-сон. // <https://www.lex.uz/acts/3088008>

⁵ Ш.М. Мирзиёев. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. –Тошкент.

"Ўзбекистон". – 2018. 110-б.

⁶ Бosh прокуратура аҳолига мурожаат билан чиқди. <https://xs.uz/uzkr/post/bosh-prokuratura-aholiga-murozhaat-bilan-chiqdi-2>.

Advokat stajyorining tayyorlanishida rahbarning roli

Stajirovkaning asosiy vazifasi advokat maqomini olishga talabgor shaxsni kasbiy faoliyatga tayyorlash bo'lib, u nazariy bilimlarni chuqurlashtirish, amaliy tajribani boyitish va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Stajirovka talabgorning huquqiy bilimlarini mustahkamlash, amaliyotda qo'llash qobiliyatini rivojlantirish, kasbiy mas'uliyatini oshirish va advokatlik etikasiga rioya qilishga tayyorlash jarayoni sifatida namoyon bo'ladi.

Stajirovkani samarali tashkil etish uchun rahbar sifatida yuqori kasbiy bilim va tajribaga ega, "kamida uch yillik kasbiy ish staji"ga ega advokat tayinlanadi. Bu yondashuv stajyorning nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirishini va advokatlikning axloqiy talablariga mos tayyorlanishini ta'minlaydi. Stajirovka rahbarining roli advokat maqomini olish jarayonida muhim ahamiyatga ega, shuning uchun uning faoliyati va unga qo'yiladigan talablarni o'rganish ilmiy-amaliy jihatdan dolzarbdir.

"Advokatura to'g'risida"gi qonunning 8¹-moddasi¹ va Adliya vazirining 2024-yil 3-iyundagi 10-mh-son buyrug'i bilan tasdiqlangan nizomda² stajirovka rahbarining maqomi, vakolatlari va mas'uliyati huquqiy jihatdan mustahkamlangan. Ushbu talablar stajyorning yetarli malaka va tajribaga ega rahbar nazoratida kasbiy rivojlanishini ta'minlaydi, bu esa advokat kadrlar tayyorlash tizimida sifat va samaradorlikni oshiradi.

Biroq "kamida uch yillik staj" tushunchasi qonunchilikda aniq izohlanmagan, ya'ni u advokat sifatida mustaqil faoliyatni yoki umumiy yuridik ish stajini qamrab oladimi degan savol ochiq qolmoqda. Bu noaniqlik amaliyotda turli talqinlarga va huquqni qo'llashda bir xillikning buzilishiga olib kelmoqda. Shu sababli ushbu staj faqat advokat

sifatida mustaqil faoliyat davri sifatida qonunda aniq belgilanmog'i kerak. Bu normativ-huquqiy aniqlikni ta'minlaydi va advokatlik institutining professional salohiyatini oshiradi.

Bundan tashqari, qonunchilikda rahbar-advokatning bir vaqtning o'zida nechta stajyor qabul qilishi mumkinligi aniq belgilanmagan. Bu holat turlicha yondashuvlarga sabab bo'lib, ortiqcha stajyor biriktirilishi individual e'tibor va stajirovka sifatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu munosabat bilan bir rahbarga biriktiriladigan stajyorlar sonini qonuniy cheklash zarur.

Yana bir muammo – stajirovka rahbarining javobgarligi masalasi. Amaldagi qonunchilikda stajyorning tayyorgarlik darajasi yoki kamchiliklari uchun rahbarning intizomiy javobgarligi yoki muvaffaqiyatli stajirovka uchun rag'batlantirish tartibi aniq emas. Bu huquqiy bo'shliqni bartaraf etish stajyor tayyorlash sifatini va rahbarlarning mas'uliyatini oshiradi.

MDH davlatlari tajribasida, agar stajyor malaka imtihonini muvaffaqiyatli topshirsa, rahbar rag'batlantiriladi, aks holda u ikki yilgacha yangi stajyor qabul qilish huquqidan mahrum bo'lishi mumkin. Bu tartib rahbarlarning mas'uliyatini oshiradi va stajyor tayyorlashga jiddiy yondashuvni shakllantiradi. Ushbu tajribani O'zbekiston

¹ lex.uz/ru/docs/-54503.

² ex.uz/acts/-6951674.

qonunchiligiga joriy etish rahbarlarning faol ishtirokini mustahkamlab, stajyorlarning stajirovka-ni advokatlik faoliyatiga tayyorgarlikning muhim bosqichi sifatida qabul qilishiga turtki beradi.

Litva Respublikasi qonunchiligida stajirovka rahbarlari uchun talablar aniq va qat'iy: rahbar advokat belgilangan muddat davomida faoliyat yuritgan, amaliyotchi advokatlar ro'yxatiga kiritilgan va hech qachon intizomiy jazoga, hatto ogohlantirishga ham duchor bo'lmagan bo'lishi shart³. Ushbu tajribani O'zbekiston qonunchiligiga joriy etish kadrlar tayyorlashni takomillashtiradi va yuridik xizmatlarning professional darajasini yaxshilaydi.

Moldova Respublikasi qonunchiligida rahbar advokat minimal advokatlik stajiga, stajyor uchun zarur ish joyiga va benuqson kasbiy obro'ga ega bo'lishi lozim⁴. Bir advokat bir vaqtning o'zida ikki nafardan ortiq stajyor qabul qila olmaydi, bu esa sifatli tayyorgarlik va kasbiy yo'naltirishni ta'minlaydi.

Rossiya Federatsiyasining "Rossiya Federatsiyasida advokatlik faoliyati va advokatura to'g'risida"gi qonunining 28-moddasiga ko'ra, "besh yillik advokatlik ish tajribasiga ega bo'lgan advokatning stajyorlarga ega bo'lish huquqi mavjud"⁵. Staj faqat advokatlik faoliyatini qamrab oladi, maqomi to'xtatilgan davr hisobga olinmaydi. Bu aniqlik

O'zbekistonda "uch yillik staj" tushunchasining noaniqligini bartaraf etish uchun muhimdir.

Ozozg'iston Respublikasi qonunchiligida stajirovka besh yillik advokatlik tajribasiga ega rahbar nazoratida amalga oshiriladi⁶, bu Rossiya modeliga o'xshash. Armaniston qonunchiligida esa besh yil yoki undan ortiq tajribaga ega advokat bir nechta stajyorga rahbarlik qilishi mumkin.

Belarus Respublikasi qonunchiligida rahbar besh yillik advokatlik tajribasiga ega bo'lishi va faqat bitta stajyor qabul qilishi kerak. Agar stajyor malaka imtihonidan o'ta olmasa, rahbar ikki yilgacha yangi stajyor qabul qilish huquqidan mahrum bo'lishi mumkin. Bu rahbarning mas'uliyatini oshiradi.

Turkmaniston Respublikasi qonunchiligida ham rahbar uchun besh yillik advokatlik tajribasi talab qilinadi. Ukraina qonunchiligida esa rahbar besh yillik tajribaga ega bo'lib, uch nafardan ortiq stajyor qabul qila olmaydi. Ukrainada rahbarlar hududiy asosda tayinlanadi, bu stajyorning muhitiga moslashishini osonlashtiradi. Bundan tashqari, rahbarlar maxsus reyestrda kiritiladi.

Litvada "advokat stajyori" o'rniga "advokat yordamchisi" tushunchasi qo'llanadi⁷, Polsha va Xorvatiyada esa advokatlar va stajyorlar haqida ochiq ro'yxatlar yuritiladi, bu shaffoflikni ta'minlaydi.

TAKLIFLAR

1. Staj talabini aniqlashtirish: "Uch yillik staj" faqat advokatlik faoliyatini (sudlar, tergov va yuridik amaliyotlar) qamrab olishi qonunda aniq belgilanmog'i kerak.

2. Stajyorlar sonini cheklash: Belarus tajribasiga asoslanib, bir rahbar faqat bitta stajyorga rahbarlik qilishi kerak. Ukraina modeliga ko'ra, uch stajyorgacha cheklov ham oqilona.

3. Javobgarlik mexanizmlari: Belarus tajribasiga ko'ra, stajyor imtihondan o'ta olmagan taqdirda rahbar ikki yilgacha yangi stajyor qabul qilish huquqidan mahrum etilishi lozim.

4. Hududiy tayinlash va reyestr: Ukraina tajribasiga asoslanib, rahbarlarni hududiy asosda tayinlash va maxsus reyestr yuritish joriy etilishi kerak.

³ <https://e-seimas.lrs.lt/portal/legalAct/lt/TAD/b4a99200249f11e58a4198cd62929b7a?jfwid=nq76mm5v>.

⁴ www.legis.md/cautare/getResults?doc_id=126609&lang=ru.

⁵ https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_36945/687e241a016c6f0e9b7d70595a06052dcff5a769/.

⁶ adilet.zan.kz/rus/docs/Z1800000176.

⁷ e-seimas.lrs.lt/rs/legalact/TAD/TAIS.450539.

Ushbu takliflar O'zbekiston advokatura tizimi-da huquqiy aniqlik, sifat va mas'uliyatni oshiradi, yuridik xizmatlar sifatini yaxshilaydi.

Fikrimizcha, Advokat stajyorlari reyestrini milliy qonunchilikka kiritish Advokatlar palatasida aniq ma'lumotlar bo'lishini ta'minlaydi, qog'ozbozlikni kamaytiradi, yosh mutaxassislarining rahbar tanlash imkoniyatini kengaytiradi va tadqiqotchilar tomonidan holatlarni chuqur o'rganishga yordam beradi. Bu masala bo'yicha tadqiqotchilardan biri A. Matmurotov bo'lib, u o'z ishlarida stajyorlar reyestrini joriy etish zaruratini asoslab bergan.

Shu munosabat bilan advokat stajyori va yordamchisining faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom O'zbekiston Advokatlar palatasi tomonidan Advokat stajyorlari reyestrini shakllantirish va yuritish tartibi haqidagi norma bilan to'ldirilishi zarur.

Mazkur tahlillardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi qonunini "8²-modda. Advokat stajyorining stajirovka rahbari" deb nomlangan alohida moddasi bilan to'ldirish taklif etiladi.

Ushbu normada quyidagi asosiy jihatlar mustahkamlanishi lozim:

- stajirovka rahbari faqat Advokatlar palatasi tomonidan yuritiladigan Stajirovka rahbarlari reyestriga kiritilgan advokat bo'lishi mumkinligi;
- bir advokatda bir vaqtning o'zida nechta stajyorga rahbarlik qilish huquqi borligi Advokatlar palatasi tomonidan belgilanishi;
- stajyor stajirovkani muvaffaqiyatli yakunlagani haqida ijobiy xulosa olgan bo'lsa-da, malaka imtihonidan o'tolmagan taqdirda, rahbar advokat Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi qaroriga asosan bir yilgacha Stajirovka rahbarlari reyestridan chiqarilishi mumkinligi;
- stajirovka rahbarlari Advokatlar palatasi ustavida ko'zda tutilgan ishlarni bajarganliklari uchun moddiy rag'batlantirilishi mumkinligi;
- Stajirovka rahbarlari reyestrini yuritish tartibi Advokatlar palatasi tomonidan belgilanishi va tasdiqlanishi.

Ikkinchidan, stajirovka rahbarlari institutini huquqiy jihatdan mustahkamlashda ushbu lavozimga nomzod advokatlarga qo'yiladigan aniq va asosli talablarni belgilash muhim ahamiyatga ega.

Stajyorlarning kasbiy shakllanishi bevosita rahbar sifatida tayinlanadigan advokatning malakasi, obro'-e'tibori va mas'uliyatiga bog'liq bo'lganligi sababli Stajirovka rahbarlari reyestriga faqat quyidagi talablarga javob beradigan advokatlar kiritilishi lozim:

- benuqson obro'-e'tiborga ega bo'lishi, ya'ni kasbiy faoliyati davomida advokatlik sha'niga zid xatti-harakatlarga yo'l qo'ymagan;
- stajirovka rahbari sifatida tayinlanayotgan vaqtda unga nisbatan intizomiy jazo chorasi qo'llanmagan;
- advokatlik bilan qonunchilikda belgilangan minimal muddat davomida (masalan, kamida besh yil) shug'ullangan;
- Stajirovka rahbarlari reyestriga belgilangan tartibda rasman kiritilgan;
- stajyor bilan samarali faoliyat olib borish uchun zarur ish sharoitlari va joy bilan ta'minlangan.

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, yuqorida bayon etilgan takliflarni milliy advokatura qonunchiligiga implementatsiya qilish, bir tomondan, malakali va raqobatbardosh advokatlar tayyorlashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, advokatura instituti nazariyasining yanada rivojlanishi hamda uning amaliy-huquqiy asoslarining mustahkamlanishiga zamin yaratadi.

Bunday islohotlar natijasida advokatlik faoliyatining samaradorligi ortib, jamiyat va fuqarolarning huquqiy manfaatlarini himoya qilish tizimi sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tariladi.

Fazliddin ZARIPOV,

Toshkent davlat yuridik universitetining
mustaqil izlanuvchisi

Xorijiy mamlakatlarda raqamli vakillik

Hayotimiz davomida turli sohalarda “vakil” tushunchasiga duch kelamiz. Umumiy ma’noda vakil – boshqa shaxs yoki tashkilot nomidan rasmiy tarzda soʻzlaydigan, harakat qiladigan hamda ularning huquq va majburiyatlaridan toʻliq yoki qisman foydalanish vakolatiga ega boʻlgan shaxsdir. Huquq sohasida ham ushbu tushuncha muhim oʻrin tutadi.

Fuqarolik protsessual kodeksining 7-bobi “Sudda vakillik” haqida boʻlib, unga koʻra sud-da qonuniy va ixtiyoriy vakillar mavjud boʻladi. Qonuniy vakillik – muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan shaxslarning huquqlari va qonun bilan qoʻriqlanadigan manfaatlarini sudda ularning qonuniy vakillari (ota-onalari, ularni farzandlikka olganlar, vasiylar, homiylar) himoya qiladi¹. Ixtiyoriy vakillik – ishonch bildiruvchi oʻz huquqlari va qonun bilan qoʻriqlanadigan manfaatlarini himoya qilish boʻyicha sudda ish yuritishni shartnoma boʻyicha (ixtiyoriy) vakilga topshiradi. Quyidagilar shartnoma boʻyicha (ixtiyoriy) vakil boʻlishi mumkin: advokatlar, qarindoshlar va boshqalar². Shu bilan birga, hozirgi texnologiyalar asrida “raqamli vakillik” tushunchasi ham paydo boʻldi.

Raqamli vakillik – bu inson yoki tashkilot nomidan raqamli muhitda, ya’ni sun’iy intellekt orqali rasmiy tarzda harakat qiladigan tizim yoki algoritmi anglatadi. “Raqamli Oʻzbekiston – 2030” strategiyasida mamlakat miqyosida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish hamda barcha tarmoqlar va sohalarda, xususan davlat boshqaruvi, ta’lim, sogʻliqni saqlash va qishloq xoʻjaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish ustuvor vazifa

sifatida belgilangan. Mazkur strategiya doirasida elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari mahalliy bozorini rivojlantirish, barcha hududlarda IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohaga malakali kadrlarni jalb qilishni nazarda tutuvchi 220 dan ortiq loyihalarni amalga oshirish boshlangan.

Bundan tashqari, 40 dan ortiq axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan geoportalni ishga tushirish, jamoat transporti va kommunal infratuzilmani boshqarishning yagona axborot tizimini yaratish, ijtimoiy sohani raqamlashtirish va ushbu tajribani boshqa hududlarda keng joriy etishni oʻz ichiga oluvchi “Raqamli Toshkent” kompleks dasturi izchil tatbiq etilmoqda.

Shu oʻrinda elektron hukumat institutini alohida ta’kidlash lozim. U raqamli vakillikning amaliy namunasi va davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida e’tirof etiladi.

Elektron hukumat – davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qoʻllash yoʻli bilan davlat xizmatlari koʻrsatishga doir faoliyatini, shuningdek idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta’minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimi.

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi, 01.04.2018, 66-moddasi.

² Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi, 01.04.2018, 67-moddasi.

Elektron hukumatning asosiy vazifalari quyidagicha:

- davlat organlari faoliyatining samaradorligini, tezkorligini va shaffofligini ta'minlash, ularning mas'uliyati va ijro intizomini kuchaytirish, aholi va tadbirkorlik subyektlari bilan axborot almashishni ta'minlashning qo'shimcha mexanizmlarini yaratish;
- ariza beruvchilar uchun mamlakatning butun hududida davlat organlari bilan o'zaro munosabatlarni elektron hukumat doirasida amalga oshirish bo'yicha imkoniyatlar yaratish;
- o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar doirasida davlat organlarining ma'lumotlar bazalarini, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini va Elektron davlat xizmatlarining yagona reyestrini shakllantirish;
- aholi va tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda elektron hujjat aylanishi, davlat organlarining hamkorligi va ularning ma'lumotlar bazalari o'rtasida axborot almashinuvi mexanizmlarini shakllantirish hisobiga davlat boshqaruvi tizimida "bir darcha" prinsipini joriy etish;
- tadbirkorlik subyektlarini elektron hujjat aylanishidan foydalanishga, shu jumladan statistika hisobotini taqdim etish, bojxona rasmiylashtiruvi, litsenziyalar, ruxsatnomalar, sertifikatlar berish jarayonlarida, shuningdek davlat organlaridan axborot olish jarayonlarida elektron hujjat aylanishidan foydalanishga o'tkazish;
- tadbirkorlik subyektlarining elektron tijorat, Internet jahon axborot tarmog'i orqali mahsulotni sotish va xaridlarni amalga oshirish tizimlaridan foydalanishini, shuningdek kommunal xizmatlarni hisobga olishning, nazorat qilishning va ular uchun haq to'lashning avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etishni kengaytirish;
- naqd bo'lmagan elektron to'lovlar, davlat xaridlarini amalga oshirish, masofadan foydalanish tizimlarini va bank-moliya sohasidagi faoliyatning boshqa elektron shakllarini rivojlantirish³.

Elektron raqamli imzo (ERI) ham raqamli vakillikka eng asosiy va amaliy misollardan biri hisoblanadi. Elektron hukumat tizimida ERI yordamida fuqarolar yoki yuridik shaxslar o'z nomidan turli hujjatlarni imzolaydi, davlat xizmatlaridan foydalanadi, shartnomalarni rasmiylashtiradi. Shu sababli ERI fuqaro yoki tashkilotning haqiqiy "raqamli vakili" sifatida xizmat qiladi.

Xorijiy tajriba ham raqamli vakillikning dolzarbligini tasdiqlaydi. Jumladan, Koreya Respublikasining elektron hukumat va raqamli hukumat tizimi Birlashgan Millatlar Tashkiloti hamda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti kabi xalqaro institutlar tomonidan yuqori baholanadi. Koreya Respublikasida elektron hukumatning shakllanishi 1980-yillarda boshlangan bo'lib, 1990–2000-yillarda yanada kengaytirildi. Elektron hukumatning muvaffaqiyatidan

so'ng mamlakat raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi bilan uyg'un holda raqamli hukumat davriga qadam qo'ydi. Hukumat faoliyatining raqamlashtirilishi aholiga davlat xizmatlarini ko'rsatishda hamda iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda muhim omil sifatida qaralmoqda.

Koreyaliklar bank, aloqa, elektr ta'minoti kabi xususiy xizmatlardan tezkor foydalanishga odatlangan. Raqamli hukumat tizimi joriy etilgach, aksariyat davlat xizmatlarini internet yoki smartfon orqali olish imkoni paydo bo'ldi. Atigi bir necha marta ekran bosish orqali fuqarolar davlat idoralari bilan muloqot qilishi, hujjatlarni rasmiylashtirishi va turli muammolarni hal qilishi mumkin. Bunday xizmatlar boshqa mamlakatlarda ham uchrasa-da, Koreyada ular ko'lamining kengligi va tezkorligi bilan ajralib turadi. Shu bois Koreya Respublikasi elektron hukumat va raqamli hukumat sohasida xalqaro

³ O'zbekiston Respublikasi "Elektron hukumat to'g'risidagi" qonuni, 11.06.2016, 3-4-moddalar.

miqyosda ilg'or tajribaga ega davlat sifatida e'tirof etiladi.

Raqamli texnologiyalarning taraqqiyoti sanoat manzarasini tubdan o'zgartirdi. Odatda davlatlar ommaviy axborot vositalariga nisbatan qat'iy qoidalar va cheklovlar qo'llaydi, chunki media insonlarning dunyoqarashi va kundalik odatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Biroq axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) rivojlanishi natijasida "YouTube", "Netflix" va "Google" kabi yirik kompaniyalar ushbu sohada global yetakchiga aylandilar.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar kundalik hayotning ajralmas qismiga aylanib, raqamli hukumat xizmatlari fuqarolar uchun qulaylik va samaradorlikni ta'minlamoqda. Endilikda qog'oz hujjatlar o'rnini onlayn shakllar egallamoqda, navbatlarda kutish esa interaktiv menyular yordamida qisqarmoqda. Smartfonlar esa istalgan paytda zarur xizmatlarga ulanish imkonini berib, davlat organlari xarajatlarini kamaytirish va idoralararo hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Koreyaning raqamli hukumatga o'tishdagi ustuvor qadamlari COVID-19 pandemiyasida o'z samarasini ko'rsatdi. Pandemiyaning dastlabki kunlarida Koreya o'zining elektron hukumat tizimi va ilg'or AKT imkoniyatlari yordamida epidemiya ustidan nazoratni ta'minlashga erishdi. Mamlakatning raqamli hukumat strategiyasi tufayli karantin va profilaktika choralarini belgilash, ma'lumotlar shaffofligini ta'minlash, kasallanganlarni monitoring qilish, tezkor choralarini amalga oshirish, keyinchalik yordam va kompensatsiyalarni taqsimlash samarali tashkil etildi. Masalan, pandemiya qurbonlari uchun onlayn ariza topshirish jarayonida milliy yordam mablag'larining 99,5 foizi atigi bir oy ichida aholiga yetkazildi (MOIS, 2020b). Taqqoslash uchun, AQShda qurbonlarni tasniflash va shaxsiy ma'lumotlarni aniqlash jarayoni bir necha oyga cho'zilgan va natijada barcha fuqarolarga bir xil miqdorda yordam puli berish qarori qabul qilingan edi. Shu sababli texnik muammolarga duch kelgan ko'plab mamlakatlarga nisbatan

Raqamli vakillik – bu inson yoki tashkilot nomidan raqamli muhitda, ya'ni sun'iy intellekt orqali rasmiy tarzda harakat qiladigan tizim yoki algoritmnı anglatadi. Elektron raqamli imzo (ERI) ham raqamli vakillikka eng asosiy va amaliy misollardan biri hisoblanadi.

Koreyaning yondashuvi xalqaro miqyosda namunaviy sifatida baholandi.

Koreyaning yuqumli kasalliklarni nazorat qilish tizimi aslida COVID-19 pandemiyasidan ancha avval elektron hukumat doirasida yaratilgan bo'lib, pandemiya davrida uning samaradorligi amaliy jihatdan isbotlandi⁴.

Globalashuv va raqamli transformatsiya sharoitida davlat boshqaruvi tizimida "raqamli vakillik" institutining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Mazkur institut elektron hukumat va elektron raqamli imzo mexanizmlarida o'z ifodasini topib, fuqarolar hamda yuridik shaxslarning davlat organlari bilan munosabatlarini tezkor, shaffof va huquqiy jihatdan ishonchli tarzda amalga oshirish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, raqamli vakillik zamonaviy huquqiy munosabatlarning ajralmas qismi sifatida davlat xizmatlari samaradorligini oshirish, korrupsiyaga qarshi kurashish hamda jamiyatda ochiqlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda raqamli vakillikning huquqiy asoslarini mustahkamlash, texnologik infratuzilmani rivojlantirish va aholining raqamli savodxonligini oshirish ushbu jarayondagi asosiy vazifalardan biridir. Bu yo'nalishda huquqiy bazani xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish, davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish hamda mamlakatning raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Akmal PARDAYEV,

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash
va malakasini oshirish instituti
mustaqil izlanuvchisi

⁴ Digital Government in the Republic of Korea: Evaluation and Challenges, Inkyo Cheong and Jungran Cho, 2024.

Qo'riqlash munosabatlarini shartnomaviy-huquqiy tartibga solish

Rivojlangan davlatlarda qo'riqlash munosabatlarini shartnomaviy-huquqiy asosda tartibga solish bo'yicha to'plangan tajribani chuqur o'rganish va uning samarali jihatlarini milliy amaliyotimizga tatbiq etish, mamlakatimizda ushbu sohani mukammal huquqiy asosda shakllantirish hamda izchil rivojlantirish uchun muhim imkoniyat yaratadi.

AQShda xususiy qo'riqlash industriyasi dunyodagi eng yirik bozor bo'lib, 2023-yilda 350 milliard dollardan ortiq daromad keltirgan. Xususiy qo'riqlash kompaniyalari, masalan, "Allied Universal", "Securitas AB" va "GardaWorld" global miqyosda ishlaydi. Jismoniy qo'riqlash, kiberxavfsizlik, aviatsiya xavfsizligi va ommaviy tadbirlar xavfsizligini yuqori darajada ta'minlaydi.

Bugun "Allied Universal" AQSh, Yevropa, Shimoliy Amerika, Osiyo va Avstraliya mintaqalarida faoliyat yuritadi. 800 000 dan ortiq xodimga ega. U dunyodagi yirik xususiy qo'riqlash firmalaridan biri hisoblanadi¹.

AQShda xususiy qo'riqlash federal va shtat darajasidagi qonunlar asosida boshqariladi. Federal darajada "Private Security Officer Employment Authorization Act (2004)" asosiy hujjat hisoblanadi². Har bir shtat o'ziga xos litsenziyalash qoidalariga ega, masalan, Kaliforniyada BSIS bu faoliyatni tartibga soladi³.

Xususiy qo'riqlash shartnomalari "contract law" qoidalariga asoslanadi, unda "mutual assent", "offer and acceptance", "consideration" va "legality" talab qilinadi⁴. Shartnomada qo'riqlash xizmatining obyekti (bino, tadbir yoki shaxs), usullari (patrul, signalizatsiya, qurolli qo'riqlash) va hudud

di aniq korsatilishi kerak. Narx odatda preyskurant asosida belgilanadi, hisoblash usuli (soatlik, oylik yoki obyekt qiymatiga bog'liq) shartnomada ko'rsatiladi, aks holda shartnoma haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Shartnomalar ko'pincha bir yoki ikki yilga tuziladi va "renewal" sharti bilan avtomatik uzaytiriladi, agar 30 kun oldin xabar berilmasa⁵.

Shartnomada "indemnity" va "hold harmless" bandlari ko'p uchraydi, bu bandlar buyurtmachini qo'riqchining noqonuniy harakatlaridan himoya qiladi. Kaliforniyada shartnomalar "insurance" va litsenziya mavjudligini aniq ko'rsatishi shart, aks holda nizoli holat yuzaga keladi⁶.

AQShda "tort law", "negligent security" konsepsiyasi qo'llanadi, bunda mulk egasi yoki qo'riqlash kompaniyasi uchinci shaxslarga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'ladi. "Negligence" (qo'riqchining majburiyatini to'liq bajarmasligi) "respondeat superior" qoidasi bo'yicha kompaniyani javobgar qiladi. Agar qo'riqchi qasddan zarar yetkazsa, shaxsan javobgar bo'ladi. "Foreseeable crime" bo'lsa, mulk egasi "premises liability" bo'yicha javobgar bo'lib, sud zararni qoplashni buyuradi⁷. "Limitation of liability" bandlari javobgarlikni cheklaydi, lekin har doim ham haqiqiy emas. "Neg-

¹ www.closecareer.com/all-time-top-security-companies-in-the-world/ "I" "google_vignette.

² www.federalregister.gov/documents/2006/01/11/06-223/implementation-of-the-private-security-officer-employment-authorization-act-of-2004.

³ California Bureau of Security and Investigative Services (BSIS) – www.bsis.ca.gov.

⁴ www.law.cornell.edu/wex/contract.

⁵ smartsecuritypros.com/7-tips-for-a-contract-security-agreement/.

⁶ dahlcore.com/blog/f/understanding-legal-aspects-of-private-security-services.

⁷ www.lawsuit-information-center.com/negligent-security-lawsuits.html.

ligent security” da’volari ko’pincha mulk egalari ga qarshi qo’zg’atiladi, qo’riqlash kompaniyalari esa sug’urta orqali himoyalana di⁸. Bu tizim xavfsizlik sifatini oshiradi, lekin kompaniyalar uchun qimmatga tushadi.

Germaniyada qo’riqlash faoliyati “Gewerbeordnung (GewO) § 34a” asosida federal darajada tartibga solinadi⁹ va kompaniyalar “Erlaubnis” (litsenziya) olishi shart¹⁰. Qo’riqlash shartnomalari BGB § 631 (xizmat shartnomasi) yoki natijaga qaratilgan bo’lsa, BGB § 611 asosida tuziladi¹¹.

Shartnomada quyidagilar aniq ko’rsatiladi:

- **Predmet:** qo’riqlash xizmati (jismoniy, texnik).
- **Obyekt:** bino, tadbir yoki shaxs (GDPR talablariga muvofiq).
- **Usullar:** patrul, signalizatsiya (BewachV talablariga mos).
- **Narx:** soatlik 15–30 evro yoki oylik, BDSW preyskuranti asosida.
- **Muddat:** 1–3 yil, “Verlängerung” bandi bilan (BGB § 620)¹².

Litsenziyasiz shartnoma “nichtig” deb topiladi (BGB § 134). BewachV § 6 ga ko’ra, “Haftpflichtversicherung” (sug’urta) majburiy: 1 mln yevro shaxsiy zarar, 250 000 yevro mulkiy zarar uchun. Sug’urtasiz faoliyat 50 000 yevrogacha jarima bilan taqiqlanadi. Shartnomada sug’urta polisi raqami ko’rsatiladi.

Video kuzatuv GDPR va BSIG talablariga rioya qiladi. Shartnomalar yozma shaklda (BGB § 126) yoki eIDAS elektron imzo bilan tuziladi¹³. “Freistellungsklausel” va “hold harmless” bandlari kompaniyani mijozning noqonuniy harakatlaridan himoya qiladi, lekin ortiqcha cheklovlar “unangemessen” deb bekor qilinishi mumkin (BGB § 307)¹⁴.

Litsenziyasiz faoliyat noqonuniy bo’lib, 50 000 yevrogacha jarima, faoliyat to’xtatilishi yoki jinoiy javobgarlikka (Strafgesetzbuch § 263) olib keldi. Sug’urta qo’riqlashdagi zararlarni qoplash va litsenziya olish uchun zarur bo’lib, shartnomada

sug’urta polisi raqami aniq ko’rsatiladi.

Germaniyada qo’riqlash shartnomalari qat’iy qonunchilik, professionalizm va aniq javobgarlik taqsimoti orqali xavfsizlik va ishonchni ta’minlaydi.

Kanadada xususiy qo’riqlash provinsiya darajasida tartibga solinadi. 9 provinsiyada litsenziyalash talab qilinadi, faqat Nunavutda bunday talab yo’q. Federal darajada “Contract Security Program (CSP)”¹⁵ “security clearance” va “compliance” talablarini belgilaydi. Ontarioda PSISA 2005¹⁶, Britan Kolumbiyasida “Security Services Act” (5 yillik litsenziya), Albertada “Security Services and Investigators Act” (2015) qo’riqlashni tartibga soladi.

Shartnomalar fuqarolik huquqi va provinsial qonunlar asosida tuziladi, unda litsenziyalash, malaka va javobgarlik talablari muhim. Shartnomada qo’riqlash xizmati, obyekt, usullar, narx va muddat aniq ko’rsatiladi. Litsenziyasiz faoliyat noqonuniy hisoblanadi, shartnoma bekor qilinadi va jarimalar qo’llanadi.

Bu tizimlar xavfsizlik xizmatlarining sifatini oshiradi, lekin kichik kompaniyalar uchun qiyinchiliklar tug’diradi.

Qo’riqlash shartnomalari “service agreements” sifatida tuziladi¹⁷, unda tomonlar huquqlari aniq bayon etiladi. Shartnomada kompaniya va mijoz, predmet – qo’riqlash xizmati (guard services, patrul, signalizatsiya) batafsil tavsiflanadi. Muddat 1–5 yil, narx soatlik (20–50 Kanada dollari) yoki oylik asosda, preyskurant bilan belgilanadi. Qo’riqchilar vazifalari (use of force, arrest powers), trening (minimal 40 soat kurs) va fon tekshiruvi (clean criminal record) ko’rsatiladi.

“Indemnity” va “hold harmless” bandlari standart bo’lib, kompaniyani mijozga yetkazilgan zararni (negligence) to’lashga majbur qiladi, lekin cheklovlar qo’yilishi mumkin. “Hold harmless” kompaniyani mijoz xatolaridan himoya qiladi.

Sug’urta (Liability Insurance) muhim, qo’riq-

⁸ goldbergloren.com/negligent-security-civil-law.

⁹ https://www.gesetze-im-internet.de/gewo/_34a.html.

¹⁰ https://www.gesetze-im-internet.de/gewo/_34.html.

¹¹ https://www.gesetze-im-internet.de/bgb/_631.html.

¹² https://www.gesetze-im-internet.de/bgb/_620.html.

¹³ https://www.gesetze-im-internet.de/gewo/_146.html.

¹⁴ https://www.gesetze-im-internet.de/bgb/_307.html.

¹⁵ Izoh: “Contract Security Program” “Shartnomaviy xavfsizlik dasturi” bo’lib, bu termin Kanadada federal hukumat bilan shartnoma tuzadigan xususiy qo’riqlash kompaniyalari uchun xavfsizlik talablari va standartlarini tartibga soluvchi dastur // Contract Security Manual, Canada.ca, 2020.

¹⁶ Izoh: Private Security and Investigative Services Act, 2005 (PSISA 2005) – bu Kanadaning Ontario provinsiyasida xususiy qo’riqlash va tergov xizmatlarini tartibga soluvchi asosiy qonundir. U 2005-yilda qabul qilinib, 2007-yil 23-avgustdan kuchga kirdi // <https://www.ontario.ca/laws/statute/05p34>.

¹⁷ Izoh: Service Agreements (xizmat ko’rsatish shartnomalari) – bu Kanadada, xususan xususiy qo’riqlash sohasida xizmat ko’rsatuvchi (masalan, qo’riqlash kompaniyasi) va mijoz o’rtasidagi majburiyatlarni belgilaydigan huquqiy hujjatlar. Ular Ontario (PSISA 2005), Britan Kolumbiyasi (Security Services Act) yoki Alberta (SSIA 4.0) kabi provinsial qonunlar asosida tuziladi va fuqarolik huquqi (common law yoki Québec Civil Code) doirasida tartibga solinadi // Canadian Laws Security Guards Need To Know About, Novagems.com. <https://novagems.com/canadian-laws-security-guards-need-to-know-about/>.

lash faoliyatidagi zararlarni qoplaydi. “General Liability Insurance” majburiy, litsenziya uchun asosiy shart. Shartnomada sug’urta polisi raqami, qamrov summasi va provayder ko’rsatiladi. Minimal summa 1-2 mln Kanada dollari (shaxsiy, mulkiy va moliyaviy zararni qoplaydi). Katta obyektlar uchun 5 mIngacha bo’lishi mumkin. Sug’urta “indemnity” va “hold harmless” bandlari bilan bog’lanadi, amal qilish muddati aniq ko’rsatiladi. Bu mijoz va kompaniyani himoya qiladi, nizolarni hal qiladi va industriya sifatini oshiradi.

Rossiya Federatsiyasida qo’riqlash shartnomalari Fuqarolik kodeksi 39-bobi (779–783-moddalar) asosida tuziladi¹⁸ va “Rossiya Federatsiyasida xususiy detektiv va qo’riqlash faoliyati to’g’risida”gi qonun (№ 2487-1, 11.03.1992) bilan tartibga solinadi.

Sug’urta majburiy emas, lekin amaliyotda katta mijozlar talab qiladi, zararlarni qoplaydi. Shartnomada sug’urta polisi ko’rsatilishi mumkin. Minimal summa 1 mln rubl, katta obyektlar uchun 5-10 mln. Sug’urta xavflarni kamaytiradi va kompaniya ishonchligini oshiradi.

Qozog’iston Respublikasida qo’riqlash shartnomalari Fuqarolik kodeksi 33-bobi (683–687-moddalar) asosida tuziladi va “Qo’riqlash faoliyati to’g’risida”gi qonun (№ 85-II, 19.10.2000) bilan tartibga solinadi. Shartnomalar qo’riqlash tashkilotlari va mijozlar munosabatlarini tartibga soladi.

O’zbekiston Respublikasida qo’riqlash sohasi “Qo’riqlash faoliyati to’g’risida” qonun (2022-yil) va Fuqarolik kodeksi asosida tartibga solinadi. Xususiy qo’riqlash faoliyatiga ruxsat berilmaydi, faoliyat davlat organlari (IIV, Milliy gvardiya) tomonidan amalga oshiriladi. Xususiy kompaniyalar mavjud emas, litsenziyalash va malaka talablari mavhum, shartnomalarda sug’urta sharti nazarda tutilmaydi. AQSh, Germaniya, Kanada, Rossiya va Qozog’iston tajribalaridan kelib chiqib (litsenziyalash, trening, sug’urta va shartnoma standarti), O’zbekistonda sohani takomillashtirish uchun quyidagilarni taklif qilamiz.

1. Litsenziyalash va malaka tizimini qat’iylashtirish. AQSh va Kanadada litsenziyalash shartlar/provinsiyalar darajasida amalga oshiriladi, malaka imtihoni va fon tekshiruvi (kriminal tarix) majburiy. Germaniyada “Sachkundeprüfung” 40 soatlik kurs bilan bog’langan. Rossiya va Qozog’istonda litsenziya IIV tomonidan beriladi, malaka imtihoni talab qilinadi. O’zbekistonda “Qo’riqlash faoliyati

to’g’risida”gi qonunni qayta ko’rib chiqib, xususiy qo’riqlashga ruxsat berish, litsenziyalash tizimini, 40 soatlik malaka imtihoni va fon tekshiruvi (kriminal tarix, psixologik holat) joriy qilish lozim. Bu raqobatni oshiradi, mijozlarga tanlov imkoniyatini beradi, professionalizmni kuchaytiradi va AQSh, Germaniya, Kanada tajribasiga mos kelib, jinoyatchilikni kamaytirishga xizmat qiladi.

2. Shartnomalarni standartlashtirish va muhim shartlarni kuchaytirish. AQSh, Germaniya va Kanadada shartnomalarda litsenziya va “Haftpflichtversicherung” yoki “Liability Insurance” sharti majburiy. Rossiya va Qozog’istonda predmet, muddat va litsenziya majburiy, sug’urta esa tavsiya etiladi. O’zbekistonda shartnomalar uchun namuna shablon yaratish, muhim shartlar (predmet – obyekt, usullar; narx – preyskurant asosida; muddat – uzaytirish sharti bilan) va litsenziya, sug’urta shartlarini majburiy qilish kerak. Zararlarni sug’urta qilish minimal miqdorini belgilash (masalan, 1-2 mln so’m) maqsadga muvofiq.

3. Malaka va trening tizimini takomillashtirish. AQSh va Kanadada 40 soatlik trening, Germaniyada “Sachkundeprüfung” va 40 soatlik kurs majburiy. Rossiyada IIV malaka imtihoni, Qozog’istonda litsenziya uchun xodimlar malakasi talab qilinadi. O’zbekistonda 40 soatlik malaka imtihoni, fon tekshiruvi (kriminal tarix, psixologik holat) joriy qilish professionalizmni, qo’riqlash xizmati samaradorligini va ishonchligini oshiradi.

4. Qo’riqlash sohasida ma’lumotlar himoyasi va kiberxavfsizlikni kuchaytirish. Germaniyada “GDPR” va “BSIG” video kuzatuvni, Kanadada “PIPEDA” va provinsial qonunlar ma’lumotlarni himoya qiladi. Rossiya va Qozog’istonda maxfiylik sharti ko’rsatiladi. O’zbekistonda “Shaxsga doir ma’lumotlar to’g’risida”gi qonunga qo’riqlash faoliyatida ma’lumotlar himoyasi normasini kiritish, shartnomalarga “GDPR” analoglarini (video kuzatuvda maxfiylik) va kiberxavfsizlik elementlarini majburiy qilish lozim.

Yuqoridagi takliflar AQSh (desentralizatsiya, xususiy sektor salmog’i), Germaniya (qat’iy standartlar), Kanada (provinsial nazorat), Rossiya (litsenziyalash) va Qozog’iston (cheklovlar) tajribalariga asoslanib, O’zbekistonda qo’riqlash sohasini rivojlantiradi, xususiy sektorni kuchaytiradi va xavfsizlikni oshiradi.

Olim UMBETOV,

Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

¹⁸ ppt.ru/kodeks/gk/gl-39.

¹⁹ adilet.zan.kz/rus/docs/Z000000085.

Davlat xizmatchisining liderlik fazilati va psixologik portreti

O'zbekiston Prezidenti huzurida kadrlar boshqaruvining zamonaviy usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish, davlat xizmatchilari faoliyatining samaradorligini baholash, shuningdek, davlat organlarining ochiqdigi va hisobdordligini ta'minlash vazifalarini amalga oshiruvchi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining tashkil etilishi mamlakatimizda muhim bosqich bo'ldi.

Islohotlarning muhim tarkibiy qismlaridan biri davlat xizmatchilarining vakolatlarini baholash tizimini joriy etishdir. Ushbu tizim yuqori lavozimlarga nomzodlarning kasbiy bilimlari, qadriyatlari va intellektual salohiyatini aniqlashga qaratilgan psixologik testlar hamda so'rovlarni ichiga oladi. Bu eng malakali mutaxassislarni tanlash, ularning shaxsiy fazilatlarini liderlik mezonlariga mos keli-shini ta'minlash imkonini beradi.

Davlat xizmatchisining asosiy fazilatlarini qatori-ga jasorat, kuch, samarali muloqot qilish qobiliya-ti, chuqur bilim, aql-idrok, halollik va shaxslararo ko'nikmalar kiradi. Ayniqsa, muhim jihatlardan biri kelajakni ko'ra bilish va uni amaliyotga tatbiq etish qobiliyatidir. Yetakchilik tug'ma sifat emas. Agar in-son hayotida ijobiy o'zgarishlar qilishga yetarlicha g'ayrat va qat'iyat namoyon etsa, liderlik ko'nikma-larini o'zlashtirish va rivojlantirish mumkin.

O'zbekistonda davlat boshqaruvi tizimi hozirgi bosqichda liderlik samaradorligiga ta'sir ko'rsatayotgan bir qator muammolarga duch kelmoqda:

- **korruptsiya:** davlat apparatida poraxo'rlik va qarindosh-urug'chilikning keng tarqa-lishi fuqarolarning ishonchini susaytiradi va davlat idoralari samaradorligini pasaytiradi;
- **past malaka darajasi:** ba'zi davlat xizmatchilarining, ayniqsa yuqori lavozimlarda tayyorgarlikning yetishmasligi boshqaruvning samarasizligiga va ko'rsatilayotgan xiz-matlar sifatining pasayishiga olib keladi;
- **hisobdordlik madaniyatining yo'qligi:** davlat xizmatchilarining jamiyat oldidagi javob-garligi va ularning faoliyatini nazorat qilishning samarali mexanizmlari yetishmasligi.

Huquqni muhofaza qilish tashkilotlaridagi jid-diy kamchiliklardan biri yetakchilikni tizimli ra-vishda rivojlantirish mexanizmlarining yo'qligidir. Amaliyotda martaba o'sishi ko'pincha yetakchilik salohiyatidan emas, balki avvalgi natijalardan ke-lib chiqib belgilanadi. Natijada yangi tayinlangan birinchi darajali rahbarlar ko'pincha zimmasiga yuklangan vazifalarni samarali bajarishga tayyor emaslar. Holbuki, xodimlar martaba zinapoyasi-da yuqoriga ko'tarilgan sari uzluksiz o'rganish va

ko'nikmalarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yetakchilikning zaruriy qismi quvvatdir. Quv-vat insonning muvaffaqiyatga erisha olish im-koniyatini anglatadi, hokimiyat esa uning mavqeyi orqali boshqalardan muayyan vazifalarni bajarish-ni talab qilish yoki oqibatlar uchun javobgarlikni yuklash imkonini beradi. Haqiqiy rahbar rasmiy vakolatga ega bo'lmagan taqdirda ham boshqalar-ning resurslarini safarbar eta olish orqali maqsad-

Bugungi kunda O'zbekiston davlat boshqaruvi tizimida liderlikning psixologik jihatlari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Samarali va mas'uliyatli davlat xizmatini shakllantirishga qaratilgan islohotlar malakali, axloqiy pok, hissiy jihatdan yetuk hamda psixologik barqaror rahbarlarning yetishib chiqishini taqozo etadi. Aynan shunday rahbarlar nafaqat davlat funksiyalarining sifatli bajarilishini ta'minlaydi, balki jamiyatdagi ijobiy o'zgarishlarning haqiqiy tashabbuskori va harakatlantiruvchi kuchiga aylanishga qodir bo'ladi.

larga erishishda quvvatini namoyon etadi. Bunday quvvat asosan samarali muloqot qilish va odamlarni muhim maqsadlarga erishish sari ishonтира olish qobiliyatiga asoslanadi.

Zamonaviy davlat xizmatchisi nafaqat menejer, balki strateg, psixolog va axloqshunos sifatida ham faoliyat yuritadi. Uning samaradorligi faqat bilim va tajribaga emas, balki shaxsiy fazilatlariga ham bevosita bog'liqdir. Bunday fazilatlar qatoriga hissiy yetuklik, yuqori darajadagi hamdardlik, ilhom manbayi bo'la olish va yetakchilik qobiliyati kiradi. Shu bois bunday rahbarlarni shakllantirish nafaqat ta'lim tizimining, balki mamlakatimiz siyosiy madaniyatining ham umumiy vazifasidir.

So'nggi yillarda O'zbekiston davlat boshqaruvi sohasida sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan islohotlar davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish, davlat organlari faoliyati samaradorligini oshirish hamda fuqarolar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishga qaratilgan. Bugungi kunda jamiyat rahbarlardan nafaqat ma'muriy vazifalarning bajarilishini, balki yuqori darajadagi shaxsiy javobgarlik, strategik fikrlash, samarali muloqot qobiliyati va axloqiy yaxlitlikni ham kutmoqda.

Diqqat markazida endilikda siyosatni shakllantirish, ilhom bag'ishlash, jamoani samarali boshqarish, barqaror rivojlanishni ta'minlash va fuqarolar manfaatlariga xizmat qila oladigan davlat boshqaruvchisi shaxsi turibdi. Islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri davlat xizmatchilari-ning, ayniqsa rahbarlik lavozimlaridagi kadrlar-ning liderlik fazilatlarini rivojlantirishdir. Zamonaviy muammolar esa rahbardan nafaqat kasbiy malaka, balki yetuk psixologik fazilatlarni ham talab qilmoqda.

Odamlarni tushunish, qaltis vaziyatlarda o'zini boshqarish, motivatsiyani saqlab qolish va jamoada sog'lom muhitni shakllantirish qobiliyati yangi avlod liderligining xususiyatiga aylandi. Davlat tuzilmalarida samarali menejerning psixologik portreti alohida e'tibor mavzusidir. Chunki bu asosan amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati va hokimiyat institutlariga ishonch darajasini belgilaydigan liderning shaxsiy xususiyatlari va boshqaruv uslubi hisoblanadi. O'zbekistonda samarali davlat xizmatchisining psixologik portreti nafaqat kasbiy ko'nikmalarni, balki hissiy intellekt, o'zini aks ettirish qobiliyati va axloqiy ong kabi shaxsiy fazilatlarni ham ichiga oladi.

Davlat xizmati tizimidagi lider samarali boshqaruvni ta'minlash, strategik vazifalarni amalga oshirish va jamoatchilikning hokimiyatga ishonchini saqlab qolishda muhim rol o'ynaydi. Uning faoliyati oddiy ma'muriyatdan tashqariga chiqadi – rahbar rivojlanish nuqtayi nazarini shakllantiradi, qo'l ostidagilarni ilhomlantiradi va davlat institutlarining barqarorligi va rivojlanishiga ta'sir qiluvchi qarorlar qabul qiladi.

Davlat xizmatchisi kasbiy malakaga, yuqori shaxsiy javobgarlikka, noaniqlik sharoitida ishlash va jamoat manfaatlarini hisobga olish qobiliyatiga ham ega bo'lishi kerak. Bu davlat va jamiyat o'rtasidagi aloqaga aylanib, fuqarolarning haqiqiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda siyosiy qarorlarni qabul qilishni ta'minlaydi.

Bundan tashqari, davlat xizmatidagi lider samarali jamoani qurish, xodimlarni rag'batlantirish, innovatsiyalarni amalga oshirish va tashkiliy madaniyatni rivojlantirishga qodir bo'lishi kerak. Shunday qilib, umuman davlat boshqaruvining samaradorligi ko'p jihatdan liderning fazilatlari va harakatlariga bog'liq.

O'zbekistonda davlat xizmatida liderlikning asosiy funksiyalarini bajarish



Samarali rahbar ushbu funksiyalarni muvaffaqiyatli bajarishga imkon beradigan kasbiy bilim va shaxsiy fazilatlarining kombinatsiyasiga ega bo'lishi kerak. Kasbiy bilimlar menejerga boshqaruv mexanizmlari, iqtisodiy jarayonlar, huquqiy asoslar va ma'muriy taomillar to'g'risida tushuncha beradi. Biroq bu yetarli emas. To'g'ri qarorlar qabul qilish, jamoani boshqarish, qiyinchiliklarni yengish va strategik qarashni saqlab qolish uchun ichki psixologik resurs zarur.

Kasbiy mahorat shaxsiy yetuklik bilan to'ldirilgandagina menejer qo'l ostidagichilar bilan ishonchli munosabatlarni o'rnatishi, qaror qabul qilishda moslashuvchanlikni namoyon qilishi va shu bilan birga davlat xizmati tamoyillariga sodiq qolishi mumkin. Shunday qilib, samarali davlat rahbari nafaqat mutaxassis, balki aql, axloqiy barqarorlik va so'zning keng ma'nosida yetakchilik qobiliyatini birlashtirgan shaxsdir.

Liderlik faqatgina boshqaruv, jarayonlarni tashkil etish va belgilangan maqsadlarga erishish qobiliyati bilangina chegaralanmaydi. U avvalo insonning shaxsiy fazilatlarini, xulq-atvori, motivat-

siyasi hamda o'ziga va boshqalarga munosabatini ifodalovchi murakkab psixologik hodisadir. Davlat xizmati sharoitida, ayniqsa boshqaruv tizimi faol o'zgarayotgan O'zbekistonda rahbarlarning psixologik xususiyatlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan samarali davlat xizmatchisining psixologik profiliga hissiy intellekt, o'zini anglash va refleksiya qobiliyati, axloqiy ong, moslashuvchanlik, shuningdek, jamoaviy ish va samarali delegatsiya ko'nikmalari kiradi.

Avtoritar rahbar odatda qat'iy nazorat va qoidalarga tayanishga moyil bo'ladi, demokratik rahbar esa hamkorlikka, shuningdek qo'l ostidagilarni qaror qabul qilish jarayoniga jalb etishga asoslanadi. Psixologik nuqtayi nazardan qaraganda, avtoritarizmga moyillik ko'pincha ichki tashvish, barqaror nazorat ehtiyoji bilan bog'liq bo'lsa, demokratik uslub odatda o'zini hurmat qilish, odamlarni qadrlash va ularga ishonch bildirish bilan uzviy aloqador bo'ladi.

Hissiy intellekt shaxsning his-tuyg'ularini anglash va ularga ta'sir o'tkaza olish, shuningdek, boshqalarning hissiyotlarini tushunish va ularga

Odamlarni tushunish, qaltis vaziyatlarda o'zini boshqarish, motivatsiyani saqlab qolish va jamoada sog'lom muhitni shakllantirish qobiliyati yangi avlod liderligining xususiyatiga aylandi. Davlat tuzilmalarida samarali menejerning psixologik portreti alohida e'tibor mavzusidir. Chunki bu asosan amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati va hokimiyat institutlariga ishonch darajasini belgilaydigan liderning shaxsiy xususiyatlari va boshqaruv uslubi hisoblanadi. O'zbekistonda samarali davlat xizmatchisining psixologik portreti nafaqat kasbiy ko'nikmalarni, balki hissiy intellekt, o'zini aks ettirish qobiliyati va axloqiy ong kabi shaxsiy fazilatlarni ham ichiga oladi. Davlat xizmati tizimidagi lider samarali boshqaruvni ta'minlash, strategik vazifalarni amalga oshirish va jamoatchilikning hokimiyatga ishonchini saqlab qolishda muhim rol o'ynaydi. Uning faoliyati oddiy ma'muriyatdan tashqariga chiqadi – rahbar rivojlanish nuqtayi nazarini shakllantiradi, qo'l ostidagilarni ilhomlantiradi va davlat institutlarining barqarorligi va rivojlanishiga ta'sir qiluvchi qarorlar qabul qiladi.

ta'sir qilish qobiliyatidir. Hissiy intellekt rahbarga qo'l ostidagilar bilan samarali muloqot olib borish, nizoli vaziyatlarni oqilona hal etish hamda jamoada ijobiy psixologik muhitni shakllantirishda asqatadi.

O'zini anglash va aks ettirish kuchli va zaif tomonlarini tan olish, harakatlarini tahlil qilish va tajribadan o'rganish qobiliyatidir. O'zini aks ettirish liderga doimiy ravishda rivojlanish va atrof-muhit o'zgarishiga moslashish imkonini beradi.

Axloqiy xabardorlik yuqori axloqiy me'yorlarga sodiqlik, halollik, adolat va mas'uliyatdir. Axloqiy xabardorlik fuqarolarning ishonchini mustahkamlashga va davlat idoralarining obro'sini oshirishga yordam beradi.

Moslashuvchanlik – o'zgarishga tayyorlik va qobiliyat, qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish yondashuvlarining to'la mos kelishidir. O'zgaruvchan dunyoda moslashuvchanlik samarali davlat xizmatchisining muhim sifatiga aylanmoqda.

Jamoaviy ish va delegatsiya – jamoada ishlash, xodimlaringizga ishonish, vazifalarni topshirish va jamoaning natijalari uchun javobgar bo'lish qobiliyati. Samarali rahbar muvaffaqiyat har bir jamoa a'zosining birgalikdagi sa'y-harakatlariga bog'liqligini tushunadi.

Muloqot qobiliyatlari – samarali rahbar nizolarni tinglash, ishontirish, yumshatish va maqsadlarni aniq yetkazishga qodir. Ommaviy axborot vositalari va fuqarolar bilan samarali muloqot qila oladigan rahbar hukumatning qonuniyligini mustahkamlaydi.

Motivatsiya va bir fikrlik – aniq ichki motivatsiyaga ega bo'lgan rahbar (masalan, jamiyatga xizmat qilish) korrupsiya va tashqi bosimga nisbatan ancha chidamli. Psixologik jihat: yuqori yutuq motivatsiyasi shuhratparastlik, qat'iyatlilik va o'zini tarbiyalash bilan bog'liq.

Bugungi kunda O'zbekiston davlat boshqaruvi tizimida liderlikning psixologik jihatlari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Samarali va mas'uliyatli davlat xizmatini shakllantirishga qaratilgan islohotlar malakali, axloqiy pok, hissiy jihatdan yetuk hamda psixologik barqaror rahbarlarning yetishib chiqishini taqozo etadi. Aynan shunday rahbarlar nafaqat davlat funksiyalarining sifatli bajarilishini ta'minlaydi, balki jamiyatdagi ijobiy o'zgarishlarning haqiqiy tashabbuskori va harakatlantiruvchi kuchiga aylanishga qodir bo'ladi.

O'zbekistonda rahbarlarning yetakchilik fazilatlari samarali davlat boshqaruvining muhim omillaridan biridir. Mazkur fazilatlarni rivojlantirish ta'lim, baholash, psixologik qo'llab-quvvatlash hamda amaliy faoliyatni qamrab oluvchi kompleks yondashuvni talab qiladi. Zamonaviy muammolar sharoitida menejerlar nafaqat kasbiy bilimlarga, balki mamlakatni samarali boshqarish va barqaror rivojlantirishga xizmat qiladigan shaxsiy fazilatlarga ham ega bo'lishlari zarurdir.

Moxigul OCHILOVA,

O'zbekiston Prezidenti huzuridagi
Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi
"Gumanitar va ijtimoiy fanlar" maktabi xodimi

Harbiy sohadagi hamkorlikning

xalqaro-huquqiy va konstitutsiyaviy tamoyillari

Globallashuv sharoitda xalqaro munosabatlarning butun tizimi tez o'zgarmoqda. Jahondagi harbiy-siyosiy vaziyat shuni ko'rsatmoqdaki, xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikka xavf-xatar hamda tahdidlar ko'lami tobora kengayib bormoqda.

Ayniqsa, kuch ishlatishga moyillik kuchayib, ommaviy qirg'in qurolini qo'llash tahdidi kuza-tilayotgani, terrorizm va ekstremizm faollashgani, axborot makoni va kibermakonda o'zaro kurash kuchaygani xavotir uyg'otadi.

Yuqoridagilar qatorida xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalarini erkin talqin etish, davlatlarning tanlab qo'llashi va xavotirli tendensiyalar kuchaygan. Terrorizm, ekstremizm, narkotrafik va transchegaraviy jinoyatchilik saqlanib qolayotgani ham Markaziy Osiyodagi tinchlik va xavfsizlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Biroq mamlakatimizning Mudofaa doktrinasi-ga ko'ra O'zbekiston hech bir davlatni o'zining dushmani deb hisoblamaydi va barcha mamlakatlardan bilan munosabatlarni mamlakat milliy manfaatlarining ustuvorligi asosida hamda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalarini inobatga olgan holda quradi.

Bugungi kunda ko'plab xorijiy davlatlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Ayniqsa, so'nggi yillarda qo'shnlarni modernizatsiya qilish bo'yicha katta qadamlar tashlandi. Qurolli kuchlar tizimidagi tarkibiy o'zgarishlar, harbiy sohada xalqaro hamkorlik va diplomatiya kengayishi buning yaqqol misolidir. Masalan, o'tgan yillar mobaynida

dunyoning 20 dan ortiq davlati bilan harbiy hamkorlik o'rnatildi, 6 ta davlat bilan hukumatlararo komissiya faoliyati yo'lga qo'yildi, 10 dan ortiq davlat bilan harbiy hamkorlik yo'nalishida xalqaro bitim va kelishuvlar imzolandi.

Akademik A. Saidovning mulohazasiga ko'ra, hozirgi zamon qurolining xususiyati biron-bir davlatga xavfsizligini faqat harbiy-texnik vositalar, qurol-aslaha va qurolli kuchlarni ko'paytirish bilan ta'minlash imkonini bermaydi. Chunki hozir nafaqat yadro urushida, balki qurollanish poygasi-da ham yutib chiqish imkoniyati mavjud emas. Bugungi kunda davlatning xavfsizligini ta'minlashda siyosiy, shu jumladan yuridik vositalardan foydalanishni ustun qo'yish zarurligi ayon bo'lib qoldi¹.

A. Raxmonov bu vositalarni 3 turga ajratib, tinchlikni mustahkamlash vositalari, tinchlikni saqlash vositalari va tinchlikni tiklash vositalari sifatida tariflaydi². Boshqa mualliflar tinchlikni mustahkamlashning muhim vositalariga qurollsizlanish, ishonch choralari, yadrosiz zonani tashkil etishni kiritishadi va BMTning majburlov harakatlari tinchlikni tiklashning asosiy vositalaridan deb hisoblashadi³.

Xalqaro-huquqiy prinsiplar davlatlarni xalqaro munosabatlarda tiyilishga chaqiradi, shuningdek tahdid yoki kuch ishlatishni taqiqlaydi, har qanday

¹ Саидов А.Х. Халқаро ҳуқуқ. Дарслик. – Тошкент: Адолат, 2001. 268-б.

² Рахманов А. Право международной безопасности. Ташкент: ТГЮИ, 2005. Стр. 23.

³ Миллий манфаатлар ва бошқарув масъулияти. Огоҳлик ва ҳушёрлик тамойиллари / Ш.И. Пахрутдинов, Т.А., Жўраев ва бошқалар: Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиши академияси. – Т.: Ф. Фулом, 2008. 232–233-бб.

davlatning ichki yurisdiksiyasiga tegishli masalalarga aralashishga vakolat bermaydi.

Xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va me'yorlari BMT nizomi, 1970-yilgi "Xalqaro huquq prinsiplari to'g'risida"gi deklaratsiya va 1975-yilgi Yevropada xavfsizlik va hamkorlik kengashining yakunlovchi hujjatida qo'shimcha tarzda ifodalangan.

I. Umaroxunov ta'kidlaganidek, milliy xavfsizlik huquqi doirasida konstitutsiya normalari oliy yuridik kuchga ega. Birlashgan Millatlar Tashkilotining nizomi esa xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikning o'ziga xos konsepsiyasi hisoblanadi⁴.

O'zbekistonning mudofaa va xavfsizlikni ta'minlash borasidagi milliy prinsiplari Birlashgan Millatlar Tashkiloti ustavining 2-moddasidagi prinsiplarga hamohang. Unda tashkilotning barcha a'zolari suveren teng bo'lib, barcha a'zolar o'zlarining xalqaro nizolarini xalqaro tinchlik, xavfsizlik va adolat uchun xavf tug'dirmaydigan tarzda tinch yo'llar bilan hal qilishi qayd etilgan.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 17-moddasida O'zbekistonning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning buzilmasligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplariga hamda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa prinsip va normalariga asoslanishi e'tirof qilingan⁵.

O'zbekistonning mudofaa sohasidagi siyosati asosiy prinsiplari birinchi navbatda boshqa davlatlarga qarshi harbiy kuch ishlatmaslik (bundan harbiy tajovuzning oldini olish va uni daf etish hollari mustasno), boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, ehtimol tutilgan nizolarni tinch yo'l bilan hal etish kabi qoidalarga asoslanadi.

A. Arutyunyaning qayd etishicha, qurolsizlanish prinsipi davlatga muayyan yuridik majburiyatlar yuklaydi: 1) qurolsizlanish haqidagi amaldagi normalarga qat'iy va so'zsiz rioya qilish, shartnomalarda nazarda tutilgan, qurollanishni cheklash va qurolsizlanishga qaratilgan tadbirlar-

da ishtirok etish; 2) qurolsizlanish sohasida yangi normalar yaratilishiga, yangi bitimlar tuzilishiga erishish⁶.

O'zbekistonning mudofaa va xavfsizlik sohasidagi asosiy prinsiplaridan biri yadroviy va boshqa turdagi ommaviy qirg'in qurolini ishlab chiqarish, olish, saqlash, tarqatish va joylashtirishdan voz kechish, shuningdek Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli zona to'g'risidagi shartnoma prinsiplariga sodiqlik hisoblanadi. Ushbu g'oyaning hayotiy ifodasi sifatida 2006-yil 8-sentabrda Qozog'istonning Semipalatinsk shahrida mintaqa davlatlari tashqi ishlar vazirlari Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli hudud to'g'risidagi shartnoma imzolagan. 2007-yilning 2-apreli-dan Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli zona to'g'risidagi shartnomani ratifikatsiya qilish haqida O'zbekistonning qonuni kuchga kirdi.

Ushbu masalada 1968-yildagi "Yadro qurolini tarqatmaslik to'g'risida"gi shartnoma (O'zbekiston uchun 07.05.1992-y. kuchga kirgan) va "Bakteriologik (biologik) va toksik qurol-yarog'larni ishlab chiqish, tayyorlash va to'plashni man etish hamda ularni tugatish to'g'risida"gi konvensiya (O'zbekiston uchun 26.01.1996-y. kuchga kirgan) O'zbekiston tan olgan asosiy hujjatlar sanaladi.

BMT ustavidan so'ng xalqaro xavfsizlik sohasidagi asosiy prinsiplar xalqaro shartnomalar bilan ham tartibga solinadi. Biroq milliy xavfsizlikka oid qonunchilik xalqaro shartnomalar, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalarini tatbiq etish imkonini berishi shart. Mamlakat mudofaasini rejalashtirishga doir hujjatlarning asosiy qoidalari nafaqat Konstitutsiya, shuningdek O'zbekiston ishtirokchisi bo'lgan xalqaro shartnomalarning ustuvor prinsiplariga tayanadi.

Xalqaro shartnomalar qamrovining tobora kengayib, ahamiyati oshib borayotgani nuqtayi nazaridan, xalqaro huquq manbayi va ijtimoiy tuzumdan qat'i nazar, davlatlar hamda millatlar o'rtasidagi tinch hamkorlikni rivojlantirish vositasi sifatida qayd etish maqsadga muvofiq.

Professor H. Odilqoriyev qayd etganidek, shartnomaviy tartibga solish sohasining mun-

⁴ Умарохунов И.М. Республика Узбекистан и международное договорное право. – Т.: Узбекистан миллий энциклопедияси, 1998. Стр. 76.

⁵ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон нашриёти, 2023 йил. 11-б.

⁶ Арутюнян А.А. Международно-правовые основы военного сотрудничества Республики Армения и Российской Федерации: автореф.дисс.канд. юрид.наук. – Москва, 2004 г. Стр. 9.

tazam kengayib borishi xalqaro munosabatlar rivojlanishining qonuniyati hisoblanadi⁷.

Xalqaro shartnomalarning mudofaa va xavfsizlikni ta'minlashdagi o'rni avvalo O'zbekistonning milliy manfaatlari va prinsiplariga asoslanadi. Jumladan, xavfsizlikning bo'linmasligi, uni boshqa davlatlar hisobiga mustahkamlashga yo'l qo'yilmasligi, harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmaslik, agar ular bunday blokka aylansa chiqib ketish huquqini saqlab qolish, shuningdek, mamlakat hududida chet el harbiy bazalarini joylashtirmaslik kabi talablar xalqaro bitimlarda o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi 2004-yil 16-iyunda imzolangan "Strategik sheriklik to'g'risida"gi shartnomaning 1-moddasiga asosan o'zaro xavfsizlikni ta'minlash, global tahdid va da'vatlarga qarshi harakat qilish, mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlash, siyosiy, iqtisodiy va gumanitar sohalaridagi hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan strategik sherikchilik O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi munosabatlarni uzoq muddatli va har tomonlama rivojlantirishi ta'kidlangan.

O'zbekiston uchun mintaqada tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashda Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalar nihoyatda ahamiyatli sanaladi. Masalan, 1997-yil 25-aprelda Turkmaniston va Qirg'iziston davlatlari bilan harbiy sohada hamkorlik to'g'risidagi shartnomalar ratifikatsiya qilingan⁸. Mazkur hamkorlik nafaqat davlatlararo shartnomalar doirasida, shuningdek mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar miqyosida ham o'rnatilgan. Jumladan, 2007-yil 27-iyunda Bishkekda qabul qilingan "Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar o'rtasida hamkorlikdagi harbiy o'quvlarni o'tkazish to'g'risida"gi bitimni O'zbekiston 2018-yilda tan oldi.

Markaziy Osiyoda muhim hamkorlardan biri Qozog'istondir. Bugungi kungacha ikki tomonlama ahamiyatga molik 165 ta hujjat imzolandi. 2013-yilning 14-iyun kuni imzolangan O'zbekiston bilan Qozog'iston o'rtasida "Strategik sheriklik to'g'risida"gi shartnoma ular orasidagi asosiy hujjatlardan biri hisoblanadi. Unga asosan tomonlar harbiy, harbiy-texnikaviy va fuqarolik

mudofaasi sohalarida hamkorlik qiladi. Agar har ikki tomonning yoki tomonlardan birining xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi holat yuzaga kelsa, tomonlar o'zaro kelishuv asosida bunday holatlarni bartaraf qilish va muvofiqlashtirish choralarini ko'rib chiqadi.

Shu o'rinda O'zbekistonning Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti va Mustaqil davlatlar hamdo'stligi doirasida qabul qilingan xalqaro shartnomalariga ham to'xtalib o'tish lozim. YXHTning asosiy xalqaro hujjatlari qatoriga Xavfsizlik va hamkorlik yig'ilishining yakunlovchi Xelsinki akti (1975-yil), Yevropada oddiy qurollangan kuchlar to'g'risidagi shartnoma (1990-yil), Yangi Yevropa uchun Parij xartiyasini (1990-yil) kiritish mumkin.

O'zbekiston YXHT a'zoligiga 1992-yil 26-fevralda qabul qilindi va "Tinchlik yo'lida hamkorlik" dasturi doirasida sherigiga aylandi. 1994-yilda tomonlar o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatildi. 1996-yilda Hamkorlik va sheriklik to'g'risida O'zbekiston va YXHT o'rtasida bitim imzolandi.

O'zbekistonning MDH tarkibidagi o'rni haqida gapirganda, mintaqada mudofaa va xavfsizlikni ta'minlashda alohida o'ringa ega ekanligini ta'kidlash lozim. Hamdo'stlik 1991-yil 8-dekabrda imzolangan Mustaqil davlatlar hamdo'stligini tuzish to'g'risidagi bitim va unga 21-dekabrda qo'shimcha protokolga muvofiq tashkil topgan. Xususan, MDH ustavida Xelsinki yakunlovchi hujjatining barcha 10 ta prinsipi sanab o'tilgan.

Shuningdek, MDHda Tinchlikni saqlash kollektiv kuchlari va harbiy kuzatuvlar guruhi to'g'risidagi 1992-yil 20-martdagi bitim hamda 1992-yil 15-maydagi Toshkent shahrida imzolangan "Kollektiv xavfsizlik to'g'risida"gi shartnoma mudofaa va xavfsizlik borasidagi ko'p taraflama asosiy xalqaro hujjat sanaladi. Boshqa hujjatlar esa ikki tomonlama davlatlararo miqyosda tuzilgan.

Qayd etish kerakki, mudofaa va xavfsizlik bo'yicha xalqaro shartnomalar keng ma'noda turli sohalarida (harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy, gumanitar, ekologik va b.) tinchlikni saqlash va xavfsizlikni ta'minlashga yo'naltiril-

⁷ Одилкариев Х.Т., Очилов Б.Э. Ҳозирги замон халқаро ҳуқуқи. Т.: ЖИДУ 2002. 142-б.

⁸ Олий Мажлисининг 1997 йил 25 апрелдаги "Ўзбекистон Республикаси ва Қирғизистон Республикаси ўртасида ҳарбий соҳада ҳамкорлик тўғрисидаги шартномани ратификация қилиш ҳақида"ги 428-қарори. Олий Мажлис ахборотномаси, 1997 йил, 4-5-сон, 133-модда.

gan bo'ladi. Tor ma'noda, harbiy va siyosiy sohalarida tinchlik va xavfsizlik bilan bog'liq prinsip hamda me'yorlarni anglatadi.

Mudofaa va milliy xavfsizlik masalalari, jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi shartnomalarni funksiyasiga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin

1. Ommaviy qirg'in qurolini tarqatmaslik sohasidagi shartnomalar. Bunga "Yadro qurolini tarqatmaslik to'g'risida"gi shartnoma (1968-y. O'zbekiston uchun 07.05.1992-y. kuchga kirgan), "Bakteriologik (biologik) va toksik qurol-yarog'larni ishlab chiqish, tayyorlash va to'plashni man etish hamda ularni tugatish to'g'risida"gi konvensiya (10.04.1972-y. London, O'zbekiston uchun 26.01.1996-y. kuchga kirgan), "Yadroviy materialni jisman himoya qilish to'g'risida"gi konvensiya (03.03.1980-y. Nyu-York, O'zbekiston uchun 11.03.1998-y. kuchga kirgan)lar kiradi.

2. Xalqaro gumanitar huquq sohasidagi shartnomalar: "Harbiy asirlar bilan qilinadigan muomala to'g'risida"gi konvensiya (12.08.1949-y., O'zbekiston uchun 08.04.1994-y. kuchga kirgan), "Urush davrida tinch aholini himoya qilish to'g'risida"gi konvensiya (12.08.1949-y., O'zbekiston uchun 08.04.1994-y. kuchga kirgan), "Qurolli mojaro chiqqan hollarda madaniy boyliklarning himoya qilinishi to'g'risida"gi konvensiya (14.05.1954-y., O'zbekiston uchun 21.05.1996-y. kuchga kirgan).

3. Terrorizmga qarshi kurash sohasidagi xalqaro shartnomalar: "Bombali terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi konvensiya (15.12.1997-y., O'zbekiston uchun 23.05.2001-y. kuchga kirgan), "Moliyaviy terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi konvensiya (09.12.1999-y. O'zbekiston uchun 13.12.2000-y. kuchga kirgan), "Yadroviy terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi konvensiya (13.04.2005-y., O'zbekiston uchun 29.05.2008-y. kuchga kirgan).

4. Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi xalqaro shartnomalar: BMTning "Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasi" (15.11.2000-y. Nyu-York, O'zbekiston uchun 08.01.2004-y. kuchga kirgan), "Genotsid jinoyatining oldini olish va bunday jinoyat uchun jazo to'g'risida"gi konvensiya (09.12.1948-y. Nyu-

York, O'zbekiston uchun 08.12.1999-y. kuchga kirgan), "Yollanma jinoyatchilarni yollashga, ulardan foydalanish, moliyaviy ta'minlash va o'qitishga qarshi kurash to'g'risida"gi konvensiya (04.12.1989-y., O'zbekiston uchun 20.10.2001-y. kuchga kirgan).

5. Strategik hamkorlik sohasidagi shartnomalar. Bunga O'zbekiston bilan AQSh o'rtasidagi "Strategik sheriklik va hamkorlik asoslari to'g'risida"gi deklaratsiya (2002-y.), O'zbekiston bilan Xitoy o'rtasida "Strategik sheriklikning ikki tomonlama munosabatlarini yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish to'g'risida"gi qo'shma deklaratsiya, O'zbekiston bilan Yaponiya o'rtasida "Do'stlik, strategik sheriklik va hamkorlik to'g'risida"gi qo'shma bayonot (2002-y.), O'zbekiston bilan Koreya Respublikasi o'rtasidagi "Strategik sheriklikni yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish to'g'risida"gi qo'shma deklaratsiya (2014-y.), O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi "Strategik sherikchilik to'g'risida"gi shartnoma(2004-yil)lar kiradi.

6. Ittifoqchilik munosabatlari sohasidagi xalqaro shartnomalar. O'zbekiston Rossiya hamda Xitoy bilan shunday shartnoma tuzgan.

7. O'zbekiston o'zining yaqin mintaqaviy qo'shnisi hamda global muammolarni hal etishda muhim o'rin tutadigan davlat sifatida Xitoy bilan strategik hamkorlik munosabatlarini mustahkamlashdan manfaatdordir. XXR bilan ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirish 2012-yil 6-iyunda imzolangan O'zbekiston bilan Xitoy o'rtasida "Strategik hamkorlik munosabatlarini o'rnatish to'g'risida"gi qo'shma deklaratsiyaga asoslanadi⁹.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, yillar davomida shakllanayotgan tajriba ko'rsatayotganidek, mudofaa va xavfsizlik bo'yicha xalqaro standart va qoidalar hech bir davlatda yoki mintaqada mavjud emas. Davlatlar o'rtasidagi kelishuv va bitimlar ishtirokchi davlatlarning hamkorligini muvofiqlashtiradi, milliy qonunchiligida aksini topib keladi. Va bu borada O'zbekistonda ham yetarlicha qonunchilik amaliyoti shakllandi.

Sarvar XOLIQOV,

Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

⁹ Ўзбекистон Республикасининг "Ўзбекистон Республикаси Ташқи сиёсий фаолияти концепциясини тасдиqlаш тўғрисида"ги 2012 йил 10 сентябрдаги 330-қонуни //Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг ахборотномаси. 2012 йил /№ 9/1 (1437).

Turdosh huquqlarning ijtimoiy tarmoqlarda muhofazasi: milliy va xalqaro tajriba

Bugungi kunda internet va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi intellektual mulk sohasiga, ayniqsa mualliflik va turdosh huquqlarga yangi shaklda tahdidlar keltirmoqda. Ilgari ijrochilar, fonogramma ishlab chiqaruvchilar yoki efir tashkilotlari mahsulotlarini an'anaviy tarqatish imkoniyatiga ega bo'lgan bo'lsa, hozir ularning mehnat natijalari ijtimoiy tarmoqlar orqali soniyalar ichida butun dunyoga tarqalishi mumkin. Bu esa ijodkorlarning huquqlarini ta'minlash va muhofaza qilishda yangi muammolarni yuzaga chiqarmoqda¹.

Ayniqsa, "Facebook", "YouTube", "Instagram", "TikTok" kabi ommabop ijtimoiy tarmoqlar ijodkorlar uchun katta imkoniyatlar yaratishi bilan birga turdosh huquqlarning buzilishini ham sezilarli ko'paytirmoqda. Masalan, ijrochining konsert yozuvi yoki jonli ijrosi ruxsatsiz tarmoqqa yuklanishi, fonogramma ishlab chiqaruvchining asari turli montajlar orqali qayta ishlanishi yoki efir tashkiloti tayyorlagan ko'rsatuvlar noqonuniy ravishda tarqatilishi ko'p uchraydigan huquqbuzarliklardan hisoblanadi. Bunday holatlar ijodkorlarning moddiy manfaatlariga ziyon yetkazish bilan cheklanmay, ularning ma'naviy huquqlari va ijtimoiy obro'siga ham putur yetkazadi.

Turdosh huquqlar sohasidagi muammolarning yana bir muhim jihati shundaki, ijtimoiy tarmoqlar transchegaraviy xususiyatga ega. Masalan, O'zbekistondagi ijodkorning asarini Amerika yoki Yevropadagi foydalanuvchi noqonuniy tarqatishi mumkin. Bu holat milliy huquq tizimining chegaralaridan tashqariga chiqib, huquqiy muhofazani ta'minlashda xalqaro hamkorlikni talab qiladi. Shu bois turdosh huquqlarni muhofaza qilish masalasi faqat milliy qonunchilik darajasida emas, balki xalqaro huquqiy hujjatlar va shartnomalar asosida ham hal etilishi zarur.

Turdosh huquqlarni muhofaza qilishda fuqaroviy-huquqiy usullarning ahamiyati

Ta'kidlash lozimki, fuqaroviy-huquqiy usullar turdosh huquqlarni muhofaza qilishda muhim vositalardan biri hisoblanadi. Chunki aynan fuqaroviy tartibda sudga murojaat qilish, keltirilgan moddiy zararni qoplash, ma'naviy tovon undirish, asardan noqonuniy foydalanishni to'xtatish kabi choralar orqali ijodkorning buzilgan huquqlarini tiklash mumkin. Bugungi kunda sud amaliyotida elektron dalillarning ahamiyati ortib bormoqda. Xususan, skrinshotlar, internet sahifalaridan olingan ma'lumotlar va raqamli izlarni huquqiy jaryonda ishonchli isbot sifatida qo'llash zaruriyati tug'ilmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar ma'muriyatining javobgarligini kuchaytirish ham dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Aksar hollarda huquq egalari da'vosini taqdim etgan bo'lsa-da, platformalar noqonuniy kontentni kechiktirib o'chiradi yoki umuman chora ko'rmaydi. Bunday holat huquq egalarining qonuniy manfaatlariga salbiy ta'sir ko'rsatib, ularning moddiy va ma'naviy yo'qotishlarini kuchaytiradi. Shu bois ijtimoiy tarmoqlar ma'muriyatini huquqbuzarliklarga nisbatan befarq qolmaslikka majbur etuvchi huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish lozim.

¹ Yuldashov A.A. Intellectual property law policy in Uzbekistan. – Global Scientific Review, 2023.

Shu tarzda raqamli muhitda turdosh huquqlarni muhofaza qilish masalasi nafaqat milliy huquqiy islohotlarni, balki xalqaro hamkorlikni mustahkamlashni ham taqozo etadi. Bu masala hozirgi global raqamli maydonda ijodkorlar manfaatlarini ta'minlash uchun dolzarb hisoblanadi.

Turdosh huquqlarning huquqiy asoslari

O'zbekistonda turdosh huquqlarning huquqiy asoslari qonunchilikda belgilangan bo'lib, ular ijodkorlar hamda turdosh huquq egalari manfaatlarini muhofaza qilishda muhim o'rin tutadi. Xususan, "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunda ijrochilar, fonogramma ishlab chiqaruvchilar va efir tashkilotlarining huquqlari, ularning mahsulotidan qonuniy foydalanish shartlari aniq tartibga solingan. Shu bilan birga Fuqarolik kodeksi normalarida turdosh huquqlar umumiy mulkiy va nomulkiy huquqlar qatorida himoyaga olingan bo'lib, ulardan ruxsatsiz foydalanish huquqbuzarlik sifatida baholanishi ko'rsatib o'tilgan².

Qonunchilikdagi mazkur normalar ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilayotgan asarlar va ijrolar ustidan huquq egalari talab qo'yish imkoniyatini ta'minlaydi. Masalan, ijrochi chiqishidan ruxsatsiz foydalanish holatlarida sudga murojaat qilib, noqonuniy kontentni yo'qotish, zararini qoplash yoki tovon undirish huquqiga ega. Bu holat turdosh huquqlarning milliy huquq tizimida mustahkam huquqiy asosga ega ekanidan dalolat beradi.

Biroq turdosh huquqlarni muhofaza qilish masalasi faqat milliy qonunchilik doirasida hal etilishi yetarli emas. Chunki raqamli muhitdagi huquqbuzarliklar chegara bilmaydi va ko'p hollarda turli davlatlarda joylashgan ijtimoiy tarmoqlar platformalari orqali sodir etiladi. Shu sababli O'zbekiston xalqaro hujjatlarga ham qo'shilib, ularning talablarini milliy amaliyotga tatbiq etib kelmoqda.

Xususan, 1961-yilda qabul qilingan Xalqaro Rim konvensiyasi ijrochilar, fonogramma ishlab chiqaruvchilar va efir tashkilotlarining huquqlarini xalqaro darajada tan olish va himoya qilishni kafolatlaydi³. 1994-yilgi TRIPS bitimi esa savdo munosabatlari bilan bog'liq intellektual mulk

huquqlarini himoya qilishning umumiy standartlarini belgilaydi va barcha a'zo davlatlar uchun majburiy qoidalarni joriy qiladi. Shu bilan birga "WIPO Performances and Phonograms Treaty" (1996) raqamli muhitda ijrolar va fonogrammalarning muhofazasini mustahkamlaydi⁴.

Shu tariqa O'zbekistonda turdosh huquqlarning huquqiy asoslari nafaqat milliy qonunchilikda, balki xalqaro huquqiy hujjatlarda ham ifodasini topgan. Ularning uyg'unligi ijtimoiy tarmoqlarda huquqlarni samarali himoya qilishga xizmat qiladi. Bu esa milliy amaliyotni global standartlarga yaqinlashtirish bilan birga ijodkorlar uchun keng huquqiy kafolatlarni yaratadi.

Ijtimoiy tarmoqlarda turdosh huquqlarning buzilishi va fuqaroviy-huquqiy muhofaza choralari

Ijtimoiy tarmoqlarda turdosh huquqlarning buzilishi turli ko'rinishlarda namoyon bo'lib, ijodkorlar manfaatlariga jiddiy zarar yetkazmoqda. Eng avvalo, ijrochilarning konsert yozuvlari va turli chiqishlari ko'p hollarda ularning roziligisiz tarqatiladi. Bu ijrochining mehnatidan noqonuniy foydalanish bo'lib, ularning moddiy daromadlarini kamaytiradi, ma'naviy manfaatlarini himoyasiz qoldiradi.

Shuningdek, fonogrammalarning noqonuniy ko'chirilishi ham keng tarqalgan muammolardanidir. Masalan, prodyuserlik kompaniyalari yoki ijrochilar tayyorlagan musiqa asarlari ijtimoiy tarmoqlarga ruxsatsiz yuklanib, ommaga tarqatiladi. Bu holatda asarning qonuniy tarqatilishi cheklanib, huquq egasi moliyaviy yo'qotishga duchor bo'ladi.

Konsert va sport musobaqalarining internet orqali "layv-stream" tarzda noqonuniy uzatilishi ham ko'plab bahslarga sabab bo'lmoqda. Chunki bu holatlarda efir tashkilotlari yoki tadbir tashkilotchilariga tegishli huquqlar buziladi. Foydalanuvchilar amalga oshirgan noqonuniy translatsiyalar qonuniy efir sohiblarining daromadini kamaytiradi va litsenziya shartlariga zid holatlarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, asarlarni qayta ishlash, turli montajlar orqali o'zgartirish yoki plagiat holatlari ham ijtimoiy tarmoqlarda keng

² Юлдашов А.А. Актуальные вопросы преподавания наук интеллектуальной собственности в вузах Узбекистана. — Ilmiy maqola, ResearchGate, 2023.

³ Rome Convention for the Protection of Performers, Producers of Phonograms and Broadcasting Organizations. — WIPO, 1961.

⁴ Directive (EU) 2019/790. Copyright in the Digital Single Market (DSM). — EUR-Lex, 2019.

tarqalgan bo'lib, ijodkorlarning huquqlariga jiddiy putur yetkazmoqda.

Bunday huquqbuzarliklarga qarshi kurashish uchun fuqaroviy-huquqiy muhofaza choralari muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchi navbatda, sud orqali huquqbuzarlikni to'xtatish chorasi qo'llanib, ijtimoiy tarmoqda tarqatilayotgan noqonuniy kontentni olib tashlash to'g'risida qaror qabul qilinadi. Ikkinchidan, huquq egasi moddiy va ma'naviy zarar uchun tovon undirish huquqiga ega bo'ladi. Bu nafaqat keltirilgan yo'qotishni qoplashga xizmat qiladi, balki huquqbuzarlarning kelgusida bunday harakatlarini cheklashda ham tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Ayrim holatlarda sud huquqbuzarni qonuniy foydalanish uchun shartnoma tuzishga majbur qilishi mumkin. Masalan, ijrochining musiqa asaridan reklama roligi yoki videokontentda foydalanilgan taqdirda, huquq egasi bilan litsenziya shartnomasi tuzilishi shart qilinadi. Shu orqali asarning qonuniy ommalashishi ta'minlanadi. Yana bir muhim chora kontentni bloklash mexanizmidir. Platforma ma'muriyati huquq egasining murojaati asosida noqonuniy materiallarni yo'qotishi va uning tarqatilishini cheklashi mumkin.

Demak, ijtimoiy tarmoqlarda turdosh huquqlarning buzilishi nafaqat alohida ijodkorlar, balki butun soha rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois fuqaroviy-huquqiy muhofaza choralari samarali qo'llash, sud amaliyotini takomillashtirish hamda ijtimoiy tarmoqlar ma'muriyatining javobgarligini kuchaytirish masalasi bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda turdosh huquqlarning ijtimoiy tarmoqlarda buzilishiga qarshi qator mexanizmlar qo'llanmoqda.

“Notice and Takedown” (AQSh, YI) tizimi. Ushbu tizim huquq egasi murojaat qilganda ijtimoiy tarmoq yoki internet platformasining noqonuniy kontentni tez olib tashlashini nazarda tutadi. Bu huquqlarni himoya qilishda samarali mexanizm sifatida keng qo'llanadi.

Kompensatsiya mexanizmlari. Ko'p davlatlarda zarar miqdorini aniq hisoblash qiyin bo'lgan hollarda ham qonun bilan belgilangan stavkalar asosida tovon undiriladi. Bu esa huquq egasiga moddiy va ma'naviy yo'qotishlarni qoplash imkonini taqdim etadi.

Platformalarning javobgarligi. Agar ijtimoiy tarmoq ma'muriyati huquq egasining murojaati-

ni inobatga olmasa yoki huquqbuzarlikka sharoit yaratsa, ularning o'zi ham javobgarlikka tortilishi mumkin. Bu holat platformalarni huquqbuzarliklarga befarq qolmaslikka undaydi.

O'zbekistonda ham turdosh huquqlarning ijtimoiy tarmoqlarda buzilishi bo'yicha sud ishlari ortib borayotganiga qaramasdan, ularni hal etishda qator qiyinchiliklar mavjud.

Eng avvalo, elektron dalillarni to'plash, saqlash va protsessual qabul qilishda yetarlicha aniqlik yo'q. Masalan, skrinshotlar yoki internet sahifalaridan olingan ma'lumotlarning haqqoniyligi va ularning sudda dalil sifatida qo'llanishi ko'p hollarda bahslarga sabab bo'ladi. Bu huquq egalari manfaatlarini himoya qilishini qiyinlashtiradi.

Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoq ma'muriyatining asosan xorijiy davlatlarda joylashgani ham huquqbuzarlikka qarshi choralarni ko'rishga to'sqinlik qiladi. Milliy sud yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlar murojaatlarni ko'pincha uzoq muddatda ko'rib chiqadi, bu vaqtda noqonuniy kontentning tarqatilishi davom etaveradi. Shuning uchun ko'p hollarda huquq egalari asarlari ustidan nazoratni yo'qotib qo'yadi va ularning manfaatlari yetarli himoya qilinmaydi.

Turdosh huquqlarni ijtimoiy tarmoqlarda samarali himoya qilish uchun milliy qonunchilikni xalqaro tajriba bilan uyg'unlashtirish lozim. Raqamli muhitdagi huquqbuzarliklar ko'pincha transchegaraviy xarakterga ega bo'lgani bois O'zbekistonda nafaqat huquqiy bazani takomillashtirish, balki xalqaro hamkorlikni ham kuchaytirish dolzarbdir.

Elektron dalillarning huquqiy maqomini mustahkamlash va ularni sud amaliyotida ishonchli qo'llash ijodkorlar manfaatini himoya qilishda muhim. Shu bilan birga ijtimoiy tarmoqlar ma'muriyati bilan samarali hamkorlik mexanizmlarini yo'lga qo'yish va ularning javobgarligini oshirish ham zarur.

Milliy va xalqaro yondashuvni uyg'unlashtirish, elektron dalillarga to'liq qonuniy kuch berish hamda platformalar javobgarligini kuchaytirishgina turdosh huquqlarni raqamli maydonda real himoya qilish imkonini beradi.

Lazizjon BAHROMOV,

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti mustaqil izlanuvchisi

“BAYI VAFO”

yoxud islom moliyasining o'tmishdagi ko'rinishi va unga o'xshash zamonaviy bitim turi haqida

Hayotimizni bank-moliya tizimisiz tasavvur qilish qiyin bo'lib qoldi. Ushbu tizim jamiyatning har bir sohasiga kirib bordi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Rivojlangan davlatlarning 19-asrda boshlangan dunyoni zabt etishga qaratilgan harbiy harakatlari natijasida 20-asr boshiga kelib yer yuzining deyarli barcha hududlari ular tomonidan qaysidir shaklda zabt etildi. Natijada kapitalistik dunyoning foiz siyosatiga asoslangan bank tizimi musulmon diyorlariga, jumladan Turkistonda ham joriy etildi. Mahalliy aholining moliyaviy bilim saviyasining pastligi hamda ming yillar davomida amalda bo'lgan shariat nazorati institutlari (shayxulislom, qozikalon, rais lavozimlari) bekor qilinishi tufayli e'tiqodiga zid bo'lsa-da, aholining mazkur muassasalarga murojaati yildan-yilga oshib bordi.

O'z navbatida ko'plab ijtimoiy va huquqiy muammolar kelib chiqqa boshladi. Ushbu muammolarni Mahmudxo'ja Behbudiy “Oyina” jurnalining 1914-yilgi 19-sonida “Oh, bonkalar bizni barbod etdi” maqolasida ko'tarib chiqdi¹.

Toshkent shahrida Munavvar qori va Abdu-rahmon Sayyoh tashabbusi bilan tashkil etilgan “Al-Isloh” jurnalining 1915-yilgi 4-sonida Sebzor dahasi qozisi Mulla Said Ahrorxon maxzum Abdul-layevning “Banklar xususidagi savolga javob” nomli maqolasi Turkiston o'lkasida katta shov-shuvlarga sabab bo'ldi. Maqolada “bankka qo'yilgan omonatdan tushadigan daromad sudxo'rlik bo'lgani kabi, foizi ham haromdir” degan xulosa bayon etilgani sababli musulmon boylari banklardan pullarini qaytarib olishni boshlagan. Natijada “Rus-Osiyo banki” inqirozga yuz tutishiga bir baxya qolgan, hukumat esa katta daromaddan mahrum bo'lgan. Banklarga foiz evaziga pul qo'yish haromligi haqidagi fikr Turkiston chor ma'murlarining g'azabini qo'zg'atdi.

Shundan so'ng Munavvar qori Turkiston o'lkasining maxfiy politsiyasi (oxranka) idorasiga chaqirilib, undan kelgusida bu kabi fikrlarni jurnalda nashr etmaslik, aks holda Turkistondan sur-

gun bo'lishi to'g'risida ogohlantirilgani bo'yicha tilxat yozib olingan².

Munozaralar Rossiyaning boshqa hududlarida davom etar edi. Jumladan, Samara shahri imomi Muhammad Fotih Murtazinning muassisligi, muharrirligi va nashirligida 1908–1913-yillarda “Iqtisod” jurnali nashr etilgan va islom moliyasi sohasidagi turli qarashlar jurnalda o'z ifodasini topgan³.

Savol tug'iladi: yurtimiz tarixida bugungi islom moliyasi bitimlari prototiplari uchramaydimi?

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti va Yaponiyadagi Kioto xorijiy davlatlarni o'rganish universiteti tomonidan 2001-yilda nashr etilgan “Каталог хивинских казийских документов” to'plamidagi ayrim qozixona hujjatlari – bitimlar e'tiborimizni tortdi.

Jumladan, 77-tartib raqamida 1808-yilgi oldi-sotdi munosabati o'z aksini topgan bo'lib, unga ko'ra sotuvchi 3 tanob yerni xaridorga 20 tillaga sotgan, sotuvchi pulni qaytarib bersa, xaridor yerni qaytarib berishi haqida taraflar o'zaro kelishgan.

109-tartib raqamidagi 1828-yilgi oldi-sotdi munosabatida sotuvchi hovlini xaridorga 10 tillaga sotib, sotuvchi 10 tillani qaytarsa, hovli qayta-

¹ M. Behbudiy, “Tanlangan asarlar”. – T.: – 2006 y., 167-bet.

² Munavvar qori Abdurashidxonov, “Tanlangan asarlar”. – T.: – 2003 y., 33-34-betlar.

³ И. Зарипов, “Иктисад” – первый российский журнал по исламской экономике. // “Филология и культура”, 2013 г., №1(31).

rib berilishi, sotuvchi har yili 2 tildan ijara haqi to'lab yerdan foydalanishi belgilangan.

39-tartib raqamida 1911-yilgi oldi-sotdi munosabati keltirilgan bo'lib, unga ko'ra, sotuvchi o'ziga qarashli bo'lgan yarim tanob yerni xaridorga 30 tilla sotib, sotuvchi 30 tilla qaytarsa, yeri qaytarib berilishi, sotuvchi har yili 3 tildan ijara haqi to'lab yerdan foydalanishi belgilangan.

Ushbu to'plamda mazkur toifadagi bitimlar rus tilida "закладная", o'zbek tilida esa "bayi joiz" tarzida berilgan, Buxoro ulamolari ushbu bitimni "bayi vafu" deb ham atashgani haqida ma'lumotlar mavjud.

Ta'kidlash joizki, 19-asr ikkinchi yarmida Turkiston Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingani mahalliy huquq tizimiga, jumladan bitimlarga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Ushbu davrga xos bo'lgan bitimlarda majburiyatni ta'minlash usullaridan ham foydalanish boshlangan.

Misol uchun, 245-tartib raqamidagi 1916-yilgi oldi-sotdi munosabatga ko'ra, sotuvchi yarim tanob yerni xaridorga 60 tilla sotgani, sotuvchi mazkur yerni yiliga 9 tilla evaziga ijaraga olishi, sotuvchi 60 tilla qaytarsa, xaridor yerni qaytarishi haqida kelishilgan. Ushbu bitimda ham uchinchi shaxs sotuvchi ijara haqini qaytarmasa, u qaytarishi belgilangan.

"Bayi joiz" yoki "bayi vafu" haqida xorijda olimlar ko'plab izlanishlar o'tkazishgan.

Jumladan, turkiyalik zamondosh olimlardan Okan Kadir Yilmaz "bayi joiz" yoki "bayi vafu" 10-12-asrlarda Movarounnahr o'lkasi olimlari tomonidan chuqur o'rganilgani va amaliyotda keng qo'llanilganini bayon qilgan⁴.

Aytib o'tish joizki, yurtimizda "bayi joiz" yoki "bayi vafu" bitimlarining qo'llanilishiga qarshi bo'lganlar ham bo'lgan. Masalan, Abdurauf Fitrat ushbu bitimlarni tanqid qilgani haqida ma'lumotlar bor⁵. Zamonaviy bank tizimi joriy etilgunga qadar yurtimiz aholisi moliyaviy ehtiyojlarini samarali qondirish usullari bo'lgani ayon bo'lmoqda.

Bugungi kunda qonunchiligimizda huquqiy tabiatiga ko'ra "bayi joiz" yoki "bayi vafu" bitimlariga yaqin bo'lgan shartnoma turini ham ko'rib chiqishga harakat qilamiz.

Fuqarolik kodeksining 587-moddasiga ko'ra, lizing shartnomasi bo'yicha lizing beruvchi (ija-

raga beruvchi) bir taraf lizing oluvchi (ijaraga oluvchi) ikkinchi tarafning topshirig'iga binoan sotuvchi uchinchi taraf bilan undan lizing oluvchi uchun mol-mulk sotib olish haqida kelishish majburiyatini oladi, lizing oluvchi esa buning uchun lizing beruvchiga lizing to'lovlarini to'lash majburiyatini oladi.

Mazkur kodeksning 589-moddasi to'rtinchi qismiga ko'ra, lizing beruvchi mol-mulkni bo'ljak foydalanuvchidan sotib olgan taqdirda yoxud lizing beruvchi kelajakda mol-mulkni sotuvchiga lizing bo'yicha topshirish uchun undan shu mol-mulkni sotib olish maqsadida uni mablag' bilan ta'minlagan taqdirda bir shaxsning o'zi ham lizing oluvchi, ham sotuvchi bo'lishiga yo'l qo'yiladi.

"Lizing to'g'risida"gi qonunning 5-moddasiga ko'ra, lizing uning uchta subyekti ishtirok etadigan to'g'ridan-to'g'ri shaklda ham, lizing oluvchi va sotuvchi bo'lib bir shaxsning o'zi ishtirok etadigan qaytariladigan shaklda ham amalga oshirilishi mumkin.

Olimlarimizdan O. Hazratqulovning fikriga ko'ra, lizing mulkning egasi mulkni lizing beruvchiga sotishi va ushbu mulkni lizing beruvchidan o'zi lizingga olishi "qaytarma lizing (sale and leaseback)" shartnomasi deb ataladi. Taraflar o'rtasidagi shartnomaviy munosabatda bir shaxs ham sotuvchi, ham lizing oluvchi bo'lib qatnashadi va o'zida garov va ssuda shartnomasi belgilarini qamrab oladi⁶.

Fikrimizcha, qaytarma lizingning biz uchratgan "bayi joiz" yoki "bayi vafu" bitimidan farqlari quyidagilardan iborat:

– "bayi joiz" yoki "bayi vafu" bitimida muddat ko'rsatilmaydi;

– "bayi joiz" yoki "bayi vafu" bitimida mulkning narxi qismlarga bo'linib, ijara to'lovi bilan birlikda to'lanmaydi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, yurtimiz aholisi o'zining moliyaviy ehtiyojlarini qondirish uchun maqolada keltirilgan bitim turidan samarali foydalangan va ushbu holat joriy etilayotgan islom moliyasining yurtimiz uchun begona emasligini ko'rsatadi.

Mirkomil MIRMAKSUDOV,

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil tadqiqotchisi

⁴ Yilmaz, Okan Kadir. "Bey'u'l-Vefânın Hukukî Niteliği Hakkındaki Görüşlerin Hanefî Fetvâ Literatüründeki Kronolojik Gelişimi -4/10-6/12. Yüzyıllar-". Tasavvur - Tekirdağ İlahiyat Dergisi 9/2 (Aralık 2023): 1639-1668.

⁵ Р. Р. Фитрат, Б. К. Сергеев, "Казийские документы 16 века", Т., 1937 г., стр. 68.

⁶ О. Хазраткулов (2013). Лизинг шартномасининг турлари ва таснифи. Обзор законодательства Узбекистана, (2), 11-15 бет.

Qadimgi davrda

nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarining paydo bo'lishi xususiyatlari

Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini ta'minlash masalasi qadimgi davrlardan boshlab inson huquqlari evolyutsiyasining tarixiy jarayonlari bilan uzviy bog'liqdir. Chunki ushbu sohadagi dastlabki yondashuvlar ko'proq madaniy va diniy an'analar ta'sirida shakllangan bo'lib, zamonaviy huquqiy me'yorlardan tubdan farq qilgan. Masalan, Xammurapi kodeksida nogironlarning huquqlariga alohida e'tibor qaratilmagan bo'lsa-da, xavfsizlik va javobgarlikni ta'minlovchi ayrim normalar, jumladan, bino qulab tushgan holatda quruvchiga nisbatan belgilangan jazolar bilvosita ularning manfaatlarini muhofaza qilgan¹.

Bunday me'yorlar nogironlarning jamiyatga integratsiyasini qo'llab-quvvatlagan bo'lsa-da, ularning mustaqil huquqiy maqomiga yetarlicha e'tibor qaratmagan. Zamonaviy huquqiy yondashuv nuqtayi nazaridan bu holat muammoli jihat sifatida baholanadi.

V. Myasnyankinning tadqiqotlarida ham qadimgi davlatlardagi umumiy xavfsizlik normalari nogironlar huquqlarini bilvosita qo'llab-quvvatlagani qayd etiladi². Biroq mazkur yondashuvni to'liq qabul qilish qiyin, chunki bunday normalar avvalambor jamiyatning umumiy manfaatlariga xizmat qilgan, lekin nogironligi bo'lgan shaxslarning alohida ehtiyojlarini to'liq qamrab olmagan.

Qadimgi davrlardan tortib I asrning umum-bashariy tashabbuslarigacha bo'lgan uzoq tarixiy jarayon davomida nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim olish huquqi, mehnat bozorida ishtirok etishi, ijtimoiy himoya va jamiyat hayotidagi faol qatnashuvini ta'minlash yo'lida muhim bosqichlar bosib o'tilgan. Ayniqsa, qadimgi davr va o'rta asrlarda nogironlikka munosabat jamiyatlarning

madaniy, diniy va ijtimoiy tuzilishiga qarab sezilarli darajada farqlanib kelgan.

Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, jumladan, nogironlarning muammolari va ularni hal etishga oid ilk qarashlar Sharq mutafakkirlari asarlarida ham o'z ifodasini topgan. Xususan, zardushtiylarning muqaddas kitobi – “Avesto”da nogironlik masalasiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, unda davolashtan ko'ra, uning oldini olishga ustuvor ahamiyat berilgan.

Qadimgi arxeologik topilmalar va manbalariga ko'ra, Misrda nogiron shaxslar ko'pincha ibodatxonalarda xizmat qilishga jalb etilgan. Ayrim hollarda ular muqaddas shaxs sifatida qabul qilingan hamda ilohiy kuchlar bilan aloqador deb hisoblangan.

Qadimgi Yunonistonda esa vaziyat boshqacha bo'lib, nogiron bolalar ko'pincha jamiyatdan chetlatilgan. Aflotun va Arastu asarlarida nogironlik jamiyat uchun “foydasizlik” sifatida talqin qilangani natijasida bunday shaxslar hayotda yakkalanib qolgan³. Bizning nazarimizda, bu kabi qarash-

¹ Мингбоева С.И. Имплементация международных стандартов по правам людей с ограниченными возможностями в национальное законодательство. – Ташкент: ТГЮУ, 2024. – С.13 (59).

² Мяснянкин В. Н. Международный договор в правовой системе Российской Федерации: действительный и действующий. // Право и политика. 2004. № 10. С. 60-68. URL: https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=49643.

³ Kiefer, Thomas Joseph. “Reason and Normative Embodiment in Plato’s Republic: On the Philosophical Creation of Disability.” Fordham University, 34(1), 2014.

lar qadimgi yunon jamiyatining estetik va funksional g'oyalari asoslangan bo'lib, nogironlikni faqat jismoniy nuqson sifatida ko'rishga undagan.

Muallimi soniy nomi bilan mashhur bo'lgan buyuk ajdodimiz Abu Nasr Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida nogiron bolalarning ijtimoiy-moddiy ta'minoti davlat tomonidan amalga oshirilishi kerakligini uqtirgan. Ushbu asarda keltirilishicha, "Fozil shaharda kambag'allar bo'lmaydi, ammo nogiron va bemor insonlar bo'lishi mumkin. Ularni ta'minlash uchun mablag' davlat xazinasidan ajratilishi kerak. Imkon doirasida ularni foydali ishga jalb etish lozim"⁴.

Qadimgi Rimda nogironlarga munosabat murakkab va ziddiyatli xususiyat kasb etgan. Rim qonunlarida ularning huquqlariga oid aniq normalar bo'lmagan bo'lsa-da, nogironlar ko'pincha oilaviy mas'uliyat doirasida qaralgan. Tit Liviy asarlarida nogironlarga nisbatan rahm-shafqat ko'rsatilgani haqida ma'lumotlar uchraydi. Biroq ularning jamiyatdagi mavqeyi pastligicha qolganini kuzatish mumkin⁵.

Rimda nogironlik ayrim hollarda ilohiy jazo sifatida talqin qilingani sababli bunday shaxslarga nisbatan salbiy qarashlar shakllangan. Marta Russell qadimgi jamiyatlardagi nogironlikka bunday munosabatni ularning iqtisodiy foydasizligi bilan izohlagan⁶. Bizningcha, qadimgi jamiyatlarda nogironlikka munosabatni faqat iqtisodiy nuqtayi nazardan baholash to'liq manzarani aks ettirmaydi, zero ko'p hollarda madaniy va diniy omillar ustuvor bo'lgan. Masalan, Yunonistonda nogiron bolalarni tashlab ketish odatiy hol hisoblanib, ular jamiyat uchun yuk sifatida qabul qilingan. Spartada bunday bolalar Taygetus tog'ida o'limga mahkum etilgan bo'lsa, Rimda ular Tibr daryosiga tashlangan yoki tilanchilik uchun ekspluatatsiya qilingan. Bu holatlar nogironlikka ilohiy jazo yoki nuqson sifatida qaralganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, qadimgi dunyoda nogironlikka munosabat turli madaniy xususiyatlarga ko'ra farq qilgan. Spartada ularning yashash imkoniyati cheklangan bo'lsa, Afinada ularga jamiyat hayotida muayyan ishtirok huquqlari berilgan.

O'rta asrlarda nogironlik ayrim hollarda muqaddaslik ramzi sifatida talqin etilgan. Masalan, nasroniy agiografiyasida nogironlarning "muqaddas azob-uqubatlari" haqidagi rivoyatlar keng tarqalgan. Bunday tasavvur ularning jamiyatda muayyan mavqega ega bo'lishiga xizmat qilgan bo'lsa-da, to'liq ijtimoiy integratsiyasiga to'sqinlik qilgan. Bundan farqli ravishda musulmon jamiyatlarida nogironlikka munosabat biroz pragmatik bo'lgan, jamoatning mas'uliyati ularni moddiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Rimda nogironlar uchun qonunan vasiylik tizimi, ayniqsa urush qatnashchilari uchun davlat yordami ko'zda tutilgan. Xitoyda esa maxsus qonunlar bo'lmasa-da, Konfutsiy ta'limotlari asosida ularga muayyan darajada g'amxo'rlik qilingan. Bu tarixiy tajribalar nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini tan olish yo'lidagi dastlabki qadamlar sifatida baholanishi mumkin. Biroq ularning to'liq ijtimoiy integratsiyasi uchun huquqiy mexanizmlar zarur edi.

O'rta asrlarda nogironlikka munosabat diniy e'tiqodlar ta'sirida yanada murakkablashdi. Nasroniy jamiyatlarida u ko'pincha gunoh uchun ilohiy jazo sifatida talqin qilingan bo'lsa-da, xayr-ehson va rahm-shafqat g'oyalari yordam ko'rsatishni taqozo etgan. Masalan, Yevropada nogironligi bo'lgan shaxslar ba'zan cherkovlar himoyasiga olingan. Musulmon jamiyatlarida esa zakot va sadaqa kabi institutlar ularni qo'llab-quvvatlashga xizmat qilgan.

Sohibqiron Amir Temur davlatida ham nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari haqida alohida amru farmonlar amal qilgan. Jumladan, sohibqiron "Tuzuklari"da "...faqiru miskinlarga, biror bir kasb

⁴ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. -Toshkent: «Xalq merosi»,1993 й.- B.159.

⁵ Livius T. The history of Rome. 1896.

⁶ Russell M. Beyond ramps: Disability at the end of the social contract: A warning from an uppity cripp. Common Courage Press; 1998.

qilishga o'jiz shol-ko'rlarga nafaqa belgilasinlar", deb qayd etilgan.

O'rta asrlarda nogironlik ayrim hollarda muqaddaslik ramzi sifatida talqin etilgan. Masalan, nasroniy agiografiyasida nogironlarning "muqaddas azob-uqubatlari" haqidagi rivoyatlar keng tarqalgan. Bunday tasavvur ularning jamiyatda muayyan mavqega ega bo'lishiga xizmat qilgan bo'lsa-da, to'liq ijtimoiy integratsiyasiga to'sqinlik qilgan. Bundan farqli ravishda musulmon jamiyatlarida nogironlikka munosabat biroz pragmatik bo'lgan, jamoatning mas'uliyati ularni moddiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Muhammad Galiyning ta'kidlashicha, Islomda nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan ijtimoiy adolat g'oyalari muhim rol o'ynagan, lekin bu yondashuv ularning mustaqilligiga emas, balki ularga xayriya asosida yordam berishga qaratilgan⁸.

Rimda nogironlik ayrim hollarda ilohiy jazo sifatida talqin qilingani sababli bunday shaxslarga nisbatan salbiy qarashlar shakllangan. Marta Russell qadimgi jamiyatlardagi nogironlikka bunday munosabatni ularning iqtisodiy foydasizligi bilan izohlagan⁶. Bizningcha, qadimgi jamiyatlarda nogironlikka munosabatni faqat iqtisodiy nuqtayi nazardan baholash to'liq manzarani aks ettirmaydi, zero ko'p hollarda madaniy va diniy omillar ustuvor bo'lgan.

Qadimgi davr va o'rta asrlardagi qarashlarni tahlil qilishdagi asosiy muammolardan biri – nogironlikka munosabatning ko'pincha jamiyatning iqtisodiy va madaniy imkoniyatlari bilan cheklanganidir. Lenard Devis ta'kidlaganidek, o'rta asrlarda nogironlik tushunchasi hozirgi ma'noda mavjud bo'lmagan, balki u diniy va madaniy kontekstlar orqali shakllangan⁹. Bu fikrga qo'shilamiz, chunki o'sha davrlarda nogironlikka nisbatan yagona standart yondashuv bo'lmagan va bu holat ularning huquqini himoya qilish imkoniyatini cheklar edi. Shu bilan birga, bizningcha, mazkur munosabatlarni faqat diniy yoki madaniy omillar bilan izohlash to'liq manzarani ochib bermaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, xususan mehnat bozoridagi talablar va oilaviy tuzilmalar ham nogironlarning jamiyatdagi mavqeyini belgilashda muhim rol o'ynagan.

Shu tariqa qadimgi va o'rta asrlarda nogironlikka munosabat diniy, madaniy va ijtimoiy omillarning murakkab ta'siri asosida shakllangan. Bu davrlarda nogironlarning jamiyatdagi o'zni ko'pincha iqtisodiy foydasizligi yoki diniy talqinlar bilan belgilanar, bu esa ularning to'liq ijtimoiy integratsiyasiga to'sqinlik qilar edi.

Ushbu tarixiy kontekstni chuqur tahlil qilish nogironlar huquqlarining keyingi rivojlanish jarayonlarini anglash uchun muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, qadimgi va o'rta asrlardagi qarashlarni faqat salbiy baholash ham to'g'ri emas, chunki ayrim jamiyatlarda nogironlarga nisbatan muayyan darajada ijobiy munosabatlar ham kuzatilgan. Bu esa keyinchalik huquqiy va ijtimoiy islohotlar uchun zamin yaratgan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, qadimgi davr va o'rta asrlarda ayrim jamiyatlarda nogironlarga nisbatan yordam va himoya choralari ko'rilgan bo'lsa, boshqalarida ularning jamiyatdan chetlatilishi kuzatilgan. Diniy e'tiqodlar, madaniy qadriyatlar va iqtisodiy sharoitlar nogironlar huquqlarining rivojlanish yo'nalishini belgilab bergan.

Tarixiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, nogironlar huquqlarini rasmiy e'tirof etish va ularning to'liq ijtimoiy integratsiyasini ta'minlash zamonaviy huquqiy tizimlar oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir.

Shuhrat HIKMATOV,

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

⁷ Amir Temur. Temur tuzuklari. –Toshkent: «Ilm-ziyo-zakovat» 2020. –127-b.

⁸ Ghaly, M.M., 2009. Physiognomy: a Forgotten Chapter of Disability in Islam: The Discussions of Muslim Jurists. Bibliotheca orientalis, 66(3), pp.162-198

⁹ Davis, L.J., 1995. Enforcing normalcy: Disability, deafness, and the body. Verso.

Hadya shartnomasi orqali ko'chmas mulkni begonalashtirishning ayrim masalalari

O'zbekiston Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini 2022–2026-yillarda rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi farmonida ko'chmas mulk bozorini rivojlantirish, mulkiy munosabatlarda shaffoflikni ta'minlash va fuqarolarning mulk huquqini himoya qilish mexanizmlarini mustahkamlash ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan. Ushbu maqsadlarga erishishda hadya shartnomasi orqali ko'chmas mulkni begonalashtirish institutining ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda ko'chmas mulk bozori jadal rivojlanmoqda va fuqarolar o'rtasida ko'chmas mulkni turli usullar bilan begonalashtirish holatlari ko'payib bormoqda. Jumladan, hadya shartnomasi orqali ko'chmas mulkni tasarruf etish mamlakatimizda keng tarqalgan. Shu bois ushbu sohada qonunchilik bazasini takomillashtirish, huquqiy muammolarni tahlil etish va notariat amaliyotini yaxshilash zarurati mavjud. Shuningdek, hadya shartnomasi orqali ko'chmas mulkni begonalashtirishning huquqiy oqibatlari, davlat ro'yxatidan o'tkazish tartib-taomillari, ishtirokchilarning huquq va majburiyatlari masalalarida hali ham qiyinchiliklar bor.

Hadya shartnomasi o'zining tekinlik xususiyati bilan oldi-sotdi, ayirboshlash va boshqa shartnomalardan keskin farq qiladi. Fuqarolik kodeksining 31-bobida hadya shartnomasi mustaqil huquqiy institut sifatida tartibga solingani uning huquqiy tabiati va xususiyatlarini alohida o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Amaliyotda ko'chmas mulkni hadya qilish jarayonida ushbu shartnoma turining o'ziga xos jihatlari namoyon bo'ladi. Jahon amaliyotida hadya shartnomasi orqali ko'chmas mulkni begonalashtirish borasida turlicha yondashuvlar qo'llaniladi va bu borada milliy huquqiy tizimimiz uchun eng maqbul modelni belgilash dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi hadya shartnomasini tuzish va amalga oshirish jarayonlarida ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Xususan, elektron hujjat almashinuvi va ko'chmas mulkni raqamli ro'yxatdan o'tkazish tizimlarini takomillashtirish bugungi kunning muhim talablaridan biriga aylanmoqda.

Qadimgi Rim tamaddunining huquqiy tizimida hadya munosabatlari alohida o'rin tutgan. Tarixiy manbalar shuni ko'rsatadiki, hadya instituti respublika davrida ham, imperatorlik davrida ham keng qo'llangan. Rim huquqshunolarining ta'riflashicha, hadya shartnomasining asosiy maqsadi – ashyoni boshqa shaxsga bepul topshirish bo'lib, bu jarayon turli shakllarda amalga oshirilgan.

Rim huquqshunolari hadya munosabatlarini keng qamrovda talqin qilganlar. Ular hadya shartnomasiga faqatgina mol-mulkni darhol topshirish emas, balki kelajakda topshirish majburiyati (ya'ni konsensual shakldagi shartnoma), shuningdek qarz talabidan voz kechish yoki turli huquqlarni berish kabi harakatlarni ham kiritganlar. Bunday keng qamrovli yondashuv Rim huquqining amaliy jihatlarga yaqinligi va hayotiy ehtiyojlarga moslashuvchanligini ko'rsatadi.

Qadimgi Rim huquqiy doktrinasida hadyaning asosiy belgisi – tekinlik prinsipi muhim o'rin egalagan. Bu prinsip hadya qiluvchi shaxsning javobgarlik darajasini aniqlashda va hadya shartnoma-

sini bekor qilish tartibini belgilashda asosiy mezon bo'lgan. Rim huquqshunoslari nazariyasiga ko'ra, hadya qiluvchi shaxsning javobgarligi asosan uning qasddan yoki bee'tiborlik ortidan sodir etgan harakatlari bilan cheklangan deb hisoblangan¹.

Hadya va xayr-ehson munosabatlari musulmon huquqida batafsil huquqiy tartibga solingan bo'lib, u chuqur ma'naviy-ruhiy, axloqiy va tarbiyaviy ahamiyat kasb etgan. Xususan, musulmon huquqida hadya – “hiba” deyilib, “fiqh qoshinda o'zining mulkida bo'lgan narsani yot kishiga barobarina narsa olmasdan mulk qilib bermoqdir”² deb ta'riflanadi.

Shariat huquqshunoslarining fikricha, hiba ikki taraflama kelishuv bo'lgani uchun hadya beruvchining irodasi qadar hadya qabul qiluvchining roziligi ham muhim rol o'ynaydi. Musulmon huquqida islom huquqshunoslari bu masalaga alohida e'tibor berganlar va hibaning huquqiy jihatdan to'liq bo'lishi uchun ikkala tarafning roziligi zarur deb hisoblaganlar. Islom fiqhining ta'limotiga ko'ra, hadya qabul qiluvchi shaxs o'z roziligini turli usullarda ifoda etishi mumkin. Birinchidan, u o'z roziligini og'zaki tasdiqlashi mumkin. Ikkinchidan, islom huquqshunoslari imo-ishora orqali rozilik bildirishni ham qabul qilganlar. Fiqh olimlarining fikricha, ayniqsa hiba marosimida ishtirok etayotgan shaxs hadya qilinayotgan buyumni qabul qilib olishi hibaning yakunlovchi elementi hisoblanadi³.

MDH mamlakatlari qonunchiligida hadya shartnomasini tartibga solishda turli xil yondashuvlar qo'llaniladi. Qozog'iston Fuqarolik kodeksining 506-moddasida keltirilgan ta'rif asosan O'zbekiston qonunchiligidagi formulirovka bilan uyg'un. Biroq Qozog'iston qonunchiligida diqqatga sazovor jihat shundaki, unda hadya qiluvchining hadya oluvchini o'z oldidagi mulkiy majburiyatdan ozod qilishi hadya predmeti sifatida nazarda tutilmagan. Bu holat faqat uchinchi shaxslar

oldidagi mulkiy majburiyatdan ozod qilish bilan cheklangan⁴.

Gruziya qonunchiligida hadya institutiga nisbatan yanada ixcham va aniq yondashuv tanlangan. Gruziya Fuqarolik kodeksining 524-moddasida keltirilgan ta'rif o'zining qisqaligi va aniqligi bilan ajralib turadi: “hadya shartnomasiga ko'ra hadya qiluvchi hadya oluvchiga uning roziligi bilan mol-mulkni tekinga beradi”. Bu ta'rifda hadya shartnomasining asosiy mohiyati – tekinlik va ikki taraflama xarakter yaqqol ko'rsatilgan. Gruziya qonunchiligida hadya predmeti sifatida faqat mol-mulk ko'zda tutilgan⁵.

Belarus qonunchiligida esa kengroq yondashuv tanlangan. Belarus Fuqarolik kodeksining 543-moddasida keltirilgan ta'rif O'zbekiston va Rossiya qonunchiligi bilan deyarli bir xil mazmunga ega. Mazkur normada hadya qiluvchi tomonidan ashyoni mulk qilib berish, mulk huquqi (talabi)ni berish hamda mulkiy majburiyatdan ozod qilish kabi turli shakllar nazarda tutilgan⁶.

Shuningdek, Rossiya Fuqarolik kodeksining 572-moddasida ham o'xshash tartibga solish prinsiplari qo'llanilgan⁷. Bu mamlakatlarning huquqiy tizimlaridagi o'xshashlik sovet davri qonunchiligining umumiy merosi va hozirgi zamon islohotlarining o'xshash yo'nalishlari bilan izohlanishi mumkin. Ammo har bir mamlakat o'zining milliy xususiyatlari va huquqiy an'analarini hisobga olgan holda ayrim o'zgartirishlar kiritgan.

Germaniya huquqiy tizimida hadya institutiga juda batafsil yondashilgan. Germaniya Fuqarolik tuzuklari (BGB)da hadya shartnomasini tartibga soluvchi qoidalar alohida strukturaga ega. “Majburiyat huquqi” deb nomlangan ikkinchi kitobning “Majburiyatning alohida turlari”ga bag'irlangan VII bo'limida hadya masalasiga maxsus 2-bob ajratilgan bo'lib, u 516–534-paragraflarni o'z ichiga oladi. Jami 19 ta paragraf hadya munosabatlarining turli jihatlarini tartibga soladi. Germaniya qonunchiligida hadya shartnomasiga

¹ Покровский И. А. История римского права. СПб., 1998. -С. 390.

² Мухтасар. (Шариат қонунларига қисқача шарҳ). – Т.: Чўлпон нашриёти. 1994. – 186-187-б.

³ Мақсудхўжа ибн Мансурхўжа. Мажмаъ ул-мақсуд: 2-қитоб / Масъул муҳаррир: Шайх Абдулазиз Мансур. – Т.: “Sharq”, 2015. -193-б.

⁴ Гражданский кодекс Республики Казахстан (Особенная часть): кодекс Республики Казахстан, 1 июля 1999 г., № 409-І: с изм. и доп. по состоянию на 14 июля 94 Секция 4. Актуальные проблемы юриспруденции 2017 г.

⁵ Гражданский кодекс Грузии: принят 26 июня 1997 г.: введ. в действие с 25 нояб. 1997 г.: с поправками и изм. на 26 нояб. 2001 г./Ассоц. «Юрид. центр»; науч. ред. З.К.Бигвава; пер. с груз. И.Мериджанашвили, И.Чиковани: Юрид. центр.пресс, 2002. –СПб. –С. 748.

⁶ Гражданский кодекс Республики Беларусь: кодекс Респ. Беларусь, 7 дек. 1998 г., № 218-З: в ред. Закона Респ. Беларусь от 9 янв. 2017 г. // Консультант Плюс: Беларусь. Технология 3000/000 «ЮрСпектр». –Минск, 2017.

⁷ Гражданский кодекс Российской Федерации, часть вторая: кодекс Российской Федерации, 26 янв. 1996 г., № 14-ФЗ: в ред. от 28 марта 2017 г. // Консультант Плюс: Российская Федерация.

berilgan ta'rif o'ziga xos xususiyatlarga ega. Mazkur normaga muvofiq, agar ikki taraf ham kelishib olgan bo'lsa va bu jarayon bepul amalga oshirilsa, bir shaxs o'z mulkiy resurslari hisobidan boshqa shaxsni moddiy jihatdan boyitishi hadya shartnomasi sifatida tan olinadi⁸.

Hadya shartnomasining subyektlariga nisbatan talablar Fransiya Fuqarolik kodeksining 901–912-moddalarida o'z ifodasini topgan. Uning 901-moddasiga ko'ra, hadya va vasiyatning kuchda bo'lishi uchun uni amalga oshirish paytida hadya qiluvchi va vasiyat qiluvchi sog'lom aql-hushga ega bo'lishi lozim. Kodeksning 902-moddasiga ko'ra, har kim hadya, shuningdek vasiyat bo'yicha biror bir narsani qo'lga kiritishi va tasarruf etishi mumkin, bundan faqat qonun bunga layoqatsiz deb topgan shaxslar istisno qilinadi⁹.

Hozirgi kunda hadya shartnomasi orqali ko'chmas mulkni begonalashtirish institutini o'rganishda bir qator ilmiy-nazariy muammolar mavjud. Birinchi navbatda hadya shartnomasining konsensual yoki real xarakterga egaligi masalasi to'liq aniqlanmagan. Fuqarolik kodeksining 502-moddasi tahlilidan ko'rinadiki, hadya shartnomasi ham hadya topshirish bilan, ham kelajakda topshirish va'dasi bilan tuzilishi mumkin. Ammo ko'chmas mulk holatida shartnoma tuzilishi va uning davlat ro'yxatidan o'tkazilishi o'rtasidagi munosabat hamda ularning mulk huquqi o'tishidagi roli aniq belgilanmagan. Bu holat amaliyotda turli muammolarga olib kelmoqda va huquqshunoslik fanida qarashlar turliligiga sabab bo'lmoqda.

Ikkinchi muhim muammo hadya shartnomasining bekor qilinishi masalalariga tegishli. Fuqarolik kodeksining 507-moddasida hadyani bekor qilish asoslari belgilab berilgan bo'lsa-da, hadyaning qaytarilishi jarayoni murakkablashadi. Chunki ko'chmas mulk fizik jihatdan qaytarilishi mumkin bo'lmagani uchun undan oldingi holatga keltirish amaliyoti faqat mulk huquqini qayta o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Lekin bu jarayonda uchinchi shaxslarning huquqlarini himoya qilish masalalari, ayniqsa hadya oluvchi tomonidan ushbu mulk yana begonalashtirilgan holatlarda aniq tartibga solinmagan. Shuningdek, hadya qiluvchining moddiy ahvoli yomonlashishi yoki boshqa

Rim huquqshunoslari hadya munosabatlarini keng qamrovda talqin qilganlar. Ular hadya shartnomasiga faqatgina mol-mulkni darhol topshirish emas, balki kelajakda topshirish majburiyati (ya'ni konsensual shakldagi shartnoma), shuningdek qarz talabidan voz kechish yoki turli huquqlarni berish kabi harakatlarni ham kiritganlar. Bunday keng qamrovli yondashuv Rim huquqining amaliy jihatlariga yaqinligi va hayotiy ehtiyojlarga moslashuvchanligini ko'rsatadi.

obyektiv sabablarga ko'ra shartnomani bajarishdan bosh tortishi masalalari ham qonunchilikda to'liq yoritilmagan.

Uchinchi ilmiy muammo hadya shartnomasi taraflarining huquq va majburiyatlari mazmuniga oid masalalar bilan bog'liq. Xususan, hadya qiluvchining ko'chmas mulkni topshirish majburiyati qay holatlarda vujudga kelishi, hadya oluvchining mulkni qabul qilishga oid majburiyatlari va ularning ijrosini ta'minlash vositalari qonunchilikda aniq belgilanmagan. Shuningdek, ko'chmas mulkning texnik holati hamda unga bog'liq majburiyatlar (kommunal to'lovlar, soliqlar va boshqalar) haqida hadya qiluvchining axborot berish majburiyati ham muammoli hisoblanadi. Bundan tashqari, hadya shartnomasi shartli xarakterga ega bo'lishi mumkinmi yoki mumkin emasmi degan masala ilmiy adabiyotlarda hanuzgacha bahsli bo'lib qolmoqda.

To'rtinchi muammo hadya shartnomasini bajarish jarayonida vujudga keladigan huquqiy munosabatlar bilan bog'liq. Jumladan, hadya qilingan ko'chmas mulkda kamchiliklar aniqlangan taqdirda hadya qiluvchining javobgarlik darajasi, shuningdek, hadya oluvchining mulkni saqlash va unga g'amxo'rlik qilish majburiyatlari qonunchi-

⁸ Германское гражданское Уложение. М.: Wolters Kluwer, 2011. –С. 137.

⁹ Гражданский кодекс Франции (Кодекс Наполеона). Code civil des Français (Code Napoléon) / перевод с французского В.Н. Захватаева. –Москва-Берлин: Инфотропик, 2012 г. –С. 419.

Shariat huquqshunoslarining fikricha, hiba ikki taraflama kelishuv bo'lgani uchun hadya beruvchining irodasi qadar hadya qabul qiluvchining roziligi ham muhim rol o'ynaydi. Musulmon huquqida islom huquqshunoslari bu masalaga alohida e'tibor berganlar va hibaning huquqiy jihatdan to'liq bo'lishi uchun ikkala tarafning roziligi zarur deb hisoblaganlar. Islom fiqhining ta'limotiga ko'ra, hadya qabul qiluvchi shaxs o'z roziligini turli usullarda ifoda etishi mumkin.

likda aniq belgilanmagan. Fuqarolik kodeksining 509-moddasi kamchiliklari mavjud mol-mulkni hadya qilish oqibatlarini nazarda tutgan bo'lsa-da, ushbu normalarning ko'chmas mulkka tatbiqi va amaliy jihatlari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Shu bilan birga, hadya oluvchining ko'chmas mulkdan shaxsiy ehtiyojlari uchun foydalanishi yoki uni ijaraga berishi kabi amaliy masalalar ham nazariy jihatdan to'liq o'rganilmagan.

Hadya shartnomasi orqali ko'chmas mulkni begonalashtirish institutining ilmiy-nazariy tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur huquqiy institut murakkab va ko'p qirrali.

Birinchidan, hadya shartnomasining tekinlik xususiyati uni fuqarolik huquqidagi mol-mulkni mulk qilib berishga yo'naltirilgan shartnomalar guruhiga kiritadi. Biroq ushbu guruh ichida hadya shartnomasi o'ziga xos o'rin egallaydi. Tekinlik belgisi uni oldi-sotdi, ayirboshlash kabi ekvivalent almashinuv shartnomalaridan ajratib turadi va unga alohida huquqiy rejim joriy etilishini taqozo qiladi. Ko'chmas mulkning yuqori iqtisodiy qiymati va huquqiy ahamiyati esa hadya munosabatlariga jiddiy va ehtiyotkorona yondashishni talab qiladi.

Ikkinchidan, ko'chmas mulkni hadya qilish shartnomasining notarial tartibda tasdiqlanishi va davlat ro'yxatidan o'tkazilishi uning yuridik tabiatini belgilaydigan muhim omillardan hisoblanadi. Mazkur rasmiy tartib-taomillar hadya shartnomasini oddiy konsensual bitimdan farq qilib, uni alohida huquqiy rejimga ega bo'lgan ras-

miy hujjatga aylantiradi. Shu bilan birga, davlat ro'yxatidan o'tkazish jarayoni mulk huquqining o'tishini rasmiylashtirish bilan cheklanib qolmay, uchinchi shaxslarga nisbatan huquqiy xabardorlik funksiyasini ham bajaradi.

Uchinchidan, hadya shartnomasini bekor qilish masalasi ko'chmas mulk munosabatlarida alohida murakkablikka ega. Fuqarolik kodeksining 507-moddasida nazarda tutilgan bekor qilish asoslari ko'chmas mulkka tatbiq etilganda yanada qat'iy va aniq talqin qilinishi talab etiladi. Masalan, hadya oluvchining hadya qiluvchi uchun katta nomulkiy qiymatga ega bo'lgan ashyoga nisbatan bee'tibor munosabati uning yo'qolib ketishi xavfini tug'dirishi mumkin. Ko'chmas mulkda esa bunday holat boshqacha mazmun kasb etadi: uning to'liq yo'q qilib yuborilishi deyarli mumkin emas, biroq uning iqtisodiy qiymati pasayishi yoki huquqiy holati buzilishi ehtimoli mavjud.

To'rtinchidan, hadya shartnomasi taraflarining huquq va majburiyatlari ko'chmas mulk xususiyatlaridan kelib chiqqan holda aniq belgilanishi lozim. Jumladan, hadya qiluvchi mulkning huquqiy holatini (kelib chiqishi va muomalada bo'lganini) tekshirish, zarur hujjatlarni taqdim etish va mulkni tashqi huquqiy da'volardan himoya qilish majburiyatiga ega. Hadya oluvchi esa mulkni qabul qilish, uni tegishli holatda saqlash hamda unga bog'liq majburiyatlarni o'z vaqtida bajarishi shart. Shuningdek, ko'chmas mulkka oid kommunal xizmatlar, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha yuzaga keladigan majburiyatlar taraflar o'rtasida aniq taqsimlanishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, hadya shartnomasi orqali ko'chmas mulkni begonalashtirish instituti fuqarolik huquqining murakkab va muhim yo'nalishlaridan biridir. Ushbu institutning samarali amal qilishi uchun uni tartibga soluvchi qonunchilik normalarini takomillashtirish, notariat hamda davlat ro'yxati organlari faoliyatini o'zaro integratsiya qilish zarur. Shuningdek, hadya shartnomasida ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy savodxonligini oshirish, ularni ushbu shartnoma turining o'ziga xos xususiyatlari va huquqiy oqibatlar haqida xabardor qilish ham muhim ahamiyatga ega.

Akmaljon RAHIMJONOV,

O'zbekiston Milliy universiteti "Huquqiy fanlar" kafedrasida katta o'qituvchisi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Meros shartnomasida subyektlarning huquq va majburiyatlari: qiyosiy-huquqiy tahlil

Hozirgi davrda fuqarolik va meros huquqining rivojlanish yo'nalishlari mulkiy munosabatlarni tartibga solishda shartnomaviy mexanizmlarni kengaytirishga qaratilgan. Ana shunday mexanizmlardan biri meros shartnomasi bo'lib, u vasiyatnomadan farqli ravishda ikki yoki undan ortiq shaxs o'rtasida tuziladigan bitim sifatida meros qoldiruvchining o'limidan keyin mulkning kimlarga va qanday taqsimlanishini oldindan belgilab qo'yadi.

Meros shartnomasi – meros qoldiruvchi va uning ehtimoliy vorislari o'rtasida tuziladigan hujjat, unda mulk meros qoldiruvchining o'limidan keyin kimlarga va qanday o'tishi, shuningdek, voris zimmasiga qanday majburiyatlar yuklanishi belgilab qo'yiladi. Vasiyatnomadan farqli o'laroq, meros shartnomasida tomonlar o'rtasida huquq va majburiyatlar yuzaga keladi. Bu esa huquqiy aniqlikni ta'minlab, nizo kelib chiqishining oldini olish imkonini beradi.

Meros huquqining subyektlari ikki turga bo'linadi: meros qoldiruvchi va merosxo'r. Meros ochilgan paytda hayot bo'lgan fuqarolar, shuningdek, meros qoldiruvchining hayotlik davrida homila holida bo'lgan va meros ochilgandan keyin tirik tug'ilgan bolalari vasiyat hamda qonun bo'yicha merosxo'r bo'lishlari mumkin.

Vasiyat bo'yicha merosxo'r sifatida har qanday shaxs (qarindoshlik darajasidan qat'i nazar) tayinlanishi mumkin. Qonun bo'yicha esa marhumning oila a'zolari, qarindoshlari hamda uning qarag'ida bo'lgan shaxslar merosxo'r sifatida tan olinadi.

Meros shartnomasining subyektlari – shartnomani tuzishda ishtirok etuvchi tomonlardir. Fuqarolik kodeksining 22-moddasiga ko'ra, fuqaro o'z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo'lish va ularni amalga oshirish, fuqarolik maj-

buriyatlarini zimmasiga olish hamda bajarish layoqatiga ega bo'ladi. To'liq muomala layoqati esa shaxs 18 yoshga to'lganda yuzaga keladi. Shuningdek, kodeksning 30-moddasiga muvofiq ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi tufayli o'z harakatlarning ahamiyatini anglay olmaydigan yo ularni boshqara olmaydigan fuqaro sud qaroriga ko'ra muomalaga layoqatsiz deb topiladi va unga vasiy tayinlanadi. Shunday qilib, meros shartnomasining ishtirokchilari – 18 yoshga to'lgan va to'liq muomala layoqatiga ega fuqarolar bo'lishi kerak.

Asosiy subyektlardan biri – meros qoldiruvchi, ya'ni o'z vafotidan keyin mulkning kimga va qanday tartibda o'tishini belgilovchi shaxsdir. U faqat to'liq muomala layoqatiga ega jismoniy shaxs bo'lishi mumkin. Bu talab shartnomani tuzishda qaror qilishning ongli va ixtiyoriy bo'lishini ta'minlash uchun zarur.

Keyingi subyekt – merosxo'r. U meros shartnomasiga muvofiq meros olish huquqiga ega bo'ladi yoki ayrim majburiyatlarni zimmasiga oladi. Fuqarolik kodeksining 1118-moddasida merosxo'rlarning doirasi belgilangan. Unga ko'ra meros ochilgan paytda hayot bo'lgan fuqarolar, shuningdek, meros qoldiruvchining hayotlik davrida homila holida bo'lgan va meros ochilgandan keyin tirik tug'ilgan bolalar vasiyat hamda qonun bo'yicha merosxo'r bo'lishlari mumkin. Meros ochilgan

paytda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar, davlat va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ham vasiyat bo'yicha merosxo'r sifatida belgilanishi mumkin¹.

O'zbekistonda merosni taqsimlash jarayonida merosxo'rlar beshtalik navbat asosida merosni qabul qilishadi. Fuqarolik kodeksiga ko'ra meros qoldiruvchining bolalari (shu jumladan farzandlikka olingan bolalari), eri (xotini) va ota-onasi (farzandlikka oluvchilar) teng ulushlarda birinchi navbatdagi vorislik huquqiga ega bo'ladi. Meros qoldiruvchining vafotidan keyin tug'ilgan bolalari ham birinchi navbatdagi vorislar jumlasiga kiradi.

Meros qoldiruvchining tug'ishgan hamda ona (ota) bir ota (ona) boshqa aka-ukalari va opa-singillari, shuningdek uning ham ota, ham ona tarafdin bobosi va buvisi teng ulushlarda qonun bo'yicha ikkinchi navbatdagi vorislik huquqiga ega bo'ladi.

Meros qoldiruvchining tug'ishgan amakisi, tog'asi, ammasi va xolasi teng ulushlarda qonun bo'yicha uchinchi navbatdagi vorislik huquqiga ega bo'ladi.

Meros qoldiruvchining oltinchi darajagacha (oltinchi daraja ham shunga kiradi) bo'lgan boshqa qarindoshlari qonun bo'yicha to'rtinchi navbatdagi vorislik huquqiga ega bo'ladi, bunda yaqinroq qarindoshlar uzoqroq qarindoshlarga nisbatan meros olishda imtiyozli huquqqa ega bo'ladi.

Beshinchi navbatdagi vorislik huquqiga ega shaxslar jumlasiga meros qoldiruvchining mehnatga qobiliyatsiz boqimlari kiradi. Fuqarolik kodeksiga ko'ra, meros qoldiruvchining mehnatga qobiliyatsiz boqimlari jumlasiga quyidagi shaxslar kiradi, ya'ni meros qoldiruvchining vafotiga qadar kamida bir yil uning qaramog'ida bo'lgan va u bilan birga yashagan mehnatga qobiliyatsiz shaxslar. Qonun bo'yicha boshqa merosxo'rlar bo'lgan taqdirda, mehnatga qobiliyatsiz boqimlar vorislikka chaqirilayotgan navbatning merosxo'rlari bilan birgalikda meros oladi².

Meros qoldiruvchi vasiyatnoma tuzishda qonun bilan belgilangan majburiy ulush huquqiga ega shaxslarning huquqlarini buzmasligi kerak.

Fuqarolik kodeksining 1142-moddasiga ko'ra, majburiy ulush huquqiga ega shaxslar quyidagilar: voyaga yetmagan farzandlar yoki mehnatga layoqatsiz farzandlar. Meros qoldiruvchining qaramog'ida bo'lgan va mehnatga layoqatsiz shaxslar (masalan, nogiron yaqin qarindoshlar) merosning ma'lum bir qismiga, ya'ni majburiy ulushga da'vo qilish huquqiga ega, hatto vasiyatnomada ularning nomi ko'rsatilmagan bo'lsa ham. Shuning uchun meros qoldiruvchi vasiyatnoma tuzayotganda ushbu shaxslarning huquqlarini hisobga olishi shart.

Meros shartnomasini tuzishning birinchi bosqichi sifatida meros qoldiruvchi va merosxo'r o'rtasida shartlar bo'yicha kelishuv amalga oshirishi lozim. Ushbu jarayon tomonlarning ixtiyoriy roziligiga asoslanadi, ya'ni hech qanday majburlash, bosim yoki aldov bo'lmasligi kerak. Bu holat Fuqarolik kodeksining 354-moddasida mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, unda shartnoma tuzish erkinligi tamoyili belgilangan³. U vasiyatnomadan farqli o'laroq, tomonlarning o'zaro roziligi va majburiyatlariga asoslanadi.

Meros shartnomasining ilk belgilari Rim xususiy huquqida ham vasiyatnomaga binoan va qonun bo'yicha meros qilish tartiblari bilan bir qatorda kuzatilgan va «ishonchli bitim» (pactum fiduciae) deb nomlangan⁴.

O'zbekiston qonunchiligida meros shartnomasi alohida institut sifatida aniq tartibga solinmagan bo'lsa-da, u shartnoma huquqining umumiy qoidalari va meros huquqiga oid normalar asosida qo'llanadi. Meros shartnomasida meros qoldiruvchi mulkning kimga, qanday shartlarda va qancha o'tkazilishini belgilash huquqiga ega bo'ladi. Merosxo'r esa shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni qabul qilish yoki rad etish huquqiga ega.

Kelishuv jarayonida tomonlar mulkning turi (ko'chmas mulk, transport, qimmatli qog'ozlar va boshqalar), merosxo'rning majburiyatlari (masalan, moddiy yordam, parvarish) hamda shartnomaning amal qilish muddati kabi masalalarni muhokama qilishi mumkin. Masalan, meros qoldiruvchi o'z uyini merosxo'rga berishni shart

¹ O'zbekistonning Fuqarolik kodeksi 2-qismi. 1997-yil 1-martdan kuchga kirgan (22.04.2025, 03/25/1060/0373-son) <https://lex.uz/docs/180552>.

² O'zbekistonning Fuqarolik kodeksi 2-qism. 1997-yil 1-martdan kuchga kirgan (22.04.2025, 03/25/1060/0373-son) <https://lex.uz/docs/180552>.

³ O'zbekistonning Fuqarolik kodeksi 2-qism. 1997-yil 1-martdan kuchga kirgan (22.04.2025, 03/25/1060/0373-son) <https://lex.uz/docs/180552>.

⁴ Пучков О.А. Пучков В.О. Наследственный договор как особый институт гражданского права иностранных государств: общая характеристика и проблемы правового режима // Журнал «Правопорядок: история, теория и практика», №3 (10). – 2016. – с. 35.

qilib, buning evaziga undan hayoti davomida oylik xarajatlarini to'lashni talab qilishi mumkin.

Shartnoma ixtiyoriy va qonuniy bo'lishi lozim. Agar u majburlash yoki aldash yo'li bilan tuzilgan bo'lsa, haqiqiy emas deb topiladi. Meros shartnomasi yozma shaklda tuzilib, notarial tasdiqlangan bo'lishi shart. Unda tomonlarning shaxsiy ma'lumotlari, mulkning aniq tavsifi, merosxo'ning majburiyatlari va shartnomaning amal qilish shartlari kabi muhim jihatlari aniq bayon etilishi kerak. Shuningdek, noaniqlik yoki ikki xil talqinga yo'l qo'yuvchi iboralar ishlatilmasligi lozim, chunki ular kelajakda nizoga sabab bo'lishi mumkin.

Shartnoma majburiy ulush huquqiga ega shaxslarning manfaatlarini buzmasligi kerak. Vasiyatnomadan farqli jihati shundaki, vasiyatnoma bir tomonlama bitim bo'lib, faqat meros qoldiruvchining xohishiga asoslanadi. Meros shartnomasi esa ikki tomonlama kelishuv bo'lib, unda merosxo'ning roziligi va majburiyatlari ham aks etadi. Shu bois u yanada barqaror hamda kelgusidagi nizolarni kamaytiruvchi mexanizm hisoblanadi.

Meros shartnomasi faqat tomonlar hayotligida o'zgartirilishi mumkin. Agar merosxo'r vafot etsa, shartnoma bekor qilinadi, chunki vakillik huquqi asosida uning o'rnini boshqa shaxs egallashi mumkin emas. Shartnoma shartlarini o'zgartirish bo'yicha tomonlar kelishuvga erishishi yoki sudga murojaat qilishi mumkin. Zarur hollarda meditatsiya tartibidan ham foydalaniladi. Shartlarni bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi; bunday holatda boshqa tomon sud orqali o'z huquqlarini himoya qilishi mumkin.

Meros munosabatlari fuqarolarning shaxsiy va mulkiy huquqlari kesishuvida turuvchi, sezgir va huquqiy yechim talab etuvchi sohadir. Amaliyotda vasiyatnomalarning mavjud emasligi, noto'g'ri rasmiylashtirilishi yoki merosxo'rlar o'rtasida kelib chiqadigan kelishmovchiliklar meros masalasini oldindan huquqiy hal qilish zarurligini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, meros shartnomasi zamonaviy va samarali huquqiy vosita sifatida maydonga chiqadi.

Qiyosiy-huquqiy tajribalar ham buni tasdiqlaydi. Masalan, Germaniya, Shveysariya, Avstriya ka-

bi davlatlarda meros shartnomasi orqali meros qoldiruvchi va merosxo'ning huquq hamda majburiyatlari oldindan aniq belgilanadi. Germaniya Fuqarolik kodeksida meros shartnomasi batafsil tartibga solinib, nafaqat mulkni taqsimlash, balki merosxo'ning muayyan majburiyatlari, jumladan meros qoldiruvchiga umrbod moddiy yordam ko'rsatishi ham nazarda tutiladi. Fransiyada esa meros shartnomasi (pacte successoral) oilaviy munosabatlarni mustahkamlash va mulk taqsimotini aniq belgilash vositasi sifatida qo'llanadi.

Shveysariya qonunchiligida meros shartnomasi ijobiy va salbiy turlarga ajratiladi. Ijobiy meros shartnomasi merosxo'rni belgilashga qaratilgan bo'lsa, salbiy meros shartnomasi orqali vorislar kelgusida merosga da'vo qilmaslik majburiyatini oladi. Bu ko'pincha majburiy ulush huquqiga ega shaxslar bilan tuziladi. Shveysariya huquqiy tizimining ushbu o'ziga xos jihati nizolarning oldini olishga xizmat qiladi⁵.

O'zbekiston qonunchiligida hozircha bunday institut yo'q. Vorislik munosabatlari asosan qonun bo'yicha yoki vasiyat asosida tartibga solinadi. Biroq bu shakllar har doim ham murosaga olib kelmaydi va ko'p hollarda nizoga sabab bo'ladi. Shu bois meros shartnomasi institutini milliy qonunchilikka joriy etish nafaqat zamonaviy huquqiy amaliyot talabi, balki jamiyatdagi shaxsiy hamda oilaviy munosabatlarni huquqiy mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Meros shartnomasi orqali:

- taraflar o'rtasidagi ishonch kuchayadi;
- yuridik aniqlik ta'minlanadi;
- fuqarolar o'z irodasini erkin ifoda etadi;
- ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarda barqarorlik yuzaga keladi;
- sud ishlari va huquqiy bahslar kamayadi.

Shunday ekan, meros shartnomasi institutini qonunchilikda mustahkamlash va amaliyotga tatbiq etish O'zbekistonda fuqarolik huquqining zamonaviylashuvi yo'lidagi muhim qadamlardan biri sifatida baholanishi lozim.

Shaxrizoda ABDIYEVA,
mustaqil tadqiqotchi

⁵ Shveysariya fuqarolik kodeksi. (01.09.2023 qabul qilingan)// Fedlex.admin.ch.Federal Law. 2023. Elektron manba: https://www.fedlex.admin.ch/eli/cc/24/233_245_233/en.

Sun'iy intellektdagi

“memorization” hodisasi

va huquqiy oqibatlari

Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari inson hayotining deyarli barcha jabhalariga ta'sir ko'rsatib, tez rivojlanmoqda. O'z-o'zini boshqaruvchi avtomobillar yo'llarda harakatlanmoqda, SI asosidagi tibbiy tashxis vositalari kam uchraydigan kasalliklarni aniqlashda odamlarni ortda qoldirmoqda, mahsulot tavsiya tizimlari xarid tajribasini optimallashtirmoqda, avtomatlashtirilgan kuzatuv usullari va jangovar robotlar mamlakatlar mudofaasini mustahkamlamoqda, ma'lumot olish dasturlari esa katta hajmdagi ma'lumotlarni qisqa vaqt ichida saralash imkonini bermoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, SI texnologiyalari kundalik hayotga jadal singib bormoqda. 2023-yilda AQShning Oziq-ovqat va dori vositalari boshqarmasi (FDA) 223 ta sun'iy intellektga asoslangan tibbiy qurilmani tasdiqlagan, holbuki 2015-yilda bu ko'rsatkich atigi oltita edi. Yo'llarda o'z-o'zini boshqaruvchi avtomobillar tajriba bosqichidan o'tib, AQShdagi Waymo har hafta 150 000 dan ortiq avtonom safarni amalga oshirmoqda, Xitoyda esa “Baidu”ning Apollo Go robotaksi parki bir nechta shaharga xizmat ko'rsatmoqda¹.

SI texnologiyalari sog'liqni saqlashdan sud-huquq tizimigacha keng doirada inqilobiy o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Algoritmlarning mustaqil qaror qabul qilishi va inson o'rniga muhim funksiyalarni bajarishi huquqiy savollarni keltirib chiqarmoqda: “Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda qanday huquqiy chegaralar mavjud bo'lishi kerak? Kim ushbu tizimlar tomonidan qabul qilingan qarorlar uchun javobgar bo'ladi?” Bu savollar nafaqat texnik, balki huquqiy, iqtisodiy va etik muammolarga aylandi.

SI texnologiyalari katta foyda keltirsa-da, ularning “disruptive” tabiati sezilarli muammolarni yuzaga keltirmoqda. SI ning turlari quyidagilardan iborat:

1. tor yo'naltirilgan SI (Narrow AI),
2. generativ SI (Generative AI),
3. diskriminativ SI (Discriminative AI),
4. umumiy SI (General AI),
5. o'zini anglovchi SI (Self-Aware AI),
6. sun'iy superintellekt (Artificial Super Intelligence)².

¹ hai.stanford.edu/ai-index/2025-ai-index-report.

² [linkedin.com/pulse/six-different-types-ai-explained-james-m-sims](https://www.linkedin.com/pulse/six-different-types-ai-explained-james-m-sims).

Bilamizki, generativ SI chuqur o'rganish modellaridan foydalanib, inson so'rovi asosida matn, tasvir, video va boshqa materiallar yaratadigan texnologiyadir.

Generativ SI samaradorlikni oshirib, xarajatlarni kamaytirsa-da, sun'iy kontent yaratishdagi xavflarni keltirib chiqaradi. Ko'plab mamlakatlar SI ni boshqarish va nazorat qilish bo'yicha tizimli dasturlarni joriy etdi. Generativ SI hali rivojlaniishning dastlabki bosqichida bo'lib, uning ishlash mexanizmlarini tushuntirish, xavflarni prognoz qilish va rivojlangan davlatlardagi qonunchilik tajribasini o'rganish qonunchilikni takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Texnik jihatdan, generativ SI "keyingi so'zni bashorat qilish" vazifasini bajaradi, ya'ni "autoregressiya" (Autoregression) jarayoni orqali javob generatsiya qiladi³. Tizim ma'lumotlarni an'anaviy qidiruv tizimlari kabi izlamaydi, balki lingvistik belgilar o'rtasidagi ehtimollik aloqalariga asoslanadi.

Generativ SI modellarini o'qitish katta hajmdagi ma'lumotlarni talab qiladi, ammo ularning ko'pi mualliflik huquqi bilan himoyalangan. Bu esa mualliflik huquqini buzish xavfini keltirib chiqaradi. AQShda SI ishlab chiquvchilar "fair use" (adolatli foydalanish) tamoyiliga tayanadi, Yevropada esa "Text and Data Mining (TDM)" istisnosi qo'llanadi.

"Fair Use" AQSh mualliflik huquqi tizimida muayyan hollarda himoyalangan asarlardan foydalanishni qonuniy deb tan oladi va to'rt mezon asosida baholanadi:

1. foydalanishning maqsadi va xarakteri (ilmiy, tijorat yoki ta'lim),
2. mualliflik asarining tabiati,
3. foydalanilgan hajm va asarning umumiy qismiga nisbati,
4. foydalanishning mualliflik asariga bo'lgan bozor qiymatiga ta'siri⁴.

Yevropa Ittifoqida TDM ilmiy-tadqiqot yoki innovatsion maqsadlarda katta hajmdagi ma'lumot-

larni avtomatik tahlil qilishga imkon beradi va ikki turga bo'linadi: a) ilmiy TDM (universitetlar va tadqiqotchilar uchun keng imkoniyatlar), b) tijorat TDM (huquq egasi ruxsatisiz cheklovlar mavjud)⁵.

Ushbu mexanizmlar innovatsiyalarni rag'batlantirsa-da, mualliflik huquqi egalari uchun yangi xavflarni keltirib chiqaradi. Generativ SI musiqa, tasviriy san'at va adabiyot kabi ijodiy sohalar-da inson ijodini taqlid qiluvchi yoki kengaytiruvchi mahsulotlar yaratadi. Transformer modellar va diffuziyaga asoslangan yondashuvlar musiqa-ning sifati va xilma-xilligini oshirdi. Masalan, Jukebox (2020) va MusicLM (2023) kabi modellar, shuningdek, Suno AI va Udio startaplari uslubiy taqliddan tortib innovatsion kompozitsiyalargacha yaratmoqda.

Biroq mualliflik huquqi bilan himoyalangan materiallarga tayanish huquqiy va axloqiy savollarni keltirib chiqaradi. Masalan, AQShda RIAA (Record Industry Association of America) tomonidan Suno AIga qarshi qo'yilgan da'vo shuni ko'rsatadiki, kompaniya o'quv ma'lumotlari sifatida erkin mavjud musiqa fayllaridan foydalangan va buni "fair use" deb asoslagan. Sudning qarori hali noma'lum, ammo bu ish SI kontekstida huquqiy murakkabliklarni ko'rsatmoqda⁶.

Generativ sun'iy intellekt modellarida maxsus xotira mexanizmlari bo'lmasa-da, tadqiqotlar ularning o'quv ma'lumotlarining muayyan qismini eslab qolish xususiyatiga ega ekanligini ko'rsatadi. Bu holat ilmiy-texnik va huquqiy muammolarni keltirib chiqaradi. Hozirda "memorization" mexanizmlarining sabablari va qanday yuz berishi ochiq masala sifatida qolmoqda. Modellar assosiativ xotira elementlariga ega bo'lib, foydalanuvchi kiritgan ma'lum signallar orqali o'quv ma'lumotlaridan maxsus namunalarni qayta ishlab chiqarishi mumkin. Bu esa mualliflik huquqi bilan himoyalangan asarlarning takrorlanishi orqali huquqiy oqibatlarga olib kelishi ehtimol.

³ mark-riedl.medium.com/a-very-gentle-introduction-to-large-language-models-without-the-hype-5f67941fa59e.

⁴ researchgate.net/publication/392026403_Fair_Use_of_Training_Data_in_Generative_Artificial_Intelligence.

⁵ Giorgos Vrakas, "A literature review of "lawful" text and data mining" open-research-europe.ec.europa.eu/articles/4-153?utm_source.

⁶ Tim Dornis, "Generative AI Training and Copyright Law", researchgate.net/publication/389315818_Generative_AI_Training_and_Copyright_Law.

Hozirgi generativ modellar o'quv ma'lumotlarining ayrim qismlarini eslab qolishini tasdiqlovchi dalillar mavjud⁷. Yirik til modellariga (LLM) o'quv ma'lumotlaridan parchalar kiritilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, eslab qolishga uchta asosiy omil ta'sir qiladi:

- 1. Model hajmi:** yirik modellar kichiklarga qaraganda 2–5 marta ko'proq eslab qoladi.
- 2. Ma'lumotlarning takrorlanishi:** tez-tez uchraydigan misollar ko'proq eslab qolinadi.
- 3. Kontekst:** uzun kontekst ketma-ketliklarni ajratishni osonlashtiradi⁸.

50 ta token uzunlikdagi kontekstlar eslab qolishni aniqlashda qo'llangan⁹. Bu hodisa ikki muhim huquqiy muammoni keltirib chiqaradi:

1. Yodlangan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan modellarni tarqatish: modellar assotsiativ xotiraga ega bo'lib, maxsus promptlar orqali mualliflik huquqi bilan himoyalangan materiallarni qayta ishlab chiqarishi mumkin. Masalan, Ross Intelligence Westlaw ning himoyalangan huquqiy tushuntirish (headnote) larini litsenziyasiz o'rgatgani uchun 2025-yilda mualliflik huquqini buzgan deb topildi¹⁰.

2. Yodlangan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan chiqishlar: ChatGPT, Suno yoki Udio kabi xizmatlar mualliflik huquqi bilan himoyalangan kontentni qayta ishlab chiqarsa, xizmat operatorlari

mahalliy qonunlar asosida javobgar bo'lishi mumkin. Masalan, Germaniyada GEMA (Musical performing va Mechanical reproduction rights jamiyati) 2024 va 2025-yillarda OpenAI va Suno Alga qarshi sud jarayonlari boshlandi.

Operatorlar turli mamlakatlarning huquqiy farqlari tufayli global muvofiqlik muammosiga duch keladi. Bu huquq egalariga xalqaro SI kompaniyalariga qarshi mahalliy sudlarda da'vo qo'zg'atish imkonini beradi.

Xulosa sifatida quyidagi takliflarni keltiramiz:

1. Mamlakatimizda SI munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasi ma'qullandi, ammo eslab qolish (memorization) hodisasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Ushbu hodisaga "sun'iy intellekt texnologiyasining o'quv ma'lumotlaridagi intellektual faoliyat natijalarini so'zma-so'z yoki sezilarli darajada o'zgarmagan shaklda eslab qolishi va qayta ishlab chiqishi" deb ta'rif berish mumkin¹².

2. Javobgarlik masalasida yagona yondashuv yo'q. Ba'zi olimlar ishlab chiqaruvchi yoki SI egasini javobgar deb hisoblasa, foydalanuvchi javobgarligini ham hisobga olish lozim, chunki maxsus promptlar orqali mualliflik huquqi bilan himoyalangan ma'lumotlarni chiqarishga undashi mumkin¹³.

Farhodjon ABDIHAKIMOV,

O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti
tayanch doktoranti

Generativ sun'iy intellekt modellarida maxsus xotira mexanizmlari bo'lmasada, tadqiqotlar ularning o'quv ma'lumotlarining muayyan qismini eslab qolish xususiyatiga ega ekanligini ko'rsatadi. Bu holat ilmiy-texnik va huquqiy muammolarni keltirib chiqaradi. Hozirda "memorization" mexanizmlarining sabablari va qanday yuz berishi ochiq masala sifatida qolmoqda.

⁷ Hirokazu Kiyomaru, Issa Sugiura, Daisuke Kawahara, Sadao Kurohashi, "A Comprehensive Analysis of Memorization in Large Language Models".

⁸ Carlini, N., Tramer, F., Wallace, E., Jagielski, M., Herbert-Voss, A., Lee, K., Roberts, A., Brown, T. B., Song, D., Erlingsson, U., Oprea, A., & Papernot, N., "Extracting Training Data from Large Language Models".

⁹ Milad Nasr, Nicholas Carlini, Jonathan Hayase, Matthew Jagielski, A. Feder Cooper, Daphne Ippolito, Christopher A. Choquette-Choo, Eric Wallace, Florian Tramèr, Katherine Lee, "Scalable Extraction of Training Data from (Production) Language Models".

¹⁰ David M. McIntosh, Yam Schaal, Maureen (Mo) Greason, "Does Training an AI Model Using Copyrighted Works Infringe the Owners' Copyright? An Early Decision Says, "Yes".

¹¹ gema.de/en/news/ai-and-music/ai-lawsuit?utm_source.

¹² <https://paradigma.uz/uz/news/sun'iy-intellektdan-foydalanishning-huquqiy-asoslari-yaratildi-video-1980>.

¹³ Bruno Deffains, Claude Fluet, "Decision Making Algorithms: Product Liability and the Challenges of AI".